

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MADANIYAT  
VA SPORT ISHLARI VAZIRLIGI  
RESPUBLIKA METODIKA VA AXBOROT MARKAZI  
ABDULLA QODIRIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT  
MADANIYAT INSTITUTI**

**ERKIN RAHIMOV**

**VOKAL**

O'quv-metodik qo'llanma

Toshkent - 2010

**Abdulla Qodiriy nomidagi Toshkent Davlat madaniyat instituti ilmiy kengashining 2009 yil 26 noyabrdagi 4-raqamli yig'ilishida muhokama qilindi va nashrga tavsiya etildi.**

*Ushbu o'quv-metodik qo'llanma vokal ijrochiligida ovozni to'g'ri tarbiyalash, to'g'ri nafas olish va undan foydalanish, to'g'ri tovush hosil qilish, artikulyatsiya apparati hamda tovush hosil bo'lishida ishtirok etadigan barcha organlarni tanishtirish va ularning faoliyati haqida ma'lumotlar beradi.*

*"Vokal" o'quv-metodik qo'llanmasi madaniyat va san'at oliy o'quv yurtlari bakalavr yo'nalishi talabalari uchun mo'ljallangan. Ayni paytda o'quv-metodik qo'llanmadan musiqa, san'at, madaniyat va pedagogika institutlari talabalari hamda madaniy-ma'rifiy muassasalar qoshida tashkil etilgan jamoalar ham ish jarayonlarida foydalanishlari mumkin.*

### **Mas`ul muharrir:**

Nosirov R.X.

Abdulla Qodiriy nomidagi Toshkent Davlat Madaniyat instituti professori, filologiya fanlari nomzodi


### **Taqrizchilar:**

**Mirzaev Q.T.**

- Abdulla Qodiriy nomidagi Toshkent Davlat Madaniyat instituti "Vokal ijrochiliqi, musiqa tarixi va nazariyası" kafedrasi mudiri, professor

**To'raev Yu.Sh.**

- O'zbekiston Davlat konservatoriysi dotsenti,  
O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist



## KIRISH

Butun insoniyat tarixida insonga berilgan ijrochilik ovozi Alloh tomonidan berilgan deb hisoblangan. U har doim ilohiy titroqni, havasni va uni egallash hohish istagini keltirib chiqargan. Ijroga nisbatan katta hurmat va maishiy qiziqishlarni ortib borishi, vokal maktablarini va yangi ovoz usullarining tashkil topishiga sabab bo‘ldi. Ammo talabchanlik maqsadiga ko‘ra ularni usul deb aytib bo‘lmaydi. Bu pedagogik tarafdan shaxsni vokalni his qilish tuyg‘usi orqali ovozni yo‘lini topish harakatlari edi. Ulardan har biri o‘z usulini ajoyib ijrochi sifatida taklif qilgan. Ayni damda esa gap o‘quvchini o‘qitish emas, balki tabiatan unda bo‘lgan ovozining imkoniyatlarini mukammallashtirish va uning tabiiy sifatlarini rivojlantirish haqida edi va pedagogik tarafdan qaralganda ijobiy natijaga o‘qituvchi va o‘quvchining vokalni o‘zaro juda yaqin sezishi orqali erishiladi. Lekin bu o‘qitishning ko‘p qismi bo‘lib, ular o‘rtasida kurashni keltirib chiqarardi va turgan gapki o‘qituvchi yutib chiqqan.

Xrestomatiyaga asosan misol: Enriko Karuzo o‘zining birgina o‘quvchisini ovozini o‘ziga o‘xshashga majbur qilib juda tez buzgan. Karuzo o‘zining fenomenal vokal ma’lumotlarini o‘quvchiga taklif qilganda o‘zining tabiatan oddiy ovozi bilan bunday yukni ko‘tara olmagan va ovozi shikastlangan. Bunday mudhish voqealar hozirgi vaqtida ham sodir bo‘lmokda. Savol tug‘iladi: nima uchun musiqa pedagogikasining hech bir sohasida vokaldan tashqari shunday vaziyatlar mavjud emaski, o‘qituvchi o‘quvchisini o‘z kasbiga o‘rgatishni bilmaydi. Nafaqat bilmaydi, balki uning tabiatan bo‘lgan imkoniyatlariga zarar qiladi. Javob bitta: o‘qituvchi buni qanday qilishni bilmaydi va bu muammoni o‘zicha echishga harakat qiladi. O‘quvchi o‘zida bor ovoz bilan bir amallab oldiga qo‘yilgan masalalarni echishi mumkin. Akustika va fiziologiya fanlarining oxirgi yutuqlariga asosan murakkab mexanizmga ega bo‘lgan ovoz tuzilishi mushaklarini qo‘sish aytish jarayonida ahamiyatga ega bo‘lishi uchun ularning har birini mashq qilishdadir. Shunday qilib ovozni yo‘lga qo‘yish qo‘sishning o‘zi va musiqa jo‘rligida «yakkalikka» chek qo‘ydi. Ijrochilik san’ati mustahkam ilmiy bazaga ega bo‘lib, endi ijro qilishni boshlayotgan o‘quvchiga noldan boshlab professional ovoz ijrochisi bo‘lguniga qadar barcha yo‘llarni ochadi.

Ovozni ijro qilish ilmini yaratish masalasiga katta hissa qo‘sghan buyuk olimlar: Yusson (Fransiya), L.B.Dmitriev (Rossiya), D.E.Ogorodnikov (Rossiya).

Yusson va L.Dmitriev masalani akustika va fiziologik tomonlarini o‘rganganlar. Bundan asosiy xulosa: bu bir turdagи vokal texnikasini mavjudligidir, ya’ni hamma ijrochilar texnologik tomonidan bir xil aytadilar.

## OVOZ APPARATI HAQIDA QISQACHA MA'LUMOT


Ovozni tashkil qiluvchi barcha a'zolar birgalikda **ovozi apparatini** tashkil qiladi. Uning ichiga quyidagilar kiradi:

- og'iz va burun bo'shlig'i (qo'shimcha bo'shliqlari bilan);
- xiqildoq (halqum, bo'g'iz);
- tovush naychalari;
- tomoq,;
- traxeya;
- bronx;
- o'pka;
- ko'krak qafasi;
- nafas olish muskuli;
- diafragma;
- qorin bo'shlig'i muskullari.

Lekin bular hammasi emas. Tovush tashkil qilishda, shuningdek asab sistemasi ham qatnashadi. Bosh miya asablar markazini sezadigan va qimirlaydigan asablar bilan birga bu markazlarni boshqa ko'rsatib o'tilgan a'zo bilan birlashtiradi. Miyadan harakatlanuvchi asablar bo'ylab bu a'zolarga buyruqlar keladi, sezuvchi asablar bo'yicha esa ishchi a'zolarning holati haqida ma'lumotlar keladi. Ishning asosiy maqsadi, tovushni tashkil qilishda qatnashuvchi a'zolar markaziy asab sistemasi buyruqlarini, texnik bajaruvchilar bo'lib hisoblanadi. Tovushni tashkil etuvchi a'zolarning ishini markaziy asab sistemasi bilan bog'liq emas deb qarash mumkin emas. Asab sistemasi tovushni tashkil etuvchi a'zolarning vazifasini birgalikda boshqarib qo'shiq ijro etish jarayonini murakkab psixo-jismoniy harakatga keltiradi.

Tovush chiqaruvchi apparat:

- 1 – xiqildoq (halqum, bo'g'iz);
- 2 – kekirdak;
- 3 – kekirdak tarmoqlari;
- 4 – o'pka;
- 5 – diafragma.



Eshitish va ovozning o'zaro bog'liqligi ikki tomonlama bo'ladi. Tovush faqatgina eshitish a'zosi orqali shakllana olmaydi, lekin eshitish ham tovush a'zolarining ishtirosiz rivojlana olmaydi. Eshitish orqali qabul qilish tovush a'zolarining harakatga kelishi orqali yuzaga keladi. Bu suhbatni, musiqani yoki qo'shiqni eshitish orqali «biz» o'z ichimizda

gohida ovoz chiqarib, ularni qaytarib va so'ngra qabul qilamiz. Vokal malakasini shakllanishi va rivojlanishida har vaqt qatnashuvchi a'zolarning tug'ilishi yuz beradi, ortiqchalari sidiriladi va mukammallashadi. Barcha jarayonlar rezonatorli, muskulli va eshitishni his qilish nazoratisiz bo'lmaydi.

Ovoz apparatining a'zolari:

- **Xiqildoq** (halqum, bo‘g‘iz) - bu ovoz tug‘ilishi yuz beradigan a’zo bo‘lib, u bo‘yin o‘rtasidan uni old qismida joylashib, ingichka yo‘lakni (trubkani) o‘zida namoyon qilib, yuqori teshigi tomoq bo‘shlig‘ida ochiladi. Pastki bo‘g‘iz qizil o‘ngach tomonigacha davom etadi. Xiqildoq (halqum) uch vazifani bajaradi: nafas olish, himoya qilish, tovush chiqarish. Uning asosini murakkab tuzilishga ega bo‘lgan kemirchak tashkil qiladi. U o‘zaro birikkan bo‘g‘imlar orqali harakatlanadigan bog‘lamlar, shuningdek yuzasidan va ichkarisidan muskullar bilan to‘qilgan. Xiqildoq (halqum, bo‘g‘iz) ning ichki sirti bizni tanamizdagi hamma og‘iz bo‘shlig‘i a’zolari kabi shilimshiq qavat bilan qoplangan. Xiqildoq (halqum)ning eng katta kemirchagi - qalqonsimon bo‘lib, xiqildoq (halqum) kengligini bildiradi. Uning ustki teshigi halqumga kirish deb atalib, oval shaklida namoyon bo‘ladi. Nafas olishda halqumga kirish yo‘li ochiq bo‘ladi, yutishda esa halqum usti erkin, atrofi orqaga egilib, teshigi berkiladi. Qo‘sishq aytish vaqtida xiqildoq (halqumga) kirish yo‘li qisiladi va uning ustini yopadi. Bu jarayon qo‘sishq tovushini qimmatli va badiiy fazilatlarini tarkib topishida, qo‘sishq aytish tayanchida katta ahamiyatga egadir. Agar xiqildoq (halqumga) yuqoridan qaralsa ikki tomondan simmetriya tarzida shilimshiq qavat bilan qoplangan, biri ikkinchisi ustidagi do‘nglikni ko‘rsatadi. Ular orasida uncha katta bo‘lmagan simmetrik chuqurlar (kovak), ya’ni qisiladigan oshqozon bo‘ladi. Ustki do‘ngliklar yolg‘on burmalar deb ataladi, pastkilari esa tovush burmalari deyiladi. Yolg‘on burmalar xuddi xiqildoq (halqum) shilimshiq qavati kabi rangda bo‘lib, ular kovak to‘qimalarini qo‘shilishida burmalarni yaqinlashtiradigan, kuchsiz rivojlangan muskullardan tashkil topgan. Bezlar yolg‘on burmalarda joylashgan va oshqozon devorlarida bezlari yo‘q bo‘lgan burmalarni namlantiradi. Bu vazifa asosan qo‘sishqa tovush (ovozi) paydo bo‘lishida juda kerak. Tovush burmalari nafas olganda uchburchak shaklidagi (tovush yorig‘i deb ataluvchi) yoriq (teshikni) tashkil qiladi. Tovush tashkil qilishda tovush burmalari o‘zaro yaqinlashadi yoki birlashadi va tovush teshigi yopiladi. Tovush usti och qizg‘ish (pushti rangli) mustahkam elastik to‘qimalar bilan yopiladi. Ular ichida tashqi va ichki qalqonsimon muskullar joylashgan bo‘lib, ichkilari vokal muskullari deb ataladi. Muskulli tolalar ichki burmalar chetiga parallel va qiyshiq yo‘nalishda joylashadi. Ushbu tuzilish tufayli tovush burmalari ko‘plab nafaqat o‘z uzunligini o‘zgartirishi mumkin, balki yana ikki qismga tebratadi. Bu uning barcha kengligi va uzunligi bo‘lib, qo‘sishq aytishda tovushni rang - barang boyitilishiga sabab bo‘ladi. Tovush burmalari xiqildoq (halqum, bo‘g‘iz)ni ikki kenglikka: ya’ni burma usti va burma osti qismlariga ajratadi. Hamma xiqildoq (halqum) muskullari ichki va tashqiga bo‘linadi. Ichki muskullar tovush teshigini qisib, tovush tuzilishini namoyon qiladi. Tashqi xiqildoq (halqum) muskullari yuqorida yotgan pastki jag‘ni til osti bilan birlashtiradi va pastki qismidan esa ko‘krak suyagi bilan biriktiriladi. Bu muskullar xiqildoq (halqumni) ko‘taradi va tushiradi, shuningdek uni tegishli yuqorilikda to‘plab tovush tashkil qilish uchun kerakli holatga to‘g‘rilaydi. Pastdan xiqildoq (halqum) nafas olish tomog‘idan yoki qizilo‘ngachdan bevosita o‘tadi. Qizilo‘ngach kemirchaklardan iborat bo‘lib, orqasi yopilmagan uzun karnay sifatida ko‘rinadi. Bu kemirchakli plastinkalar yapaloq kemirchaklar bilan o‘zaro

bog‘lanib tsirkulyar va uzunasiga muskullar bilan o‘ralgandir. Sirkulyar muskullar qisqarayotib qizilo‘ngachning yorug‘ligini berkitadi, uzunasiga esa qisqarganda uni kattalashtiradi. Qizilo‘ngach ikki katta bronxga bo‘linib: ular daraxtga o‘xshab shoxlab, juda maydalashib ketadi. Eng kichik bronxlar - bronxiola (gaz almashish) sodir bo‘ladigan dumaloq sharchalar bilan tugaydi. Barcha bronxial daraxtlar xiqildoq (halqum) nusxasi bo‘yicha tuzilgan, faqat kemirchak uzunligi bilan berkitilgan. Xiqildoq (halqum) va bronx muskullari yumshoq, tekis nusxaga tegishli bo‘lib, bizning ongimizga bo‘ysunmaydi, balki o‘zi avtomatik tarzda ishlaydi. Nafas yo‘llari bronx kalibrining o‘lchovi bo‘yicha kichrayishida kemirchak to‘qimasi unda kichik bo‘lib qoladi va muskullarda qisiladi. Kichkina bronxlar nafas yo‘llari butunligicha muskul to‘qimalaridan tashkil topadi. Bu tuzilish kichik bronxlarga ochilib – yopilish rolini ijro etishga ruxsat beradi. Tovush tuzilishi vaqtida o‘pka to‘qimalaridan o‘tadigan havoning o‘tishi tartibga solinadi. Barcha bronxlar o‘pka sharchalari bilan ikkita o‘ng va chap o‘pkalarni tashkil qiladi, ular ko‘krak qafasida joylashgan ko‘krak bo‘shlig‘i atrofidagi havodan germetik tarzda ajratilgan holda joylashtirilgan bo‘ladi. Ko‘krak qafasi konusning kesilgan shakli tarzida bo‘ladi. U oldindan ko‘krak suyagi bilan orqadan esa ko‘krak umurtqa pog‘onasi, ya’ni ko‘krak qismidan tashkil topgan. Umurtqa pog‘onasi ko‘krak suyagining yoysimon qovurg‘alari bilan birikkan, ko‘krak qafasi asosi muskullari bilan o‘ralib, ular nafas olishda qatnashadi, biri nafas olishda qatnashib ko‘krak qafasi bo‘shlig‘ini kengaytirsa, boshqasi ko‘krak muskullari qovurg‘alarni tushirib, nafas chiqishni ro‘yobga chiqaradi va shu sababli nafas chiqaruvchilar deyiladi. Ko‘krak qafasi asosini diafragma yoki ko‘krak qorin to‘sqliari tashkil qiladi va bu juda kuchli muskulli a’zo bo‘lib hisoblanadi.

**Diafragma** – pastki qovurg‘alarga va umurtqa pog‘onasiga birikkan ikkita o‘ng va chap gumbazga egadir. Nafas olish vaqtida diafragma muskullari qisqaradi, uning ikki gumbazi ko‘krak qafasi hajmini kengaytirib pastga tushadi. Diafragma ko‘ndalang yo‘l-yo‘l muskullardan tashkil topgan. Uning harakati bizning ongimizga umuman bo‘ysinmaydi. Biz ongli ravishda nafas olib chiqarishni ushlashimiz mumkin. Lekin diafragmani murakkab harakatlari tovush tashkil qilishda ongimiz ostida sodir bo‘ladi. Diafragma havo o‘tish tezligini va ovozlar tashkil bo‘lishida burmalar tagidagi bosimni va ularni kuchini o‘zgarishini tartibga soladi.

Tovush osti burmalarida joylashgan bo‘shliqlar:

- burun;
- og‘iz;
- tomoq;
- xiqildoq (halqum) ustki qismi ustidan o‘tadigan karnay.


Bu karnayning ustki qismi – **burun** bo‘shlig‘idir. U burunning yumshoq to‘qimalaridan va bosh suyagining sirti (yuzi)dan tuzilgan bo‘lib, burun devorining o‘rta chizig‘idan vertikal chap va o‘ng yarmicha orqa va oldidan ochilgan. Burun bo‘shlig‘i devorlarida kichik kanal teshikchalari bo‘lib, u bosh suyagi sirtida joylashgan havo o‘tish bo‘shlig‘i bilan tutashadi va ular ham xuddi burun

bo'shlig'i kabi shilimshiq qatlamlar bilan qoplangan va bu bo'shliq kasallanganida yiring bilan to'lishi mumkin, bu esa qo'shiq aytganda ovozni sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

**Halqum** - (rarynx) muskulli kavak organ bo'lib, xiqildoq va og'iz bo'shliqlarining orqasida joylashgan. Halqum yuqorida kalla asosining suyaklariga yopishadi, pastda esa qizilo'ngachga o'tadi. Halqum bo'shlig'ining uchta qismlari bor: burunga qaragan, og'iz va xiqildoq. Halqumning burunga qaragan qismi **xoanalar** yordamida burun bo'shlig'iga, og'iz tomonagi qismi tomoq vositasida og'iz bo'shlig'iga tutashadi. Halqum bo'shlig'i xiqildoq tomonagi qismida qizilo'ngachga o'tadi va xiqildoq bo'shlig'iga tutashadi. Halqumning burun tomonagi qismi burun bo'shlig'iga tutshish bilangina qolmay, eshituv nayi orqali o'rta quloq bo'shlig'iga ham tutashadi. Eshituv naylarining halqumga ochiladigan teshiklari halqumning burun tomonagi qismining yon devorlarida, burunning pastki chig'anoqlari ro'parasida voronkasimon chuqurchalarga o'xshab yotadi.

Muskul pardasi ko'ndalang-targ'il muskullardan tuzilgan bo'lib, halqumni qisuvchi uch juft muskul va halqumni ko'taruvchi ikki juft muskuldan iborat.

**Rasm 3.** O'pka, bronx (nafas yo'llari), xiqildoq (halqum) va ustki rezonatorlarning tuzilishi (tasviri).



1 – o'pka;

2 – bronx, kekirdak tarmoqlari;

3 – bronxiola;

4 – alviola;

5 – til;

6 – xiqildoq (halqum);

7 – kekirdak;

8 – kichik tilcha;

9 – xiqildoq (halqum) qopqog'i.

**Burun** shilimshiq qatlami qon tomirlari va bezlar bilan boydir va shuningdek tuklar bilan ham qoplangan. Tuklar nafas olganda burundan o'tayotgan havoni isitadi, yumshatadi va tozalaydi. Burun bo'shlig'ini pastida **og'iz bo'shlig'i** joylashgan. Uning yon devorlari lunj bo'lib, og'iz ichini til to'ldiradi, oldi devorini esa lablar tashkil qiladi. Lab qalinligida muskullar bo'lib og'iz teshigini hosil qiladi va uni shaklini o'zgartirib og'izni yopadi. Og'iz bo'shlig'i ustki devorlari yassi suyak parchasidan tuzilgan bo'lib, u og'iz bo'shlig'ini burun bo'shlig'idan ajratib turadi. Bu qattiq tanglay deb atalib orqa tarafdan yumshoq tanglayga o'tadi va tanglay pardasi deyiladi. Orqa og'iz bo'shlig'ida erkin osilib turadigan yumshoq tanglay cheti o'rtasida do'ngligi bo'lib uning kichik tilchasi bor (u faqat odamda bo'ladi). Yumshoq tanglayning ikkita tarqalgan simmetrik burmali shilimshiq qatlami burchak ostida pastga tomon ikki tomonga tarqaladi. Bu burmalar-oldingi va orqa yoycha deyiladi. Yoycha qalinligidan muskullar o'tadi va ular yumshoq

tanglayni til va xiqildoq (halqum) bilan birlashtiradi. Yumshoq tanglay sezuvchan asablarga yaxshi moslashgan. Tanglay qalinligida joylashgan muskullar qisqargan vaqtida ko‘tarilib, uni tortadi. Qattiq va yumshoq tanglay old tishlar bilan birga ma’lumotni tashkil qiladi. Orqadan og‘iz chanoq bo‘shlig‘i keng yoriq paydo qilib (uning o‘rta qismicha) esnoq bo‘g‘izga ochiladi. Tepadan esnoq yumshoq chanoq bilan, yon tomondan chanoq yoymasasi bilan, pastidan til suyanchig‘i bilan cheklangan va esnoq qisilishi, kengayishi mumkin. Uning qisilishi (siqilishi) muskullar qisqarishi natijasida sodir bo‘ladi. Qo‘shiq aytishda esnoq kengayadi, bu yumshoq chanoqning ko‘tarilishida va tilni tutishida sodir bo‘lib, u qo‘shiq aytishda kuzatiladi. Bo‘g‘iz o‘zida musqulli karnayni ko‘rsatadi, uning yuqoriga kengaygan bo‘limi ko‘r-ko‘rona bosh suyagi ma’lumoti ostida to‘xtaydi. Bo‘g‘izda alohida bezli to‘plamlar bo‘lib ular mayda qon tomirlari to‘qimalari deyiladi va ular bodomni tashkil qiladi. Ulardan ko‘proq ahamiyatlari - xiqildoq (halqum) bodomlari (bo‘g‘iz yuqori devorida yotadi) va – bodomlar (ular old va orqa chanoq yoymasida joylashgan). Bodomlar himoya qilish vazifasini bajaradi, ularda bo‘g‘izga tutashadigan ko‘zga ko‘rinmaydigan juda kichik organizmlar (mikroblar) ushlanib qolinadi. Bodomlarning o‘tkir yallig‘lanishi o‘tkir tonzilit yoki tomoq og‘rig‘i deyiladi. Bodomlarning ahamiyatli kattalashishi bo‘g‘iz bo‘shlig‘ini kichraytiradi, qo‘shiq aytish ovozini tashkil bo‘lishiga salbiy ta’sir qiladi. Bo‘g‘iz (halqum) devorlarini kuchli muskullar tashkil qilib ular tsirqulyar va uzunasiga yunalishda bo‘ladi. Bular natijasida halqum (bo‘g‘iz) kengayishi va kichrayishi, turli qismlarda siqilishi mumkin (pastki, o‘rta, ustki) va shu bilan birga ko‘p marta o‘z shakli va hajmini rezonator xususiyatlarini o‘zgartirishi mumkin. Halqum (bo‘g‘iz) muskullari butunlay bizni ongimizga bo‘ysunadi.

## **OVOZ (TOVUSH) TASHKIL ETILISH JARAYONI**

Har qanday egiluvchan gavda tebranish vaqtida atrofidagi havo qismlarini harakatga keltiradi. Bo‘lardan ovoz (tovush) to‘lqinlari tashkil bo‘ladi. Bu to‘lqinlar kenglikda tarqalib bizning qulqlarimizga tovushdek eshitiladi. Shunday qilib bizni atrofimizni o‘rab turgan tabiatda tovush (ovozi) hosil bo‘ladi. Inson a’zolarida shunday egiluvchan tana bo‘lib tovush burmalari hisoblanadi. So‘zlashuv va qo‘shiq aytish tovushi ovoz burmalari tebranishida va nafas olishda ularni o‘zaro bir-biriga ta’sirida hosil bo‘ladi. Insonning o‘z hohishi bilan qo‘shiq aytishida uning barcha ovoz apparati qismlari bu harakatni bajarishga tayyorgarligi holatiga keladi. Qo‘shiq aytish jarayoni nafas olishdan boshlanadi. Havo og‘iz bo‘shlig‘i va burun bo‘shlig‘idan, halqumdan, bo‘g‘izdan, traxeyadan, bronxlardan o‘pkaga kirishda kengayishi vaqtida o‘tayotgandan so‘ng asab sistemasida, xabarlarning ta’siri ostida yopik tovush yoriqlari hosil bo‘ladi va bu nafas chiqarish vaqtiga to‘g‘ri keladi. Yopilgan tovush burmalari havo chiqarish yo‘lini to‘sadi, erkin nafas chiqarishga halaqit beradi. Nafas olganda yig‘ilgan burma osti kengligidagi havo nafas chiqarish muskullari ta’siri ostida siqiladi.

- Rasm-4.** 1 – manglay bo‘shlig‘i;  
 2 – panjarasimon labirint;  
 3 – gaymorit bo‘shlig‘i;  
 4 – burun bo‘shlig‘i teshigini ustki bo‘limi.

Hech kachon unutmaslik kerakki, insonlar a’zolarining xususiyatlari individual (yakka) anatomik, fiziologik va psixologik bo‘lib va shu erda har bir shaxs yakka yondashishi shartdir, shuningdek har bir ovozni eshitilishi qaytarilmasligi, tembri, kuchi, chidamliligi va boshqa sifatlari bo‘lishi uchun shartdir.

## NAFAS OLISHNING ICHKI TUZILISHI




Har doim katta pedagog-vokalist F.Lampertining quyidagi gaplarini unutmaslik kerak: “Ovozni tarbiyalashda boshlang‘ich davrda qo‘sishchi shuni esda tutishi kerakki , ya’ni tovush bilan emas balki aql bilan o‘rganish lozim, uni charchatib hech qanday vosita bilan ham yaxshi holatga keltira olmaysan. Aqli bosh-omadli ishlarning kafolatidir, u shuningdek xuddi yaxshi tovushdek zarur».

Ijro asosining poydevori - bu nafas. Yaxshi ijro - bu nafas chiqarish ustaligi bo‘lib, xuddi ustalik bilan nafas chiqarish uchun nafas olishni o‘rganish kerak. Nafasda jumlanı aytish yoki ijro qilish uchun etarli havo hajmi bo‘lishi darkor, u asta-sekin bog‘lamlardan oqim bo‘ylab o‘tib, tomoq oqimlari bo‘yicha

kamonchadek tovush bizning asab tolalarimizni tovush chiqarishga majbur qiladi. Albatta bu juda qattiq talab qilingan tasvir, ammo bu erda asosiy fikr bu tovush tashkil qilish jarayonida nafas olishni o‘ta zarurligini ko‘rsatadi. Ijroda nafas olish - juda ilg‘or aniq maqsadga yo‘naltirilgan mustahkam tugunchaga o‘xshab yig‘ilgan kamoncha bo‘lishi kerak.

Nafas olish uch xil bo‘ladi: - **sarpardali, ko‘krakli, ko‘krak qorinli.**

Sarpardali nafas olish juda ustkidir. Bunday nafas olishda insonning elkalari ko‘tariladi «siltanadi». Sarparda (bu tashqi ko‘rinish)



havo faqat o'pka ustki qismidan ko'krak qafasini umuman qimirlatmasdan o'tadi. Bu nafas olish umuman ijroga to'g'ri kelmaydi. Ijrochi shunday nafas olishi shartki, bunda ko'krak qafasi havo bilan to'lib ochilishi, elka esa tinch bo'lishi, qaddi basti to'g'ri bo'lishi kerak. Tasavvur qilingki, oldingizda yoqilgan sham uni siz puflab o'chirishingiz kerak. Siz nima qilasiz? Xech kim bu muammo ustida bosh qotirishni hattoki o'ylamaydi ham, xotirjam havoni yig'ib (yutib) olovga puflaydi. To'g'ri endi buni yana bir marta qaytaring va o'z harakatlaringizni kuzating. Havo ko'krak (o'pkani) to'ldiradi keyin esa yo'nalgan oqim bo'yicha tashqariga chiqariladi. Bu jarayon sodir bo'lishi shart. Siz gapirayotganingizda yoki qo'shiq aytayotganingizda, ya'ni har yangi jumlada oldin nafas olasiz, keyin yo'nalgan nafas chiqarasiz.

Biz aytib o'tdikki, qovurg'alar ko'krak qafasini tashkil qiladi, unda yurak, o'pka joylashgan. O'pkalar havo bilan to'lganda (nafas olganda) ular katta hajmga ega bo'lib qovurg'alarni ikki tomonga suradi - bular **qovurg'ali, ko'krakli** nafas olishdir.

Mashhur pedagog I.P.Pryanichkov: o'pkaga havo yig'ishni o'rganish haqida maslahat beradi. Kelinglar shunga nafas olish apparatini mustahkamlovchi va pishitadigan oddiy nafas olish mashqlari yordamida o'rganishni boshlaymiz:

**1-mashq.** Qo'l kaftlarini qovurg'alarga qo'ying. Yon tomonlarga panjalar bilan ko'krak markaziga va chuqur kindikkacha nafas oling. Elkalarmi ko'tarmang. Sizning qo'llaringiz havoni ko'krakka o'pkaga shiddat bilan kirish o'rnni tarqalishini sezadi. Bu sizni to'g'ri havo hajmini olganligingizni bildiradi. Nafas olishni tashlab nafas chiqaring. Qo'llaringiz qovurg'alarni qanday tushganligini sezishi kerak.

**2-mashq.** Oldin tilingizni oldindi ustki tishlaringiz ildizi yonidan o'tkazing. Tishlardan (qattiq tanglay) orqaga keladi. Bu erni (sezing) his qiling. Oldindi so'yloq tishlar ildizi qattiq tanglaydir. Endi nafas olishda qo'llar bilan qovurg'alarni nazorat qilib, kirayotgan havo hajmini his qilamiz. Nafas chiqarayotganimizda aniq baland ovoz bilan sanaymiz: 1-2-3-4 va hakozo. Bu bilan tilimiz bilan tekkan so'yloq tishlar ildizini (his qilishga) sezishga harakat qilamiz. Bu doiraga biz nafas chiqarish oqimini yo'naltiramiz va bu erda bizning gapimiz eshitiladi. Bunda sizning tasavvuringiz yordam berishi kerak. Faraz qilaylikki, qattiq tanglay - juda yuqori gumbazdek, xuddi soyabon yoki parashyut tomidek. Bunday gaplar nazoratdagi nafas chiqarish va nafas olishdagi qo'yilgan talablar deyiladi. O'lchov bilan havo sarflanayotganida qovurg'alarni hech qanday silkinmasdan ohista tugayotganini kuzating. Bu havoni o'pkadan ohista chiqishidir. Buyuk pedagog M.Garsia aytgandiki, ya'ni ko'krak ovozni havo bilan to'ydirishdan boshqa ish qilmaydi. Barcha nafas olish mashqlari bu bo'limda «alifbodek» juda oddiy, hatto qadimiyyidir. Eslang qanday qilib yosh bolalar hayotda birinchi qadamini dadil boshlaydi, qachonlardir erdan uzilgan, erda chaqqon emaklagan holda ularni yurishga o'rgatish uchun qancha sabr va vaqt kerak. Ajratilgan muskullarni, tovush nafas olish uchun professional tuzishda, ularni ishlab chiqish va mashq qildirish kerak. Juda ko'p uchraydiki, inson bu mashqlarda xech qanday yangi his tuyg'ularni topmaydi. Bundan ko'rinish

turibdiki, insonning tabiatи bunga moslashgan va bu muskullar ishlanib bo‘lgan. Bu bosqichda to‘xtab qolmay yana ilgariga yurish mumkin. Ayrim hollarda tabiat insonlarga nafas olish, tovushni to‘g‘ri chiqarishni beradi, lekin bunday vaziyatlar kamdan kam uchraydi. Agar mashqlar davomida sezgi tuyg‘ularingiz yangi bo‘lsa, ularni oddiyligidan deb o‘ylamang, ular biz qurayotgan bino bo‘ladi. Men sizlarga mashqlar davomida nafas olishni nazorat qilishni va keyin ijro vaqtida qo‘l kaftlarini pastki qovurg‘alarda ushlappingizni tavsiya qilaman. Diqqat qiling: to‘g‘ri nafas olganda pastki qovurg‘alar nafaqat yon tomondan, balki orqa qaddi qomatdan ham yirilib ochiladi. Qovurg‘alarning xuddi shu yirilib ochilishi to‘g‘ri nafas olishni ko‘rsatadi.

**3-mashq.** Juda tez chuqur va tezlikda burun orqali nafas oling (pastki qovurg‘alardan) bunda elkalar ko‘tarilmasligiga e’tibor bering. Tezlikda faol og‘izdan nafas chiqaring. Bu mashq nimasi bilan ajoyib? U nafas apparatini juda faol qiladi. Siz juda faol ongli ravishda nazorat qilgan holda nafas olasiz. Pedagog Lukanin uni til va halqumming to‘g‘ri holatini (belgilash) o‘rnatish uchun tavsiya qiladi. Bu faol havo oqimini yaxshi bog‘liqligidir. Siz darsga borayotganingizda bu mashqlarni bir necha marotaba takrorlab ko‘ring, shunda siz mashg‘ulotga kuchli tayyorgarlik ko‘rgandek kirasiz, ya’ni bu mashqlar nafaqat apparatni faollashtiradi, yana u bor ovoz tuzilish usuliga diqqatni tortadi.

**4-mashq.** Og‘izdan faol nafas olasiz, nafas chiqarishda DA-DE-DO bo‘g‘inini aytasiz, (oldingi tishlar ildizini his qilgan holda ikkita oldingi tishlar orasini chertishdek tovush orqali aytamiz). Til yuqori so‘yloq tish ildizini yonidagi qattiq tanglayga tegadi, pastki jag‘ erkin harakatlanadi, lekin tushmaydi. Tasavvuringizni yo‘naltiring: Sizning qattiq tanglayingiz go‘yo gumbazdek. Shuning uchun «A» tovushi (DA-bo‘g‘inida) keng xonada gapirayotgan inson ovozidek juda keng, chiroyli chiqadi. Nafas olishni tekis, hech qanday silkinishsiz bo‘lishini kuzating.

**5-mashq.** O‘zingizga qulay qaddingizni rostlab orqaga yoting bir qo‘lni qovurg‘alar ustiga, ikkinchisini qorin ustiga qo‘ying, chuqur nafas oling. Qo‘llar qovurg‘alarni yirilib ochilishini his qilishi kerak. O‘pkalar havo bilan to‘ldirilgan, qorin tekislanadi o‘pka diafragmani itaradi. U bo‘lsa qorinni ezadi. Nafas chiqarishda 1-2-3-4 va hakozo sanoq sonlarni shoshilmasdan davom ettiring. Havoni oxirgacha siqib tashlash kerak emas Bir tekis ohangda bir maqomda sanang. Ovoz (tovush) bir vaznda va yoqimli, bu mashqda eng asosiysi - nafas olishdir (butunlay nafas olish va bir tekis davomli nafas chiqarish). Tovushlarni xuddi to‘rtinchи mashqdagidek his qilish.

**6-mashq.** Mashqlarni ozroq murakkablashtiramiz (hammasi beshinchi mashqdagidek). Qaddini rostlab yotilgan holat: nafas olish va nafas chiqarishni nazorat qiling, bir vaznli tovushda sanang. Sanoqni ikki belgili sonlar bilan olib boring: 21-22-23-24 va hakozo. Asosiysi sanoqni davomliligi emas, balki nafas olish sifati va nafas chiqarishni bir tekisligidir.

**7-mashq.** Og‘iz bilan chuqur nafas olib, nafasni burundan ovoz chiqarib oling, ya’ni tez va chaqqon ko‘krakda havo kengligi tushsin. Bu tovush chiqarish «ixrash» nafas chiqarganda katta hayvonni dalada nafas olishiga qiyoslash mumkin

bo'lsin (sigir, ot) marash emas, nafas chiqarish ixrash bo'lsin. Yoki o'zingiz faraz qiling: ko'krak bu katta idish bo'lib, unga sizning ixrashingiz kiradi. Ixrash tovushini ustki (tepa) tishlarga suyang, bunda lablaringizda qitiqlash his tuyg'usi paydo bo'lishi kerak, bo'g'iz katta va erkin. Nima sababdan sigirga o'xshatish sizga g'ayri-tabiiy tuyulayotgandir, chunki sigirning yon tomonlari katta va nafas chiqarishi juda baquvvat. Tabiatda biz hayvonlardek erkinlikni va tabiiylikni o'rganishimiz kerak, ularni insonlar yo'qotishgan. Bu mashqda sizning ixrash tovushingiz o'zingiz uchun qulay, qaerdadir registrning pastki qismida boshlanishi kerak..

**8-mashq.** Og'iz bilan chuqur nafas olib, nafas chiqarishda uzun cho'zib «M» bo'g'inini aytинг. Lablar yuzi yumilgan, qisilmagan bo'lish kerak. Qo'llar nafas olishni kuzatadi. Tovush ko'krakda eshitilishi kerak. «M» tovushini «I», «V», «Z»ga almashtiring. SHaroitlar va talablar xuddi «M» tovushi kabi bo'lishi kerak.

**9-mashq.** To'qqizinchi mashqni murakkablashtiramiz. Ikkita bo'g'inni aytamiz. Ikkinchisiga urg'u beramiz, ya'ni ikkinchi bo'g'in unlisini cho'zamiz, eshitamiz. «MA», «MA» har vaqt his qilishni to'g'rilibini tekshiramiz, nafas olishni nazorat qilamiz. O'zingizni tovushingizni davomiyligini eshiting, u sizning qomatingizdagi kenglikni to'ldiradi, qattiq tanglay (boshdan) pastki qovurg'alargacha katta keng ochilgan tomoqdan o'tayotib (xuddi xumdan suv oqqandek). Bo'g'inalarni shoshilmasdan aytинг. Bo'g'inalar orasida to'xtalish qilmaslik, nafasni u tugagandan keyin olish, bo'g'inalar almashishi, unlilarni almashishi, tovush rang-barangligini, uning hajmi va kuchini o'zgartirmasligini kuzating.

The musical score consists of five staves of music in common time (indicated by '4') and treble clef. The lyrics are written below each staff.

- Staff 1: Ma-ma, Na-na, Va -va, Za-za      Ma-ma, Na-na, Va -va, Za-za
- Staff 2: Ma-mo,na-no,va-vo,za-zo      Ma-mo,na-no,va-vo,za-zo      Ma-mo,na-no,va-vo,za-zo
- Staff 3: Ma-mi,na-ni, va- vi, za- zi      Ma-mi,na-ni, va- vi, za- zi      Ma-mi, na-ni, va- vi, za- zi
- Staff 4: Ma-mu,Na-nu, Va-vu, Za-zu      Ma-mu,Na-nu, Va-vu, Za-zu      Ma-mu,Na-nu, Va-vu, Za-zu
- Staff 5: Ma --- me, Na --- ne, Va ---- ve, Za ---- ze

Bu mashq nafas olish davomiyligini rivojlantirib, harakatdagи tovushni eshitish imkoniyatini beradi, bu mashqni turli unlilarni bitta shaklda tekis

eshitilishi uchun bajarish shartdir. Mashq tepa va pastki tovush suyanchig‘ini sezishga, uni ustini (gumbazini) uning poydevori-ko‘krak diafragmani his qilishga yordamlashadi.

**10-mashq.** Hayolan shamni o‘chirish kerak. Qo‘l kaftlarini qovurg‘alaringizga qo‘ying. Nafas olib «shamni puflashni boshlang». E’tibor bering qanday qilib tabiat sizni harakatingizni kuzatib to‘g‘rilamokda. Havo o‘pkadan asta sekin va bir tekisda chiqadi, qovurg‘alar ko‘z ochib yumguncha pastga tushmaydi, pasayishi esa asta-sekin o‘lcham bo‘yicha. Xuddi shunday nafas chiqarishdagi tabiiylik ijroda bo‘lib, olingan havo butun jumla bo‘yicha joylashishi kerak. Bu mashq ijrodagi nafas olish jarayonida juda foydali. Buni ko‘p marta shoshilmasdan diqqat bilan qisilmasdan bajaring. Bir xil paytlarda uni ijro vaqtida o‘z his tuyg‘usini to‘g‘rilingini tekshirish uchun qilish mumkin.

**Yana asosiy vazifa:** Siz shamni puflashni boshlaganingizda shunga e’tibor beringki, ya’ni nafas olish va nafas chiqarish vaqtida (puflashni boshlaganda) sekundli to‘xtash sodir bo‘ladi - nafas olishdan nafas chiqarishga o‘tiladi. Ozgina to‘xtalish butunlay to‘xtash va qisilish emas. Mana shu kichkinagina to‘xtalish juda muhimdir. Asosiysi bu bir soniyalik va tabiiy qilinishi sizni nafas olishingizdan nafas chiqarishingizda va ijroda ham xuddi shunday aniq bo‘lishi kerak.

Endi lablaringizga diqqat qilib, ko‘zguga karang. Siz shamga puflayapsiz, sizning lablaringiz xuddi shunday faollahishi kerakki, ya’ni havoni o‘tkazishda va oqimni yo‘naltirishda tepa lab ayniksa harakatni sodir qilishi shart: shamni puflab o‘chirishda yuzdagagi harakatlar bunda o‘zgarmasligi, hunuklashmasligi, tabiiylikni yo‘qotmasligi kerak. Lablar faol, lekin qisilmagan bo‘lishi kerak. Lablar asosiy tabiiylikda va hech qanday yopiqsiz bo‘lishi kerak. Ko‘zgu bunda katta yordamchidir. Ijroda bunday mayda jarayonlarni saqlash juda muhimdir. Malakaga erishish va nafas olishda erkinlikka erishish uchun ko‘proq shu mashqlarni takrorlab turing. Aytishadiki: «**Ijro san’ati bu nafas chiqarish san’atidir**» - biz buni asta sekin egallashimiz kerak. Barcha ushbu oddiy mashqlar **ko‘krak (qovurg‘a)** nafas yo‘lini rivojlantiradi. Bu mashqlardan olingan ko‘nikma (malaka)lar sodda vokal mashqlari bilan mustahkamlanadi, aniqrog‘i vokal mashqlariga o‘tadi. Siz qovurg‘aning nafas olishida teng his-tuyg‘ularga erishsangiz, shundagina diafragmali nafas olish va uni amaliyoti haqida so‘z yuritishingiz mumkin.

Diafragmali nafas olish - bu inson a’zosidagi eng kuchli muskuldir va bizning murakkab a’zoimizdagi bu mashinaning ishidagi belgilarini yuqori baholashimiz mumkin emas. Masalan: diafragmani - (meditsinada) ishlovchilar: venozli yurak, eng katta qon tomirli yurak deb ataydilar. Qon aylanishida u juda ko‘p o‘ringa ega bo‘lib, ko‘krak va qorin bo‘shlig‘ini ajratadi, yurakni va o‘pkalarni kutilmagan ziyon va shikastlardan himoya qiladi (masalan - inson boshi ustida tursa). Biz aytganimizdek, o‘pkaga havo kirgan vaqtida ko‘krak qafasi ikki tomonga qovurg‘alar hisobiga yirib ochiladi. Diafragma gumbazi kattalashgan o‘pkalar bosimi orqali qisqaradi va tutashadi. O‘z navbatida qisqargan diafragma qorin bo‘shlig‘i ichidagilarni ustidan ezadi va shuning uchun qorin nafas olganda

oldinga chiqadi. Shundan kelib chiqadiki, nafas olganda qovurg‘alar yon tomonga, qorin oldinga chiqadi.

Ijrochi nafas olinishini ro‘yobga chiqarish uchun qaddini to‘g‘ri tutish shartdir. Bunda orqa ko‘rinishi - qaddi basti, ya’ni umurtqa pog‘onasi bel qismi yaxshi egilgan va diafragma o‘zining hilpirab turadigan muskulli bog‘lamlari yuqori bel umurtka pog‘onasiga birikadi. Bel qismi diafragma uni qisqarishida xuddi mahkam tutqich bo‘lib hisoblanadi, shuning uchun bel umurtqa pog‘onalari yaxshi mustahkam bo‘lishi kerak.

Ijro nafasning eng murakkab vazifasi bo‘lib, nazorat qiladigan va to‘g‘rilaydigan nafas chiqarishdir, bu diafragmali nafasni egallashni ta‘minlaydi, nafas chiqargandagi havo oqimini to‘g‘rilab, ko‘krak qafasini ijro hajmini saqlashni to‘g‘ri joylaydi. Ijro - bu nafas chiqarish mahoratidir, lekin hamma proffessionallar ham bu mahoratga ega emas. Boshida hamma nafasni bиринчи tovush jumlasidanoq tanlamaslikka o‘rgansa yaxshi bo‘lardi, ya’ni uni oxirigacha asta-sekin tekis oqim berib joylashtirsa, u tekis tovushni ta‘minlaydi. Biz yana bir bor sham puflash mashqiga qaytamiz, lekin bu gal qo‘l bilan nafasni nazorat qilamiz:

**1-mashq.** Ikkala qo‘lingizni qovurg‘alar ustiga qo‘ying, o‘pkangizga havo yig‘ing va shamga puflang, diafragma qanday harakat qilayotganini ko‘ring. Siz uni xuddi tsilindr ichidagi porshendek his qilishingiz kerak. Havoni ushlab uni darrov nafas chiqarishdagi otilib chiqishiga yo‘l qo‘ymang. Qo‘lingiz bilan tezlashtirishga yordam bering (havoni chiqarishni faollashtiring) bunda qorin pastki muskullari itariladi. E’tiboringizni shunga qarating: Ya’ni qorin asta sekin ko‘tarilmokda, ko‘krak qafasi esa tushmayapti, u o‘ralgan holda xuddi nafas olgandagi holda qolgan. Diafragma nafas olganda to‘g‘rilangan. Nafas chiqarganda tez o‘z shaklini o‘zgartirmaydi, balki juda sekin o‘zining bиринчи ko‘rinishiga, gumbazsimon holatiga qaytadi. Xuddi shu jarayon ijroda nafas chiqarish jarayonini ro‘yobga chiqarishga yordam beradi. Ijro vaqtida ko‘krak qafasi juda tez pastga tushishi mumkin emas. Ijroda nafas chiqarishda ketma-ket havo chiqadi, ko‘krak qafasi hajmi tushmaydi. Endi shamni puflab o‘chirishda olgan sezgilaringizni tovush bilan kaytaring, ya’ni nafas chiqarayotganingizda “U” tovushini kuylang va uni ma’lum muddat cho‘zib turing. Qo‘llaringiz bilan nafas chiqarish mexanizmini kuzating. Ijro vaqtida qorin kimirlamasligiga e’tibor bering, ya’ni qorin qimirlamasin va shishib oldinga chiqmasin (tarvuzga o‘xshab qolmasligi kerak).

Biz aytib o‘tganimizdek o‘pkaga havo kirganda ko‘krak qafasi qovurg‘alar tufayli ikki tomonga yirilib, pastdan esa diafragma tufayli ochiladi. Diafragma gumbazi qisqaradi va kengaygan o‘pka bosimi orqali tushadi. O‘z navbatida qisqargan diafragma qorin bo‘shlig‘i ichidagilarni yuqoridan ezadi va shuning uchun qorin nafas olish vaqtida oldinga shishib chiqib qoladi. Shundan kelib chiqadiki, nafas olganda qovurg‘alar yonga qorin esa oldinga chiqadi. Qorin muskullari va diafragma ijroda nafas chiqarishni to‘g‘ri tartibga solishga yordam beradi, ko‘krak rezonatorlari esa (ko‘krak qafasi) o‘z shaklini tovush eshitilishida o‘zgartirmay uni hajmli, kuchli qiladi. Xuddi shu vokalda suyanchiq bo‘ladi, diafragmaga va ko‘krak rezonatorlariga ko‘krakni ishlatgan holda yaxshi diqqat qilganda, o‘quvchilar ancha tez diafragmali nafas mexanizmini tushunadilar. Vokal

vazifalari, mashqlari, asarlari bu bosqichda o‘qitilishi oddiy bo‘lishi kerak. O‘quvchi diqqati oldida paydo bo‘ladigan vazifa va qiyinchiliklarni engib borishi kerak. Diafragmali nafas olish texnikasini egallash ijroda nafas ravon yig‘ilgan oqim bo‘yicha mustahkam sekin chiqarilishini uzilmasligi, tezlik yaxshi shiddat bilan bo‘lishiga yordam beradi va bundan tovush tekis va jarangdor bo‘ladi. Astasekinlik bilan havo berilishi uni jarangdor ovozli to‘lqinlarga aylanishini ta’minlaydi. Nafasni shunday ishlatishni bilish, u hech qanday qoldiqsiz tovushga aylanishini, ijroda nafas chiqarishni mohirona egallanganligini aniqlaydi. O‘qitilmagan ijrochilar nafas olganda ko‘pincha ancha ko‘p havo yutib, uni birinchi musiqali jumla tovushidayoq sarf qiladilar. S.Fuchitoning guvohligicha buyuk qo‘sishqchi E.Karuzo doimo nafasini maxsus mashqlar bilan chiniqtirgan, havoni sarflashda nazoratni yuqori malakaga etgunicha kuchaytirgan. Lamperti nafasni mashq qildirganda bir tekislikni va kam sarflanishini tavsiya qilgan. Nafas chiqarishni nazorat qilishda ijrochiga quyidagicha tavsiya qilgan. Og‘iz oldiga yoqilgan shamni qo‘ying, agar tovush chiqarganda olov qimirlamasa (hech qanday harakatga kelmasa), demak, nafas chiqarish juda to‘g‘ri ishlatilmokda. Xuddi shunday tajribani mashhur rus tenori D.Smirnov ham ishlab ko‘rgan. SHam o‘rniga u straus patini olgan va uni ijro vaqtida og‘zidan 20 sm masofada ushlagan. Tovushsiz ijro nafasini rivojlantirish mumkin emas va uning teskarisi. Bizning yuqorida qilgan barcha mashqlarimiz tayyorlov mashqlaridir. Ular muskullarni mustahkamlab, rivojlantiradi, professional nafas olish mexanizmi haqida tasavvur bo‘ladi. Pedagog M.E.Tessier ijrochilikda nafas chiqarish jarayonini favvora tomchilari bilan taqqoslagan, ya’ni u o‘zining doimiy oqimi natijasida engil koptokni ushlab turishi mumkin, ya’ni koptok doimiy suv otilib chiqishi vaqtida tushib ketmaydi. Xuddi shunday tovush ham hech tushmasligi kerak, chunki to‘xtovsiz nafasning otilib chiqishi uni ushlab turadi. Agar jumla katta bo‘lsa, unda siz qorningizni pastdan siqasiz, bu harakat bilan nafas qoldiqlari beriladi va siz jumlanı oxirigacha olib borishingiz mumkin.

E.T.Petrenko mana shunday yozadi: Boshlovchiga ijroda nafas olishni ko‘rsatish ancha osonroq. Ayrim qo‘sishqilar so‘zlarining oxirgi jumlalarigacha nafasda aytishni nimaligini tushunmaydilar, boshlang‘ich bosqichdagilari esa nafasni jumlalarini oxirigacha qanday ushlashni bilmaydilar va barcha tovushlarni suyanchiqda aytmaydilar. Vokal mashqlari nafas chiqarish malakasini oshirish uchun juda oddiy, sekin tempda bo‘lishi kerak. Ularni tekis tovush kuchi bilan aytish kerak va bu ishda o‘z-o‘zini nazorat qilish va eshitish muhimdir.

O‘zingizcha qo‘llaringiz bilan ushbu barcha jarayonlarni to‘g‘riligini nazorat qilishga yordam bering. Bizning oddiy nafas olish mashqlarimizni vokal mashqlari bilan galma-gal bajaring. Aniq va yangi his-tuyg‘ularingizni yo‘qotmaslik uchun shuni esda tutingki, tovushni oxirlatib o‘quvchi ko‘krakni tez pastga tushirib havo qoldig‘ini chiqarib yuborishi mumkin emas yoki nafas olish qismida bo‘shashishga yo‘l qo‘ymaslik (diafragma), vokal shakli mexanizmi bo‘lgan gavdani to‘g‘ri, tik holda saqlash kerak. Bunday vokal shaklini saqlash nazorati va ishlab chiqilgan texnika sarf qilingan nafasni to‘xtashida to‘ldirilishi yoki jumlalar o‘rtasida tekis professional tovushni kafolatidir.

Ijro jarayonida artikul’yatsiya apparatidan to‘g’ri foydalanish juda muhim omil bo‘lib hisoblanadi. Biz pedagog A.G.Menabenining gaplarini keltiramiz: musiqali jumlalarni tugaganidan keyin tovushni jarangligi ko‘krak qafasini joylashishida ayrim bosqichlarida saqlanishi kerak. Vokalistlar aytganidek, nafas olish rezervi qolsin va bu uchun nazorat kerak. Bunday ko‘rinishida har qanday yangi nafas olish, undan oldingisiga yondashadi. Ijro qurilmasi, yangi nafas olishni boshqarishga yordam beradi. Boshlovchilarda nafas olish so‘lg‘in va ortiqcha kuchanish bo‘ladi. So‘lg‘in nafas - bu rivojlanmagan muskullar nafas olishining etarli emasligi, so‘lg‘in nafas chiqarishdir. Shuning uchun tovushda suyanchiq bo‘lmaydi. Ortiqcha kuchlanishda nafas juda ortiqcha nafas muskullarini faolligi bilan nafas olishning shovqinligi ortiqcha nafas olishning haddan tashqari nafas chiqarishda ortiqcha tezlik bilan bog‘lanadi.

**Shovqinlik nafas olish** haqida bir necha so‘z. Bu shovqin etarlicha yirilib ochilmagan burmalar bog‘lamlarga o‘tayotgan havoni ishqalanib tegib o‘tishida sodir bo‘ladi va xiqildoq (halqum) yo‘li va bronxlarning yaxshi ochilmaganligi (yirilmaganligi) natijasida sodir bo‘ladi. Shovqin tovushni xunuk qilib tovush (ovoz) burmalariga ziyon etkazadi. Burmalarni oldini olish uchun shovqinda ijro qilayotganda diqqatini doimo qaratmoq lozim va nafas olishda kamchiliklar kuzatilishi kerak. Shovqinsiz nafas olishga erishish uchun yaxshi esnash va chuqur, ohista nafas yordam beradi.

Endi barcha aytganlarni jamlab qanday talablarni bajarish, qanday malakalarni egallash kerakligini ko‘rib chiqamiz va xulosa qilamiz:

1. Ijro vaqtida ikki oyog‘ingizda qulay holda turing, albatta qaddingizni tik va to‘g’ri tuting, elkalarni esa yoyib kalla erkin va yaxshi holatda bo‘lishi kerak. Bu talablar shuning uchun kerakki tanadagi barcha muskullar ijrochi uchun teng og‘irlilik tushirishi va hamma narsa erkin bo‘lishi kerak.

2. Hech qachon to‘q qoringa qo‘sish qaytarish kerak. Chunki bu diafragmani erkinlikdan va harakatlanishdan mahrum qiladi. Ko‘p ovqatlanish bilan qo‘sish aytish vaqtida 1 soatni tashkil qilishi kerak. Pedagog Pryanichnikov «To‘q qoringa qo‘sish aytish bu tovush tebranishiga ta’sir kuchini beradi» deydi.

3. Nafas olish shovqinli bo‘lishi kerak emas, tovushchalarga (har xil shovqinlarga) nafas olishda yo‘l qo‘yib bo‘lmaydi.

4. Boshlovchilar nafas olishda bir vaqtda ham burun bilan, ham og‘iz bilan va og‘iz ochilgan holda burun orqali olishlari kerak, bu halqumni yaxshi ochilishiga yordam bo‘ladi. L.Robotnov V.L.Organovning tadqiqot ishlarida bunday turdagilari nafas olish xiqildoq va yirik kekirdak tarmoqlari kengayishiga yordam bo‘ladi deb ko‘rsatganlar. V.Barsova bir zumda yopilgan og‘iz orqali chuqur nafas olish mumkin emas va bundan tashqari bu nafas olish ko‘rinishi (og‘izdan burunga) shovqinsizroqdir. Bir daqiqalik sukutlarda, og‘iz bilan nafas olganda quriydigan shilimshiqlarga namlanishiga yordam bo‘lishi uchun iloji boricha burun bilan nafas olish kerak.

5. To‘la hajmli havoni oling (pastki qovurg‘alar, diafragma), lekin ortiqcha olmang, chunki haddan tashqari ortiqcha nafas olish qisilishga olib kelishi mumkin. Hamma narsa ortiqchalisiz tabiiy bo‘lishi kerak.

6. Hamma havoni oxirigacha chiqarmang, chunki bu ham tabiiylik va erkinlikni buzadi. Nafasni to‘g‘ri sarflashni bilish uchun avvallo **ikki qonunni** bilib olish kerak:

1. nafas olganda haddan tashqari ko‘p olmaslik;
2. nafas chiqarganda oxirigacha siqib chiqarmaslik.

7. Ovozni tugatayotganda o‘quvchi qolgan havoni ko‘krakni tezlikda tushirib yoki diafragmani bo‘sashtirishi mumkin emas, ya’ni tana «vokal shaklini» nafas chiqarish va yangi nafas olish o‘rtasidagi sukutda saqlashi kerak, bu tekislikni va ovoz suyanchig‘ini kafolatini beradi.

8. Nafas olish va ovoz boshlanishi o‘rtasidagi nafas chiqarishni bir zumda bo‘lishini kuzating. Esda tutingki, nafasni bir zumda tutilishi juda muhimdir.

- a) u nafas chiqarishni tashkil qiladi;
- b) bo‘g‘ilish bo‘lmasligiga;
- v) tomoqni quritadigan va aniqligiga, ovoz tonini topishga halaqit beradi;
- g) havo otlib chiqmasligi uchun halaqit beradi;
- d) «X» tovushi bilan;
- e) bo‘g‘in boshida nafas yo‘nalishini oldini oladi;
- j) bir lahzalik nafas tutilishi chiqarishdan oldin bu tayyorgarlik daqiqasi barcha a’zolarning yig‘ilganligi, tayyorligi, tovush tashkil qilish hajmini tashkil qiladi.

9. Hech qachon ijroda nafas chiqarishni tovush boshlashdan oldin mashq qildirmang, hech bo‘limganda biror so‘z ayting yoki bitta tovushni ko‘ylang.

10. Nafas olishni oxirgi daqiqada emas, balki ozgina ertaroq oling.

11. Nafasni iloji boricha tinglovchilarni ko‘ziga ko‘rinmaydigan va ular eshitmaydigan holda oling.

12. Nafas olish oralig‘ida yoki shunday joylarda olinadiki, u musiqali yoki adabiy matnga qarshi bo‘lmagan vaqtida.

13. Esdan chiqarmaslik kerakki: nafas olish - bu o‘tkirlik (aniqlik) vositasi hamdir:

- a) – quvnoq, musiqa-engil tez nafas olish;
- b) – dramatik (g‘amgin) musiqa-og‘ir, sekin nafas olish;
- v) – his-hayajonli musiqa-azob chekishni beradigan, nafas olish jadal, shovqinli, lekin barcha holatlarda ijrochi nafas olishda ijro poydevorini unutmasligi, ovozni nafas olishga, uning hajmiga, faol ishlashiga ziyon bo‘ladigan sahnnaviy ixtirochilikka qiziqmasligi kerak.

14. Nafas olish mashqlarida haddan tashqari toliqish mumkin emas, chunki tovush chigalligi, charchash, titrashni keltirib chiqaradi.

15. Har qanday bir daqiqalik sukutdan unumli foydalanishni bilishi, dam olishi uchun toliqishni engishi uchun qaytadan mukammal faol nafas olishni bilishi kerak.

## OVOZ APPARATI A'ZOLARI (ORGANI)

1. Ijroga jismoniy va psixologik tayyorgarlik.
2. Nafas olish.
3. Vokal “niqobi» va bosh rezanatori.
4. «Tovush xujumi».
5. Ko'krak rezanatori - pastki tovush (tayanchi) tirsagi.
6. Vokalda esnash va xiqildoq holati.

Oldingi mavzularda nafas olish, sahma masalalari, anatomiya, artikulyatsiya, aktiv erkinlik va barcha a'zolar ishidagi tabiiylik haqida bilib oldik. Nafas olish jarayonlari, ovoz artikulyatsion apparatlarini bilib olgan bo'lsak, endi tovush tashkil qilishni, «Vokal niqobi» orqali ko'rishni boshlaymiz.

**“Vokal”** termini lug'aviy aytilganda «**maska**» - italyanchadan «**Maschera**» (maschera) deganidir. Ijrochini ovoz sadosi burun va burunning yondosh bo'shliqlari bilan bog'liq. Maska tushunchasi yuzning yuqori qismida joylashgan bo'ladi.

Ushbu tushuncha yordamida tushunish uchun «Niqobni», vokalda esnashni his qilgan holda ijroda yuz berayotgan hodisalarini ko'z oldimizga keltirib olish uchun bir necha oddiy mashqlarni bajaramiz.

**1-mashq.** Og'iz ochiq, shu holatda ushlab turish tabiiylik hissini eshitish og'iz, til, tomoq erkinligini ichki ko'z orqali barcha a'zolarni ko'rib chikish demakdir. Lablarni qising, lekin mahkam emas va tomoqni erkin holda qoldirib qulay tonda tovush chiqaring M-M-M-M bu bilan yuqori lab, tish, tanglayda qitiqlikni sezish kerak. Agar qitiqlash hissi bo'lmasa tebranish bo'lmasa, unda sizning tomog'ingiz siqilgan, uni ozod qiling. O'zingizni marashingizni tishlarga yo'naltiring. Albatta nafasni yaxshi oling. Qitiqlashni his qilgan qismi «Niqobdir». Qisman tovushni oldinga surib harakatlantiring. Kema va zavodning gudogini (ovozi chiqarishini) eslang, unda qanday ozodlik, davomiylik va xuddi shu vaqtida kuch va to'ldirish bor.

**2-mashq.** Siz oldingizda hushbuy gulni ko'rayapsiz (masalan: atirgul) va uni hidlayapsiz. Tasavvuringiz hushbuy gul hidini his qilishga yordam beradi. O'sha joylar (tanglayda, ko'zlarda, boshda, kalla suyagida) qaerga ifor kiradigan bo'lsa, shu er to'ldirilayotganligini esda saqlash kerak. «Ichki yangi kenglikni» ko'p martalab qaytarib, siz ushbu his tuyg'unibu holatni tushunasiz va eslab qolasiz, bu to'g'ri. Vokaldagi «**esnash**»ni tasavvur qilish «yuqori ijro gumbazini» mavqeini beradi. Bunday holat nafas olishda ovoz chiqarishdan oldin bir zumda paydo bo'lishi kerak. Nafas olishda siz o'z tovushingizni va nafasingizni pastki tirkak gumbazidan, yuqori tirkak gumbaziga yo'naltirishingiz kerak.

**3-mashq.** Sizning oldingizda katta pishgan chiroyli olma, buni hozir tishlab eyishingiz kerak. Yuqori jag'lar «yirib ochilmokda va ko'tarilmokda», va tanglay bunda shirin olmadan kattaroq qismini tishlab olish hohishini tasavvur qilish kerak. Hech qachon siz mevalarni pastki jag'lar bilan tishlamaysiz. Ushbu his-tuyg'ularni qidirib ko'ring, ozodlikni, tabiiylikni toping. Yuqori ko'tarilgan tanglay ijro gumbazidir.

**4-mashq.** Og‘zingizda qaynoq kartoshka, u tanglayingizni kuydirmokda siz uni tuflab chiqarmasdan sovutmoqchisiz va sovuq havoni yutmoqdasiz. U kartoshkadan kuygan tanglayni muzlatadi. Tasavvuringizdagি his tuyg‘ularni qidiring, yuqori tanglay muzlashini his qiling va ularni eslab qoling.

**5-mashq.** Issiq havoda kuchukni tasavvur qiling. U yugurmokda, uning tili havoni to‘g‘rilash uchun osilgan (chiqarilgan). U juda tez-tez nafas olmoqda, bu bilan og‘zini va barcha a’zolarini sovutmoqda. Albatta siz tilingizni chiqarishingiz mumkin emas, lekin shu kuchukni tasavvur qilib, tanglayni muzlatish uchun tez-tez nafas olishga urinib ko‘ring. Siz darhol tanglayingizni naqadar yuqorilagini, sizning vokal gumbazingiz qanchalar ajoyib ekanligini sezasiz, bunda xiqildoq pastda ozod va keng bo‘ladi.

**6-mashq.** Sovuqdan titragan holda tez-tez tishlar bilan taqillating. Diqqatni oldingi tishlar tomonga qarating, bunda jag‘lar ozod. Siz siqilgan jag‘lar bilan titragan holda tishlar bilan taqillata olmaysiz. Endi esa oldingi yuqori tishlarni, ularning ildizlarini his qilishga harakat qiling, ya’ni qattiq tanglay yoki gumbaz boshlanish joyini ko‘ring, u qanday faol, yuqori ekanligini bilib olasiz. Buni yaxshilab ko‘rish, his qilish uchun yana oldingi tishlaringiz bilan takroran o‘z his tuyg‘ularingizni eshititing.

**7-mashq.** Lablar sal-pal qisilgan. Og‘iz tinch, ichki sezish orqali yuqori tanglayni sezing. Tinch va yotgan til uchi pastki tishlar ildiziga tayanadi. Til ildizi tinch, xiqildoq ozod osiltirilgan, keng xuddi katta xum (ko‘za og‘zidek). O‘z diqqatingizni yuqori tishlar ildiziga qarating va hammasini tinch holatda qoldirib tovush chiqarmasdan «N» tovushini qattiq tanglayga tekkazib aytинг. Bunda xiqildoq umuman tinch, keng va past bo‘lib qolishi mumkin. Siz bo‘shliqlarni, kengliklarni yirib ochilishi hissini tutib olishingiz lozim kerak. «Yuqoriga ko‘tarilayotgan» qattiq tanglayni va pastga tushayotgan keng tomoqni sezasiz.

**8-mashq.** Og‘iz, xiqildoq tinch holatda. Siz esnashni hohlayapsiz, lekin shundoq qilingki xuddi odobli jamiyatdagidek, hech kim sezmagandek, og‘iz yopilgan holda esnang. Sizning tasavvuringiz esnash hohishini his qilishga yordam berishi kerak. Diqqatingiz qattiq tanglayga qaratilgan bo‘lishi zarur. Yuqorida to‘plangan va keng erkin pastga tushirilgan tomoqda esnash shunday holda yuzaga kelishi kerak: yuqori jag‘ va tanglay yuqoriga ko‘tariladi, halqum esa ozod bo‘ladi va pastga tushadi, bunday harakatlantirish va ozodlik (erkinlik) ko‘z yosh chiqqungacha davom etadi. Odatda shunday bo‘ladiki esnaganda ko‘zdan yosh chiqishi mumkin. Esnash vaqtida yumshoq tanglay faolligiga qulq soling. Ushbu mashqlardan qaysinisidir albatta sizga esnashdagi vokal his tuyg‘ularini topishga yordam beradi. Gumbazlar ularning bir zumda ko‘rilishi nafas olishni bir daqiqalilagini keyingisida esa, nafas bilan xujum yuqori mavqega va chiroyli tovushni yuzaga kelishiga yordam beradi. Bizning tana a’zolarimiz mayda muskulli harakatlarni va murakkab koordinatsiyani, kuchanishlarni tez qabul qila olmaydi, shuning uchun bizga diqqat, sabr, tasavvur va oddiy mashqlar kabi yordam kerak.

## **NIQOBDAGI IJRO TUSHUNCHASI**

Niqobdagagi ijro tushunchasi - ijroda o‘z-o‘zidan ma’lum bo‘ladiki, yuqori rezonatorlarni butunlay ishlatish orqali ijroni yuqori tovush mavqeini namoyon qiladi. Pedagog Vittanining aytganidek: «Ovozni to‘g‘ri qo‘yish shundan iboratki, tovush niqobga to‘g‘ri yo‘naltirish va uni ushlab turishni (yuqori tishlar ildizida saqlagan holda) niqobdagagi ovoz shunday yaqqol ko‘rinishi kerakki, uni yuqori tishlaringiz ildiziga qanday urilayotganini xuddi ko‘rish bo‘lgandek sezalish kerak. Tirgak nuqtasi qancha ichkariga surilgan sari shunchalik tovush yaqqol eshitiladi, bu bilan ovoz chuqur bo‘lib tovushni tomokda qolishga sharoit yaratiladi». Savol tug‘iladi: ushbu hujum nuqtasini qanday qilib yuqori kurak tishlar ildiziga surish mumkin? Oddiy masala buni echishga yordam beradi. Og‘zingizni oching unga ko‘rsatkich barmog‘ingizni kiring ancha chuqur qo‘l kafti pastga joylashgan. Barmoqni tirnoq bilan yuqori tanglayga bosish, nafasni olib qaratilgan nafasni chiqarishni boshlang asta sekin tugunga yig‘ilgan xuddi fonar nuridek. Ko‘rsatkich barmoq tanglayga bosilgan va u xuddi aslaxa shkalasidek chiqayotgan havo oqimi issiqligini his qiladi, barmoqlarning eng issiq joyi bu nafas chiqarishning hujum nuqtasi bo‘lib xuddi shu erga ijroda tovush to‘lqini oqimi ham tegib o‘tadi. Asta sekin diqqatni bir joyga to‘plab shunga erishish mumkin, nuqta yuqori tishlar ildiziga maksimal siljiganni anglash qiyin emas. Bundan xulosa qilish mumkinki, bu hislarni tovush bilan tekshirish kerak. O‘z ovozingizga diqqat bilan quloq soling, unda musaffolikni, ravshanlikni qidiring, bundan tashqari, o‘z his-tuyg‘uingizga quloq tuting va ularni eslab qoling.

XX asr frantsuz olimi R.Yusson ushbu muammoni aniqladiki, “Yuzning uch a’zosi asab a’zolari, burun bo‘shliq qismi va burunning yondosh bo‘shliqlari va ovoz muskullari bilan reflektor bog‘lanishi mavjud”. Ushbu ovozni to‘g‘ri yuborish (havo oqimi) yuz nervini qo‘zg‘atadi, tanglay gumbaziga tarqatadigan ovoz muskullarini tonusini qo‘taradi va ravshanlikni, jarangdorlikni va tembr ovoz go‘zalligini kuchaytiradi. Qadimgi Italian pedagoglari «Niqobdagagi ijro tushunchasi»ni his qilish uchun quyidagi mashqlarni tavsiya qilganlar: “Qulay tonda «M-N-V» tovushlarini aytинг, qaqshab titrashni his qilib, lablarda va yuqori tishlarda, keng halqumda ozodlikni his qilish lozim”. Agar til ildizi zo‘riqqan bo‘lsa uni ko‘tarish kerak, shunda bu his tuyg‘ular tug‘ilmaydi. Bu mashqlar birinchi marta ochiq tovush bilan bajariladi “N-N-N-N”, keyin esa yopiq tovush bilan marashga o‘xshagan tovushda “M-M-M-M” bajariladi. Bu mashqlar tomoq ijrosidan xalos bo‘lishga yordam beradi, ular shundoq ham amaliyotga kiritilgan. Bunda “N-N-N-N” va “M-M-M-M” «marash» nomi bilan tovushni harakatga keltirishda, «marash» printsipi mashqlari yordam beradi. Harflarni talaffuz qiling: “MA-MI-MO-MU” niqobda «M» tovushini jalg qilib (yuqori lab qitiqlashishi va yuqori tishlar ildizi zonasini) keyingi unli tovushning his-tuyg‘usini o‘zgartirmasdan, hamda tovush oqimini va uning kuch g‘ayratini yo‘naltirgan holda tomoqda hech qanday zo‘riqish bo‘lmashligi lozimdir. Ish juda qulay bo‘lib, unli tovushdan boshlanadi, albatta hamma Italian vokalistlari quyi muhit va issiq iqlimda yashaganligi sababli bu mashqlarning ta’sir kuchi yakqol ko‘rinadi.

Chunki bu muhitda quyosh, dengiz mavjud bo‘lib, o‘z-o‘zidan ko‘rinib turibdiki, inson qisilishdan ozod bo‘ladi. Bizning sovuq, nam, doimo o‘zgaruvchan muhitimizda insonning barcha his tuyg‘ulari boshqacharoq. Bizda mehmon bo‘lgan «LA SKALA» teatr aktyorlari qanday qilib bu erda vokalistlar yashaydi va ijro qiladi deb hayron bo‘lishgan, chunki bizda muhit iliq bo‘lib og‘ir qisilishga olib keladi. Bizning boshlang‘ich ijrochilarimiz ko‘pincha halqum siqilishiga duch keladilar, bunga qarshilik ko‘rsatish uchun ko‘tarilgan elkalar juda epchil bo‘lishi kerak, mashqlar va marash bu kamchiliklarni mustahkamlamasligi lozim. Ushbu xavflilik hodisasi to‘g‘risida M.E.Donets Geysor shunday deydi: “Marashni qo‘llashda juda ehtiyot bo‘lish kerak, u bilan mashg‘ul bo‘lmaslik darkor, chunki u yumshoq tanglayni noto‘g‘ri ko‘tarilishiga olib keladi, ya’ni u manqalikni keltirib chiqaradi. Kalla bosh rezonatorining sezishini, qansharni sezish deb ataydi. Bu tovush yig‘ilganligini, uning yuqori mavqeda ekanligini ta’minlaydi”. Biz niqob haqida gapiro yetgan edik (bosh rezonatorlar), kim tovush hosil qilish uchun havo oqimini qaerga yuboradi? U qanday yuboriladi? Tovush xujumi - bu tovush boshlanishi vaqtida nafas olishni yuborishdir. Nafas tor oqimlar bo‘yicha, xuddi ukoldek, yuqori mavqelariga qarata yuboriladi (yuqori tishlar ildiziga). Fiziologlar aytishadiki, “tovush hujumi - bu usul va tezlik, bunda nafas olish teshigi nafas olish holatidan ovoz holatiga o‘tadi. Tovush bog‘lamlari qisqa tutashuvining vaqt va darajasini chiqaradi. Hujum ovoz tug‘ilishi vaqtiga katta ta’sir ko‘rsatadi”. To‘g‘ri hujumga ega bo‘lish uchun pedagog M. Petrenko NASATO (italyancha stakancha - parcha, bo‘lak) mashqlarni qo‘llashni tavsiya qilgan. Boshlovchilarga esa quyidagi mashqlar yordam beradi:

1. Yuqori tishlar ildizi yordamida juda keskin ravishda aytish kerak: “A-A-A-A” yoki “U-U-U-U”. Qulay notada gapirosh kerak sizda shunday his tuyg‘u paydo bo‘lishi kerakki, xuddi bu tovushni siz igna bilan o‘zingizga sanchayapsiz.

2. Yuqori gumbazda aytish kerak: tishlarga sanchib “DE-DE-DE” yoki “DU-DU-DU”. Ushbu gumbazni his qilish uchun gul ifori, issiq kartoshka haqida eslash kerak (bu mashqlar ilgari berilgan edi.). Og‘iz juda keng chiroyli bo‘lishi kerak.

3. Kakku qushi ovoziga o‘xshatish: “Ku-ku”lash uchun juda yuqori notada ijro qilish kerak.

4. Ushbu his-tuyg‘ularni ijroda qo‘llash uchun oldingi mashqlarda sizga qulay bo‘lgan bitta notada o‘sha unlining yordami kerak.

5. Tertsiyani ijro qilish uchun bitta nota LEGATO (cho‘zibroq) ikkinchisi esa STAKKATO (unchalik cho‘zmasdan, parchalamasdan), har bir tertsiyadan oldin sekin tempda nafas oling. Pedagogik vokal amaliyatida yumshoq va qattiq hujum ishlatadi, bu o‘quvchilarni qobiliyatini yakka holda aniqlashga yordam beradi. Unda tovush uzatilishi so‘niq bo‘lsa (so‘niq va pirpirash) bir qancha muddat tovush bog‘lamlarini faollashtirish uchun qattiq hujumdan foydalanish ayni muddaodir. Aksincha agar tovush uzatilishi qattiq va tomoq tovushi qattiq bo‘lsa, unda yumshoq hujumni qo‘llash foydalidir. Lekin bunda juda zukko bo‘lish kerak, ya’ni bu tovush uzatilish usuli kirish yo‘llarini tovush tashkil qilishda keltirib chiqarmasin. Nafasni yuqori mavqega aniq jo‘natish, bu uni hujum

sanchishi deyiladi va bosh rezonatorlarini jaranglashiga olib keladi. Ovoz bog‘lamlari kamertonga tegishlidir. Rezonatorsiz jaranglaydigan kamerton juda sekin jaranglaydi. Uni urgandan keyin quloqga tutish kerak, lekin unga rezonator qo‘ysangiz (hech bo‘lma ganda shisha idishni) siz shunda kamertondan chiqayotgan ovozni kuchayayotganini eshitasiz. Xuddi shunday narsa ovoz bilan ham sodir bo‘ladi, bunda kamerton bosh va ko‘rak rezonatorlari bo‘lib hisoblanadi, faqat ularni yoqish va to‘g‘rilashni o‘rganish kerak.

Ko‘krak rezonatorlari - tovushning pastki tayanchidir. Ijro tovushi o‘pkadan chiqayotgan havo ovoz teshigidan o‘tayotgan vaqtida, titrashda hosil bo‘ladi. Bu titrashlar tovush to‘lqinlarini vujudga keltiradi va ular xiqildoqdan tashqariga uzun yo‘lak bo‘lgan (esnoq, og‘iz, burun bo‘shlig‘i) orqali chiqadi va u erda sifatlari jaranglash tovushiga ega bo‘ladi. Biroq ijro tovushi xiqildoqda sezilmasligi kerak. Hatto u erda hosil bo‘lgan bo‘lmasa ham, u tomoqda vujudga keladi. Ijro etayotgan tovush go‘yoki ko‘krakda xosil bo‘layotganidek, keyin esa qattiq tanglayga tayanayotgandek tuyulishi kerak. N.Everardi maslahatini esga olamiz: “Boshni ko‘krakka, ko‘krakni boshga qo‘ying - ya’ni ijroda aralash ko‘krak va bosh tayanchini qo‘llash kerak. Haddan tashqari bosh yoki ko‘krak rezonatorlari bilan shug‘ullanish, ovoz tashkil qilishda, ijroda boshqa vaqtlarini hisobga olmasdan, ovoz buzilishiga olib kelishi mumkin. Haddan ziyod bosh rezonatori bilan shug‘ullanish asta sekin tovushni siqilishiga olib keladi”. Amaliyotda aytilganidek: “Bo‘g‘ilgan ijroda tovush jaranglilagini yo‘qotish, ijro vaqtida faqat yuqorida ijro qilishni ta’minlaydi. Ko‘krak rezonatoridan haddan tashqari foydalanish ovozni qiyin ahvolga soladi, zo‘raytiradi. Ovozni yuqoriga harakatlanishini qiyinlashtiradi, ovoz eshituvchanligini yana va yana ko‘proq uchishni yo‘qotadi, tebranadi va yo‘qola boshlaydi”. O‘z ishida ajoyib ijrochi bo‘lgan V.Barsova quyidagilarni yozadi: “Ijro vaqtida ko‘krakda ovoz tayanchini his qilishga harakat qilaman. Bir vaqtida bu tayanch va qorin muskullari bilan yuqoriga yordam beradi. Ya’ni niqob joylashgan joyda”. Ko‘krak osti rezonatorlari deb - ko‘pincha ko‘krak qafasi muskullari kuchi faolligi tushuniladi, yoki nafas chiqarish jarayoni anglanadi. Bu havo ko‘krak rezonatori bo‘lib, muskullar emas o‘pka, kekirdakda yig‘ilgan havo hisoblanadi. Shuning uchun ijro vaqtida nafas olishda ko‘krak rezonatori kengligi o‘zgarmasligi uchun ko‘krak qafasi kengligini ochib yubormaslik juda muximdir. Haddan tashqari ko‘krak qafasi muskullarini va qorinni zo‘riqishi, nafaqat ko‘krak rezonatoriga mos kelmaydi, balki unga qarshilik qiladi, ya’ni nafas bo‘shlig‘ida havoni me’yorida joylashishini qiyinlashtiradi. Rezonatorlar tovushni kuchaytiradi, unga sifatlari jaranglash beradi, shuning uchun ko‘pincha bunday o‘qitish, niqobda ijro qilish zarurligi haqida gapiriladi. Bosh rezonatoridan foydalanish nafas tayanchida ijro qilish, ko‘krak rezonatorini qo‘shish, ijroda ijrochi rezonatorlarini bir muncha faollashtiradi (ko‘krak qismida), bu kuchli tebranishda namoyon bo‘ladi, tayanchsiz rezonatorlar faolligi tushib ketadi. Xulosa: ijro rezonatorlarining faollik darajasi - bu ijrochining vokal texnik mukammalligining eng asosiy ko‘rsatkichidir.

Italyan pedagogi E.Barre yozgan ediki: “Bizning ijro ovozida hech qanday sir va hech qanday boshqa imkoniyatlarimiz yo‘q (faqat aks-sadodan tashqari). Siz

aks-sadoni yo‘qotib ijrochi bo‘lishni bas qilasiz”. Tarixdan ovoz jaranggi kuchining mo‘jizaviyligi haqidagi hodisa hammaga ma’lum: 1894 yil Moskvada mashhur Tenor Tomanbo (1850-1905y.) tomoshasi qo‘yilganida, u juda kuchli energetik yo‘nalishga ega bo‘lib, uning ovoz kuchi hattoki ko‘zgularni sindirgan. Shovqin birligi o‘lchovi – detsibil bo‘yicha, (otboy-hodisani tamom bo‘lganligini bildiradigan signal bolg‘asi, shovqin bilan ishlaydi) – 100 db. Qo‘yilgan tovush kuchi – 110 db. SHuning uchun jo‘rnavozlarning operadagi ishini ziyon zahmatli darajasi bo‘yicha, shovqin, suronli tsexda ishslash bilan tenglashtirish mumkin. Ko‘krak rezonatori (kekirdak, kekirdak tarmoqlari, bronxlar), o‘pka havo bilan to‘ldirilgan tovushga asosiy kuchni beradi. Bosh rezonatorlari ovozga tovush tembr va rang-baranglikni beradi. Halqum ko‘pincha tovush yuqori ko‘rsatkichini boshqaradi. Ko‘pincha biz rezonatorlarni yoqish va qo‘llash gapini ishlatamiz. Albatta rezonatorlar o‘chirish asbobia ega emas, lekin agar inson o‘z ishini belgilasa, ijro jarayoni mexanizmi (ichki tuzilmasi) haqida aniq tasavvurga ega bo‘lsa, o‘z vazifalari va maqsadlari bu yoqilish, ichki kompyuterimizni hisobiga sodir bo‘ladi, buni biz miya va asab tuzilishi deb ataymiz. Endi biz aniq tasavvur qilamizki, qo‘yilgan ovoz yuqori tayanchga ega (gumbaz, niqob, mavqe) va pastki diafragmali va ko‘krak orasidagi havo oqimi xuddi tortilgan ingichka naychadek. Nafas olish ijrochini bu his tuyg‘uni saqlashga, ijro jarayonida tovush chidamliligi haqida o‘ylashga, qo‘yilgan ovoz esa eshituvchida ta’assurot qoldirishga olib boradi. Texnik mukammallik va ijrochi ovozining musiqaviyligi ijrochidagi ta’assurotni to‘ldiradi.

## VOKALDA ESNASH

Keng erkin xiqildoqning yuqorida tutgan o‘rni, bizga tovushni faol hujumda, yumshoq tanglay ko‘tarilgan holatda bo‘lishi keraklilagini ta’minlaydi. Tanglay pardalari Lamperti aytganidek: “U shamol tufayli do‘ppayib chiqqan elkan ko‘rinishidek bo‘lishi kerak”. Pedagog Donets Geyser maslahat beradi: “Ayrim hollarda barmoqlar bilan kichik tilchaga teginib ko‘rish va yumshoq tanglay va tilchani qanday ko‘tarilayotganini his qilib ko‘rish lozim”. Vokal adabiyotida bu ijrodagi esnash, vakali esnash, yarim esnash deb ataladi. Halqum muskullari faollashganda (esnov, yumshoq tanglay) jag‘lar qisiladi, til ozod bo‘ladi, xiqildoq tushadi.

E.Karuzo ijrochiga: “Ko‘zgu oldida turib tomoqni ochib mashq qilish foydali va bu bilan tanglayni ko‘rishga harakat qilish, xuddi biz tomog‘imizni vrachga ko‘rsatmoqchi bo‘lganimizdek” - deb hisoblaydi. A.G.Menabeni esnov haqida mana nimalarni yozadi: “Ijro tovushning to‘g‘ri tashkil qilinishida yumshoq tanglay butunligicha dimog‘ni halqumdan ajratadi. Ya’ni ko‘tarilgan holatda esnovga yaqin bo‘ladi. Esnoq nafas olganda tayyorlanadi va ijro tovush tashkil qilishiga katta ta’sir ko‘rsatadi. Unda halqum bo‘shlig‘i kengayib uning rezonatorlik qobiliyatları kattalashadi, tovush kuchi o‘sadi. Tanglay bu holatda yuqori ko‘tarilgan, yumshoq halqumning ijro tovushini to‘g‘ri shakllanishi uchun shart sharoitlar yaratadi, uning aylanasi va yuqori mavqeい esnoq vaqtida til ildizlari

pastga tushishini ta'minlab, xiqildoq osilgan holda, til osti suyagi ham shunday holatda bo'ladi. Shuning uchun esnoq metodik qo'llanma bo'lib namoyon bo'ladi. Erkin holda xiqildoqni tushishida yumshoq tanglayni esnoqda zo'riqishi, asab bog'lamlari orqali-diafragmani kerakli tonusini keltirib chiqaradi. Ovoz burmalarini zo'riqishiga ham ta'sir qiladi, u aralash registrni tashkil qilishi uchun zarurdir". Vokal amaliyotida yarim esnoq haqida gapirish qabul qilingan, bu dalil nima bilan ajratib ko'rsatilgan - bu ijro esnog'i oddiylikdan kamroq kuzatish kerak demakdir, boshidan nafas olishni boshlamok, og'iz halqumini yarim esnoqda to'g'rilashga mos kelishi shart. Agar qattiq tanglayda yuqori tayanch bo'lmasa, unda tovush ravon, tez, ochiq, sof bo'ladi. Bunday tovush xalq ijrochiligidagi qo'llaniladi. Agar tovush yumshoq tanglayda aks etsa u yirtiq, metalsiz, nursiz, xira, burun aksi bo'ladi. Tovushni burunga yo'naltirishga yo'l qo'ymaslik kerak. Chunki bu hodisada u oddiy, jirkanch bo'lib qoladi.

Mashq: agar boshlovchida burun tovushi bo'lsa, unda ijro vaqtida barmoqlari bilan burnini qisishga majburlang, ya'ni o'zida bu kamchilik mavjudligini bilsin. Nafas chiqarishga hech qanday ziyon qilmaydi, chunki ijroda nafas chiqarish burundan bo'ladi.

## IJRODA XIQILDOQ (HALQUM)

Ijroda xiqildoq joylashuvi past ham yuqori ham bo'lmashligi kerak, u har bir ijrochida individual (yakka tartibda) bo'lib, uning vokal apparatini qanday tuzilganligiga bog'liqdir (xiqildoq shakli bog'lamlar uzunligi, uzun ingichka yo'l balandligi va hakozo). Timenkoning o'gitlariga ko'ra: "Ijrochi o'qish, o'rganishining avvalida engil aytildigan tovushlarni aytishi kerak, taxmin qilish mumkinki bu tovushlar xiqildoq joylashuvida o'rta chiziqni aniqlashi lozim. Ijro paytida xiqildoqni kuzating xiqildoq umuman o'z o'rnini o'zgartirmaydi". Doktor M.Lebidov shunday deydi: "Ovozni to'g'ri qo'yishni biladigan ijrochilarda aniq dixsiya, to'liqliq, unlilar butunligi, xiqildoq chidamliligi kuzatiladi. Shu bilan birga yaxshi ovozga ega bo'Imagan ijrochilarda sof tovush bilan ijro to'liq emas, asosan xiqildoqning ko'p harakatlanishi kuzatiladi". Professor F.F.Zasedatelev o'z ilmiy ishida yozadi: "Xiqildoqning so'zlashuvdag'i yoki asli holiga joylashuvi ijroga yaroqli emas. Uning bu joylashuvida tovush tekis, yassi, ingichka bo'ladi. Ijrodan oldin xiqildoq past tinch holatga o'tadi. Bu xiqildoqning joylashuvi texnika to'g'riliqi va ton to'g'riliqi bo'lib hisoblanadi. Xiqaldoqning past joylashuvida rezonator bo'shlig'i va halqum bo'shlig'i kattalashadi, u bilan birga yana ovoz kuchi va kengligi ham ortadi. Agar xiqaldoq yuqorida turgan bo'lsa, bunda til va og'iz chuqurligi ko'tariladi. Agar pastda bo'lsa unda til ildizi va og'iz bo'shlig'i chuqurligi pastga tushadi. Bu tilni tekis ingichka ushslash masalasini engillashtiradi. Ammo xiqaldoqni majburan harakatsiz holda ushlab turish ham zararli, ham bajarib bo'lmaydigan ish, u ovozni buzadi". Pastki halqum tarafdarları: - Everardi, Ferni, Djiraldoni – "Bular bizning ishimizda esnoq xiqaldoqni pastga tushishiga va ozod bo'lishiga yordam berishi" xaqida gapirib o'tishgan. Ijroda esnoqni asrash esa xiqaldoq joylashuvini saqlashlikka yordam beradi. Albatta o'quvchi o'z e'tibori

ovoz apparati ichki tuzilishi haqida keraklicha, aniq tasavvurga ega bo‘lishi kerak, ammo amaliy mashg‘ulotlarda asosiy diqqatni eshitish va muskulli his-tuyg‘ularga, tabiiylikka, erkinlikka va sodir bo‘layotgan jarayonlarning faolligiga qaratish kerak. Tushunish va natijaga erishish uchun oddiy, jismoniy va musiqali mashqlar yordamida erishiladi. His tuyg‘ularni har xil birlashmalar orqali, obrazlarni qidirish, kuch va siqish orqali harakat qilmaslik kerak. Bu ishda eng katta yordamni ko‘zgu beradi. Bu mashaqqatlari ishda professional diqqat, sabr, qat’iylik tarbiyalanadi.

A.G. Menabeni o‘zining ilmiy ishida vokal artikulyatsiyasi haqida juda yaxshi yozgan. Ijro ovozi va nutqda qanday farqlar bor? Ijroda ovoz diapazoni butunlicha qo‘llaniladi; nutqda esa faqatgina unli bor qismi ishlatiladi. Ovozdan tashqari (tenor, bas, bariton, soprano, metsts-soprano) gapirayotgan odam o‘z ovozining o‘rtacha bo‘lagini ishlatadi, bu erda ovozli gapirish qulayroq, u holdan toymaydi. Ijro ovozi gapirish ovozidan nafaqat diapazon va kuchi bilan farq qiladi. Balki tembr bilan ham, ya’ni ovozni boyroq rang-barangligi bilan ham farqlanadi. Ijroda tovush - so‘zlarni aniq talaffuz qilish, unlilarni shakllanishiga bog‘liq bo‘lib, oddiy nutqda unli va undoshlarni talaffuz etish, vaqt bo‘yicha deyarli teng bo‘lib, nutqda tovush va so‘zlarni aniq to‘g‘ri, talaffuz qilish undoshlarni butunlay aniq-ravshan talaffuz qilishga bog‘liqdir.

Ijrodagi tovush tashkil qilinishi orqali artikulyatsion apparat juda ko‘p marotaba jadallahadi (aktivlashadi). Undoshlar ijroda va nutqda deyarli bir xilda shakllanadi, ammo ijroda aniq va engil talaffuz qilinadi.

Ijroda unlilarni talaffuzi nutqdan deyarli farq etadi. Ijroda halqumni yuqori darajadagi tinch va erkinligida, og‘iz bo‘shlig‘i unlilarni shakllantiradi. Bu bilan og‘iz bo‘shlig‘ini aniq ishi mazmunini va uni vokaldagi tovushlarni to‘g‘ri talaffuz qilishdagi rolini kengaytiradi.

Nutqda halqum bir zumda kengligini va unlilarni almashishida shaklini o‘zgartiradi. Buyuk vokal o‘qituvchilari doimo shunga e’tibor qaratganlarki, ya’ni unlilar - vokal tovushini «keltirib chiqaruvchilar»dir. Ular deyarli tovush talaffuzini butunlay egallab olganlar.

Undoshlar maksimal darajada qisqartirilib iloji boricha aniq va ravshan talaffuz etiladi. Unlilar xuddi ijro tovushini qoplab olgandek qobiq bo‘lib hizmat qiladi. SHuning uchun ijro tovushini tarbiyalashda ishni vokal unlilarni shakllantirishdan boshlash kerak. Bu tovushlarda vokal ovozini barcha asosiy sifatlari ishlab chiqiladi. Unlilarni vokal bo‘yicha to‘g‘ri shakllanishi ijro ovozini badiiy boyligiga bog‘liqdir.

## OVOZ REGISTRLARI HAQIDA

Garsianing klassik aniqlashi bo‘yicha: Registr tushunchasida bir qator ketma-ket va bir turdagи ovozlar tushuniladi, bir mexanizm ichki tuzilishi harakati orqali ishlab chiqiladi. Ikkinci turdagи tovush tashkil qilish usuli ham mavjud bo‘lib: **ko‘krakli va falsetli (fistula)dir.**

1. **Ko‘krakli** – ovoz teshigini batamom tutashuvi bo‘lib, bog‘lamlar

o‘zining butun kuchi bilan tebranadi va xiqildoq bu erda past, quyi joylashadi. Akustika tomonidan kuzatilganda tovushning katta boyligi bu uning kuchidir,

2. **Falsetli** – ovoz teshigini, tirqishini butunlay yarim tutashuvi hisoblanib, bog‘lamlarning faqatgina chetlarini tebratadi. Akustika tomonidan tovush obertonlar sababli keskin farq qiladi, ko‘krakka nisbatan musaffo, asl falset proffessional opera ijrochisi registridek hisobga kirmaydi.

Ko‘krak registri uchga bo‘linadi: ko‘krak, medium (mikst), boshli bo‘ladi.

Erkaklarda u ikkita – ko‘krak va bosh; ayollarda uchta – ko‘krak, bosh, mikst.

**Mikst** – bu ko‘krak ijrosidan boshga bir xil me’yorda o‘tishi, bunda bog‘lamlar yumilishi o‘rtaloylashuvini egallaydi.

Mikstda ko‘kraklar va bosh rezonatorlari ham ishlaydi. Bu ishda mikst ustidan eshitish nazorati juda muhim va his tuyg‘ularni qidirishdagi qulaylik bo‘lib ham xizmat qiladi. Ijrochi siniq notalardan qochishi kerak. Yaxshi nafas olishni ovoz orqali nazorat qilib to‘g‘rilab va zo‘rg‘a bilinayotgan unli tovushni, uning tubanlik mohiyatini o‘zgarganligini, unlining yopinchig‘i deyiladi. Shuning uchun ochilish va yopilish tovushlari atamalari bordir.

**Yopilgan tovush** – bu tembr bo‘yicha ko‘proq yaxlitlab yuqori va pastki rezonatorlarning maksimal qo‘llanilganligidir. Va bir vaqtida tayanch hissini saqlashdir. Vokal ijrosida tovush yopilishi (berkitilishi) oson ishlaydi, halqum me’yorda kengayadi, xiqildoq esa o‘zining me’yoriy holatidan pastga tushadi. Tovushni to‘g‘rilash juda yuqori va pastki notalar orqali o‘z vaqtida sodir bo‘ladi. Ochiq (sof) tembrdan haddan tashqari foydalanish boshlang‘ich o‘qitish davrida tovushlarni noto‘g‘ri shakllanishiga olib keladi. Bu juda ko‘plab ovozlarni muddatidan oldin yo‘q bo‘lishini asosiy sabablaridan biridir. Ayniqsa erkaklarning yuqori ovozini ochiq tembrda ijro qilishi zararlidir. Ayol ijrochilarining ochiq tovushda haddan tashqari foydalanishi, ularda har xil nuqsonlar paydo bo‘lishiga va ovozni tez eskirishiga, buzilishiga olib keladi. Ushbu vazifani yodda saqlash uchun qo‘sish qaytishni endigan boshlaganlar nimani unutmasligi kerak?

1. Ovoz tembrini o‘rtalarda tuzatish, uning chiroyliligi, yopilmagan va ochilmagan hamda sof bo‘lishi mumkin emas.

2. O‘rtaloylashuvning tonini bir tekis to‘g‘ri o‘tishini kuzatish, o‘z o‘ziga ovozini sinishiga, o‘zgarishiga yo‘l qo‘ymaslik bu ko‘krak va bosh ijrodagi tovushining aralashuvini ta’minkaydi.

3. Tovushning “rangi” erkin va jarangdor bo‘lishini kuzatish tuban va bo‘g‘iq, xunuk va eshitilmaydigan qiladi. Garsia aytganidek tovushda quydagilar bo‘lishi kerak:

- past (quyi) xiqildoq;
- tilning qoshiqsifat shakli;
- yuqori yumshoq tanglay.

Vokal mashqlari bilan shug‘ullanish bo‘yicha bir qancha maslahatlar oldik:

1–mashq – tabiiy, butun, hech qanday kuchlanishsiz, unlilarni o‘zgartirmasdan bir xil kuchda ijro qilish kerak.

Glinka ko‘rsatmasi: “Mashqlarda tovushni kuch ishlatmasdan cho‘zish.

Endi boshlayotganlar uchun mashq juda oddiy, ritmik, tor intervallarda va kvinta oralig‘ida bo‘lishi kerak”.

Vokal ijrochilari qo‘sish qayta uchun birinchi navbatda nafasni to‘g‘ri olishdan boshlash kerak deyishadi. Vokal o‘qituvchilari ijroda «A» tovushini ishlatishdan boshlashni tavsiya qilganlar. Chunki bu unlida ajoyiblik ko‘proqdir. Xiqildoq tinch, pastda joylashgan bo‘ladi, halqum ochilgan, kengaygan va yumshoq tanglay ko‘tarilgan bo‘ladi. Ko‘pincha o‘quvchilarga «A» tovushini aytish qiyin, «O» yoki «U» unlisi esa engilroq bo‘lib tuyuladi. Pedagog Vitt maslahati bo‘yicha: “Yaxshi shakllanadigan va yaxshi jaranglaydigan unlini topish qulaydir”. Glinka buni shunday atagan: “Oldin engil bo‘ladigan tovushlarni aytish kerak”. Albatta keyingi mashqlarda barcha unlilardan foydalanish kerak. Ijro matnidagi unli va undosh tovushlarni navbatma-navbat kelishida tovush bir tekis, iloji boricha chiroyli bo‘lishi kerak. Tovush tekisligi musiqali interval, to‘xtalishlarni engilishiga, unli va undoshlarni o‘zgarishiga tobe bo‘lmasligi kerak. Barcha unlilar bitta vokal shakliga ega bo‘lishi kerak. Undoshlar va unli tovushlarni, ularni vokal chizig‘idan chiqarib tashlamasligi, ular engil va aniq talaffuzda bo‘lishi hamda unlilar oqimini bo‘lmasligi kerak. Ovozni to‘xtamasdan chiroyli va tekis jaranglashi ijroning asoslaridan biridir. Bunga chiroyli nafas olish jarayonlari va tovush hajmi mukammalligi orqali erishiladi.

**Nafas olish** - bu pedalni bosish, tovushlarni birgalikda bog‘laydigan barcha mashqlarni LEGATO dan tashqari ijro qilish demakdir. **Kantilena** - nafas olganda bir notadan ikkinchi notaga hech qanday silkinishsiz, to‘xtamasdan bir tekis o‘tishni bildiradi. Buni taqinchoq bilan tenglashtirish mumkin, ya’ni bir ipga birin -ketin durlarni o‘tkazishdir yoki skripkachining skripka chalishidek, kamonchani simlar oralab bir tekis ravon kelishidir. LEGATO va KANTILEKS ustida ishlashdan oldin oddiy asar va mashqlarni tinch tempda ijro qilish kerak.

M.Garsia tovush tekisligi LEGATO haqida shunday deydi: “Bir bo‘g‘indan ikkinchisiga o‘tayotganda, bir notadan ikkinchisiga o‘tishda ovozni silkinishsiz va bo‘shashtirmasdan aytish kerak. Xuddi barcha qurilmalar faqat bir tekis va davom etadigan tovushdan tashkil topsin. Barcha notalarni bir tembrda qat’iy saqlash kerak. Tembr tekisligi xiqildoqning bir nusxali ishlashidan vujudga keladi”.

FORTE va PIANO ijrosiga ko‘ra pedagog Vitt maslahat beradi: “Ijroni o‘rganayotganlar shuni unutmasligi lozimki, ovoz kuchi uni boshqarishda oson oldinga o‘tadi. Yaxshi ijro etish uchun ijrochi o‘z ovozini kuch bilan itarmasdan, balki o‘stirishi kerak”.

Vokal maktabining eng yaxshi natijalaridan biri – bu o‘z-o‘zini eshitish va nazorat qilish orqali sodir bo‘ladi. Birinchi mashqlardanoq o‘z ovozini eshitishga o‘rganish, uni yaxshi bo‘limgan holda ham qabul qila olish, shuningdek uni xuddi o‘simlik singari o‘stirish, saqlash, sevish orqali ovoz jaranglaydi va ravshanlashadi. Mashqlarni birinchi notalar nomi bilan kuylashdan boshlash kerak, lekin u barcha vokal talablariga javob berishi darkor:

1. O‘zini o‘qishga bo‘lgan qiziqishini, jismoniy va psixologik tayyogarligini tekshirishi kerak. Bo‘g‘inlarni aytamiz: «VA», «MA» yoki «DA». O‘zingizga qulay bo‘lgan bir tovushni olib nafas chiqgunicha ushlappingiz kerak (nafasni

oxirigacha siqib chiqarmang). Tovush kuchsiz bo‘lgunicha nafas berishni kuchaytiring, tovush chiroyli va tekisligini kuzating. Nafas olganda charchamang, bo‘lmasa tovush qaltiraydi, bu mashq ijro nafasini his qilishga yordam beradi.

1 Va-va-va -va -va  
2 Va-va-va -va -va  
3 Va-va-va -va -va

7 Ma-ma-ma-ma-ma.Ma-ma-ma-ma-ma.Ma-ma-ma-ma-ma.Ma-ma-ma-ma-ma

14 Da-da,da-da-da-da-da-da.Da-da,da-da-da-da-da-da.Da-da,da-da-da-da-da-da.Da-da,da-da-da-da-da-da.

2. Birinchi notadan oldin unlini FORTE keyin PIANODa aytинг. Diqqat: nafas uzatilishida tovush sifati va tekisligini nazorat qiling. Nafas tekis, faol, silkinishsiz uzatiladi. Ijro vaqtida gavdani to‘g‘ri holatda bo‘lishini kuzating.

12 A-E-I-O-U  
13 A-E-I-O-U  
14 A-E-I-O-U  
15 A-E-I-O-U  
16 A-E-I-O-U

19 A-E-I-O-U.  
20 A-E-I-O-U.  
21 A-E-I-O-U.  
22 A-E-I-O-U.  
23 A-E-I-O-U.

3. Bitta notada hamma unlilarni shoshilmasdan bitta nafasda aytинг (A, E, I, O, U - A, O, E, I, U). Tovush sifatini va uning tekisligini nazorat qiling, bunda unlilar ketma-ketligi o‘z-o‘zidan ko‘rsatilmagan. Bu unlilar tartibi tovush artikulyatsiyasining tekisligini, me’yoriyligini, qulayligini ta’minlaydi, faqatgina «A» tovushida xiqildoq qisilganligidan tashqari holatlarda. Bunday holatda qulay unlidan boshlash zarur, chunki mana shu qiyinchiliklarga ko‘ra ko‘pgina pedagoglar solfedjioni ijro qilishga qat’iy qarshidirlar. Ayniqsa bu boshlang‘ich o‘rganish davrida sodir bo‘ladi, chunki ijrochining diqqati boshqa yo‘lga qaratilgan bo‘ladi va bu tovush sifatida namoyon bo‘ladi.

19 A-E-I-O-U.  
20 A-E-I-O-U.  
21 A-E-I-O-U.  
22 A-E-I-O-U.  
23 A-E-I-O-U.

25 A-E-I-O-U.  
26 A-E-I-O-U.  
27 A-E-I-O-U.  
28 A-E-I-O-U.  
29 A-E-I-O-U.

4. Marash «M» tovushini qo‘sib aytish kerak, til ildizi to‘g‘ri joylashganiga ko‘nikish uchun og‘izni ochish, lablarni yumshoq birlashtirish (yopish) va «M» tovushini uzoq cho‘zib aytish, lablar tepasida qitiqlash va titrash bo‘lishiga olib keladi. Agar til ildizlari ko‘tarilgan bo‘lsa, bu tuyg‘u bo‘lmaydi.



5. Ijroda birinchi notali bo‘g‘imlarida «MA-ME-MI-MO-MU» (shoshilmasdan, osoyishta kuylang), «M» eng birinchi tovush, marash sifatida talaffuz qilinadi. Xuddi oldingi mashqlardagidek, keyingi unli tovush xuddi shu erga, ya’ni tepe tishlarga, shu kenglik va aylanalik darajasida og‘izning tabiiy bo‘lishini, xiqildoqning ozod bo‘lishini, nafasni o‘tkazuvchan bo‘lishini kuzating. Mashq tayanchini his qilishga yordam beradigan tovushni oldinga suradi.

Ma-me-mi-mo-mu. Ma-me-mi-mo-mu. Ma-me-mi-mo-mu. Ma-me-mi-mo-mu!

6. Garsia va Lamperti mashqlarida boshlovchilar uchun bitta notada shunday so‘zlarni aytish lozim «Mama - Miya», “Tatta - ta» va hakozo.

Mama-miya tatta-ta. Mama-miya tatta-ta. Mama-miya tatta-ta. Mama-miya tatta-ta.

7. Boshlovchilar uchun «L» undoshi juda yaxshidir. Bitta notada yoki kichkina tor intervallarda bo‘g‘inlnarni aytинг: “LA-LE-LI-LO-LYA-LU-LO”.

La- le -li - lo - lya -lu - lo. La- le -li - lo - lya -lu - lo. La- le -li - lo - lya -lu - lo.

8. Uncha qiyin bo‘Imagan xromatik ijroni qulay bo‘g‘inda aytинг (diopozon, kvinta, tertsiya), oldin barcha bo‘g‘inlnarni har bir notada talaffuz qiling, aniq ravshanlikni ishlab chiqishlik uchun faqat bitta notada bo‘g‘inni talaffuz qiling, keyingilari esa unlilarda sodir bo‘ladi.

Ma-----Mo-----Ma! Ma-----Mo----- Ma!

## OVOZLARNING KLASSIFIKATSIYASI

Ovozlarning nomlari va diapozonlari quyidagilardan iborat:

Ayollarning ovozlari.

**Koloratura soprano** – juda katta diapazonga ega bo‘lib, o‘ta harakatchan bo‘ladi. Bu ovoz o‘zining juda ham tiniq va ingichka tembri bilan boshqa ovozlardan ajralib turadi (diapazoni: “Do” 1-chi oktava –“Fa” 3-chi oktava).

**Lirik soprano** – yumshoq tembrli ovoz (diapazoni: “Do” 1-chi oktava – “Do- Re” 3-chi oktava).

**Dramatik soprano** – kuchli ohangdor ovoz (diapazoni: “Do” 1-chi oktava – “Si” 2-chi oktava)

**Metstso - soprano** – engil va to‘liq ovoz hisoblanadi (diapazoni: “Sol” kichik oktava – “Sol” 2-chi oktava).

**Lirik metstso - soprano** – yorqin ovoz hisoblanadi (diapazoni: “Lya” kichik oktava – “Lya- Si” 2-chi oktava).

**Kontralъto** – ayol ovozining eng pastki va juda quyuq ovozi hisoblanadi (diapazoni: “Re” kichik oktava – “Mi” 2-chi oktava).

Erkaklar ovozlari.

**Lirik tenor** – juda sof jarangli ovoz (diapazoni: “Do” kichik oktava – “Si-Do” 2-chi oktava).

**Dramatik tenor** – kuchli jarangdor ovoz (diapazoni: “Do” kichik oktava – “Si-bemol” 2-chi oktava).

**Lirik bariton** – yumshoq harakatchan ovoz (diapazoni: “Lya” katta oktava – “Sol” 1- chi oktava).

**Dramatik bariton** – kuchli va jarangdor ovoz (diapazoni: “Sol” katta oktava - “Fa” 1-chi oktava).

**Bas** - erkaklarning eng pastki ovozi (diapazoni: “Do” katta oktava – “Mi” 1-chi oktava).

**Bas-profundo** – eng pastki va ko‘krak qafasi orqali ijro etiladigan ovoz. Ko‘pincha cherkovda ijro etiladigan qo‘shiqlarda ko‘proq ishlataladi.


## OVOZ BILAN ISHLASHNING KEYINGI BOSQICHLARI

Ovozni harakatchan va tezkor bo‘lishida oddiy mashqlardan saboq olinadi va chegaralangan miqdorda xiqildoqni charchatmaslik uchun juda tinch tempda ijro qilinadi. Bu ishda asosiy printsip: talaffuzni aniqlashdir, chunki hammasi aniq, to‘g‘ri, ritmik bo‘lishi uchun. Oldin oktava diapazonida - gammalar aniq, ravshanligi muallaq bo‘lmasa, unda bo‘g‘inlar qo‘shiladi: DA-DE-DO, yoqimli - LE-TA-TA.

26

Da -de -do. Da -de -do.

Le -ta-tà, Le - ta -tà, Le -ta -tà, Le - ta -tà, Le -ta -tà, Le -ta -tà,



Metro Fortyoni aytishi bo'yicha nafasni haddan tashqari ko'p olmaslikni, tempni ko'paytirishga shoshilmaslikni, tezkorlikni, xiqildoqni egiluvchan va cho'ziluvchanligini, chidamli, mashaqqatli, texnik vazifalari uchun qulqoq osishni o'rgatadi. Tezkorlik ishiga faqat xiqildoqni ozod etilganidan keyingina kirishish mumkin.

Ijrochida toza intonatsiya (talaffuzni) etishmasligi, koordinatsiya (ovozni to'g'rilash) yo'qligi, vokal ko'nikmalarini etishmasligi yoki eshitishni yaxshi rivojlanmaganligida bo'lishi mumkin. U ham bu ham atrofdagi nazorat orqali ongli ravishda o'z-o'zini nazorat qilish tufayli amaliyotda rivojlanadi. To'g'ri intonatsiyaga erishish uchun ko'p mehnat va sabr bilan ishlash talab etiladi. Ijro jarayonida qiniychilik tug'diradigan interval yoki asar parchasini musiqadan «yilib olish» va LEGATOda qulay bo'lgan unlilardan 1-2-tongacha pastga yoki yuqoriga olib o'tish mumkin. Bu parchani xuddi vokal mashqidagidek ijro qilish lozim. Musiqada alohida tovushlar mavjud emas, har bir ijro qilingan tovush keyingisini tayyorlaydi. Bunga pianinochi Gofman tomonidan shunday ta'rif berilgan: "Bitta barmoq chaladi, qolganlari tayyorlanadi". Alohida notalar bu chiroyli ijro emas.

Ijro - tanaffussiz ovozning mantiqiy harakati hisoblanadi. Bu ish albatta – alifbo saboqlaridan boshlanadi.

Professional ovozni texnik tayyorlashga va oldinga qo'yilgan maqsadlarga erishishda qanday talablar qo'yilganligi to'g'risida sanab o'tamiz:

1. FORTEPIONO METRO FORTE – ijro qilishni bilish, ovozni tozalash;
2. Ovozni turli tembrli ranglarga ega bo'lishini bilish;
3. Xromatik va diatonik gammalarni to'g'ri ijro qilish;
4. Surilish harakatiga ega bo'lish (kaloratura);
5. Notalarni turli usullar bilan bog'lash: LIGITO; PORTO; MENTO; STAKKATO;
6. Texnik tomondan qo'llashga ega bo'lish;
7. Turli qiyinchiliklarning ritm va tempini tushunish;

Ovozni mukammallash ustida ishlash haqida: Biz vokal texnikasini mukammallashtiramiz. Vokal texnikasi atamasi ijrochining barcha ovoz hosil qismlari ishining bir-biriga ta'siri deb tushuniladi.

## REZONATOR NIMA?

Taxminan 80% qo'shiq tovushi quvvati atrofdagi to'qimalardan o'tishida o'ladi. Ularning tebranishida isrof bo'ladi. Havo o'tkazish bo'shlig'ida (burma usti va burma osti erida) tovushlar chidamliligi akustik o'zgarishlarga uchraydi, kuchayadi – shuning uchun bu bo'shliqlar **rezonatorlar** deyiladi.

**Rezonatorlar – ustki va ko'krak rezonatorlariga bo'linadi.**

**Ustki rezonatorlar:** barcha bo'shliqlar tovush burmalaridan yuqorida yotuvchi halqumning tepe bo'limi, og'iz va burun bo'shlig'i va kalla rezonatorlaridan tashkil topgan. Bo'g'iz va og'iz bo'shlig'i suhbat tovushini shakllantiradi, tovush kuchini oshiradi, tembrni unga ta'sir qildiradi. Kalla rezonansi - ovoz uchishiga (xuddi metall yigilishi singari) ega bo'ladi. Bu rezonatorlar tovush tuzilishini ko'rsatuvchi bo'lib hisoblanadi.

**Ko'krak rezonansi** tovushga ijroni to'liqligi va kengligidan xabar beradi. Ko'krak rezonansidan haddan oshiq foydalanish ijroni og'irlashtiradi va tovush susayishiga (tebranishiga) va ohangni pasayishiga olib kelishi mumkin.

## DIKSIYA

**Diksiya** – tovush, so'zlarni aniq talaffuz qilishdir. Qo'shiq aytayotganda og'zi bo'sh, estetik bo'lishi kerak. Bu jag'lar, til va lablarga bog'liqdir. Og'izni ijrochilikda chiroyli ochish tilni, halqumni, bo'g'izni to'g'ri qo'yilishiga va butun ovoz apparatini keraklicha to'g'ri o'rnatishga yordam beradi. Qisilgan jag' pastki og'iz ochilishiga halaqit beradi va til osti suyagi orqali bu qisilgan halqumni yuqoriga tortadi, bu tomoqda ijro qilish sababi bo'lib namoyon bo'ladi.

Jag'lar tilni juda zo'r berib ishlashiga sababchi bo'lib, u unlilarning asosiy artikulyatoridir. Tilning holati og'iz rezonatori shaklini o'zgartiradi va ovoz tembriga ta'sir qiladi. Ijroda pastki jag' bo'sh bo'lishi kerak. Nafas faol bo'lganda ham u qattiq orqaga otilib halqumga urilishi kerak emas. U yuz (bet) muskullari va lablar burchaklari bilan ushlanishi kerak. Lablarning o'zi bilan undosh tovushlarni faol talaffuz qilayotgan lablar unlilarni batamom tashkil qiladi va labda undoshlarni asosiy shakllantiruvchisi bo'lib namoyon bo'ladilar. Lablar holati ijrochi tovushini tembriga ta'sir qiladi. Tabassum tembrni yoritishga yordam beradi. Lablar tishlar ustida yotishi kerak.

M.Garsia shunday deb aytgan: "Yumshoq tanglay ovoz tashkil bo'lishida alohida asosiy rol o'ynaydi, uning holati og'iz yutish kanalining rezonator hususiyatiga muhim ta'sir qiladi. Tadqiqotchilar uni halqum va burun, bo'g'iz bilan bog'liqligini, tovush diapazoniga ta'sir qilishini ko'rdilar. Mana shu sabablarga ko'ra yumshoq tanglay ijroda doimo faol holatda bo'lishgi kerak".

Artikulyatsion a'zolarning bizning ongimizga bo'ysunishi kerakli yo'nalishga harakatlantinib, butun ovoz apparatiga muhim ta'sir ko'rsatishi mumkin. Erkinlik, tabiiylik, uyg'unlik - maqsad sari fikrni yaxshilab jamlab saqlashda haqiqiy san'at tomon yo'l ochadi. Qaysidir olim ijro qilayotganda yuz erkin bo'lishi kerak, deb juda to'g'ri aytgan. U siz texnik vokalni aks ettirish mumkin emas.

Endi turli pedagoglarning artikulyatsiya va diksiyaga doir bir nechta aytgan gaplari haqida:

- haddan tashqari jag'larni harakatlantirish natijasi bo'g'izni qisadi va kerak tovush tebranishini bo'g'adi;
- tovush apparatidan uning rezonans ma'lumotini olib qo'yib bo'g'adi;

- agar tishlar juda yaqinlashtirilgan bo‘lsa, tovush tomoq aksini oladi;
- agar lablar og‘zi tor idishga suyuqlik quyish uchun ishlatajigan asbob shaklidek oldinga harakat qilsa, bunda faqat og‘ir va xuddi uvillagandek ovoz xosil bo‘ladi;

- agar og‘iz oval shaklida ochilsa (baliq og‘zi kabi) bu holat noqulaylikka ega bo‘lib, u ovozni uchiradi, artikulyatsiyaga halaqit beradi va nihoyat yuzga beo‘xshov, xunuk ko‘rinishni beradi.

Og‘izni oval «O» shaklida ochsak, lekin pastki jag‘ni ustki jag‘dan alohida qilib ajratsak, u buning oqibatida pastga tushadi. Og‘iz burchaklari bunda ozgina ko‘tarilgan bo‘lishi kerak, bu harakatlar lablarni tishlarga qisib, ushlab, og‘izga chiroli shakl beradi. (M.Garsia, J.Dyupre). Ijrochi diqqati tovush oqimiga va unlilarni o‘zaro ulanganligiga qaratilgan bo‘lishi kerak. Bunda undoshlar oqimini to‘g‘ri tashkil qilgan bo‘ladi. Bularni tez va aniq talaffuz qilish kerak, ularni bir-biriga jipslashtirish, otib tashlash mumkin emas, ya’ni ovoz (ummonlar) oqimiga zarar keltirmasligi uchun ijroni to‘smaslik kerak. Buzilgan dixsiya nafaqat vokalda, balki badiiy munosabatda ham zararlidir.

Mashhur hikmatli so‘z (aforizm) mavjud: - Yaxshi ijrochida dixsiya ham yaxshi va yomon ijrochida dixsiya ham yomon bo‘ladi. Bu dixsiya ovozni to‘g‘ri tashkil qilishda o‘zaro bog‘liqligini ko‘rsatadi (N.Malishev).

K.S.Stanislavskiy nutq san’atini ijro san’atiga nisbatan murakkab san’at deb qabul qilgan. U ko‘pincha aytardiki: “Yaxshi aytilgan so‘z – bu ijrodir, yaxshi ijro qilingan jumla esa - nutqdir”.

## ARTIKULYATSION APPARAT. DIKSIYA

Bizni talabalarga qarata aytadigan gapimiz – so‘zlarimizdami, ijroimizdami, talaffuzimizdami aniq bo‘lishi kerak, ya’ni u etarlicha jarangdor, ifodali bo‘lib uni zalning oxirgi qatorida o‘tirganlar ham eshitishsin. Dixsiya yaxshi bo‘lishi nihoyatda zarur bo‘lib, gaplarni aniq, ravshan talaffuz qilish kerak. Yaxshi natijalarga erishish uchun artikulyatsion apparat ustidan malaka oshirib, uning texnik imkoniyatlarini ishlab chiqish shartdir.

**Artikulyatsion apparat** - bu ovoz apparatining bir qismi bo‘lib, nutq tovushlarini shakllantiradi va uning tarkibiga kiruvchi artikulyatsion a’zolardan biri bo‘lib hisoblanadi. Bu a’zolarning ishi nutq tovushini bunyod qilishga qaratilgan (unli, undosh-artikulyatsiya) deyiladi.

Artikulyatsion apparatga tegishli a’zolar:

- Og‘iz bo‘shlig‘i, yuz, lablar, tishlar, til, jag‘lar, tanglay, halqum, bo‘g‘iz. Shuni esda tutish kerakki, og‘iz bo‘shlig‘i - bu juda asosiy harakatlanuvchi rezonatordir. Artikulyatsion asbob ishining birinchi sharti – tabiiylik va faollikdir. Faol tabiiylikka erishish uchun turli qisilishlar orqali va turli muskullar va a’zolarning aniq ishslashini rag‘batlantirish orqali erishiladi. Albatta qisilishlarni echish juda oddiy aytildi, ammo ularni oldin topish, ko‘rib olish kerak. Ko‘zgu oldida juda uzoq ishlagandan keyingina, hamma vaqt e’tibor qilgan holdagini, bu etishmovchiliklar yo‘qola boshlaydi.

Bu ishda bizga oddiy mashqlar yordam beradi: faol tabiiy yoki faol erkinlik - bu etarli darajadagi uslubdir. Tovushlarni talaffuz qilish ozroq oshirilgan holda bo‘lishi kerak, ya’ni tomosha zalining oxirgi qatorida o‘tirganlar ham eshitishi uchun. Lekin faollashtirish yangi qisilishlarni keltirib chiqarishi kerak emas. U qulaylik, tabiiylik, erkinlik orqali yuzaga keladi. Hatto Karuzo aytgan edi: “O‘sha ijrochi yomonki, u qisilgan jag‘lar bilan ijro qilishni o‘laydi”. Katta ustozning bu jumlesi shuni bildiradiki, tovush uyg‘unlikni va san’at jarayonidagi tabiiylikni qanday baholaganligini anglatadi. Ko‘zgu - bu uyg‘unlikga va tabiiylikga erishishlik ishida katta yordamchidir, chunki ko‘plab qisilishlar nafaqat ovozda, balki ijro etayotgan yoki gapirogtanning yuzida ham aks etadi.

Mana bu mashqlar sizga yordam beradi:

**1-mashq.** O‘z og‘zimizning ichki tuzilishini ko‘rib chiqamiz, ko‘zguga qarang. YUz xotirjam, lablarning tabiiy shakliga nazar soling, endi ularni faol holatga keltiring, lablarni bir-biriga tekkizing. Ularni xuddi ingichka karnay holatida yig‘ing, tepa labni ko‘taring va og‘izni oching. Ularning chiroyli shakliga, pastki jag‘da tinchgina xotirjam yotgan tilga qarang. Til ildiziga qarab kichik tilchani ko‘ring, uni ushlab olishga harakat qiling. Halqumni yumshoq tanglayni his qilgan holda erkin holga keltirib esnashga harakat qiling. Chunki yuqori tishlardan qattiq tanglay keladi, keyin esa yumshoq harakatlanuvchi tanglay va kichik tilcha keladi.

**2-mashq.** Tilni faollashtirish uchun tilingizni bir tomondan ikkinchi tomonga qimirlating. Oldinga, orqaga, o‘ngga, chapga, aylana harakat qilib ikki tomonga vintikli, trubochkali holatda. Til uchini og‘izdan chiqarib tez-tez uni bir burchakdan ikkinchi burchakka o‘tkazing.

**3-mashq.** Til uchini his qiling. U faol va qattiq xuddi bolg‘achadek (bunda sizga tasavvur qilish yordam beradi). Til uchi bilan tishlarga uring ko‘ring, xuddi (tovushsiz) aytayapsiz: DA-DE-DA-DA. Bu paytda yuqori tanglayni va og‘iz kengligini o‘zingizga tasavvur qiling. G‘ayratli keskin aytинг: T-D, -T-D, - T-D.

**4-mashq.** Ichki nazar bilan og‘iz bo‘shlig‘ini ko‘ring, tabiiy til joylashuvi pastki jag‘da tinchgina yotadi, uning uchi ichki tepalik pastki tishlarning ildiziga tegadi, tepadan esa yuqori tanglayga. Til ildizi tinch tushgan, shu sababli xiqildoq (halqum) xotirjam, erkin bo‘ladi. Bu hislarni eshiting va esda qoldiring. Agar hammasini birdan his qila ololmasangiz unda ko‘zguni oling, unga qarang, keyin og‘iz tuzilishini tasavvur qiling.

Vokalist o‘qituvchilar aniqlashdiki, til bukrayib yotganda u halqumni (xiqildoqni) tortadi va egadi, ijroda uning tinchligini va ohangdorligini buzadi. Tilni kuch bilan yotqizish shart emas, ko‘zgu yordamida bu kamchilikni tuzatish foydali, uni his qilib, qulay joylashishini va holatini qidirish kerak. Bu erda ko‘zlar va diqqatni jamlash yordam beradi.

**5-mashq.** Tilni va halqumni ozod qilish uchun shunday vazifani bajaring: tez, qisqa va chuqur nafas olish, burundan keyin og‘izdan butunlay chiqarish lozim. Nafas chiqarishda havo tez, xuddi otigandek bo‘lishi kerak: «FU» tovushi bilan (lunjlar bo‘shaydi). Halqum muskullarini mustahkamlash uchun keskin talaffuz qiling: K-T, K-G, K-G.

**6-mashq.** Lablar muskullarni faollashtirish uchun yig‘ilgan lablar orqali lunjlarni shishirib, havoni qarsillatib tez chiqaring. Xuddi bir bog‘lam qilib jamlangandek, keskin talaffuz qiling: P-B, P-B, P-B.

**7-mashq.** Bu mashqlarda pastki jag‘larni ozod qilish uchun og‘izni oddiy oching, jag‘larni chetga harakatlantiring (suring). Bu mashqlarni erkinligini his qilib, engil charchoqni his qilguningizcha ko‘zgu oldida bajaring. Pastki jag‘ erkin bo‘lishi kerak, lekin ochilmagan holda og‘ir osilib yotgan pastki jag‘ halqumga (xiqildoqka) uriladi. Tovushni shaklsiz qilib, artikulyatsiyani mustahkamlaydi.

**8-mashq.** Jag‘lar qisilgan bo‘lishi kerak emas, oldingi tishlar bilan xuddi sovuqda qolgandek titragan holda taqillating. Yangi siqilishlar paydo bo‘lmasligi uchun siz turli harakatlarni bajarayotganingizda o‘zingizni ko‘zgu yordamida nazorat qiling. Sizning yuzingiz (peshona, qoshlar, ko‘zlar) tinch bo‘lishi kerak, hech qanday qiynalmasdan, zo‘riqishsiz, ortiqcha harakatsiz, yuzingizni kuzatishga moslasha boring. Qaysi mashqlardagi vazifalardan qiyinchilik bo‘lganini kuzating.

Qaysinisida noqulaylik his qildingiz, ko‘zguda zo‘riqish yoki qiyin ahvolni ko‘rdingiz? Harakat (yaxshisi zo‘r kuch berish) sizga noqulaylikni keltirib chiqargan bo‘lsa, ko‘p marta qaytarish kerak. Siz o‘z oldingizga qo‘ygan maqsadingizga, ko‘p marotaba takrorlash orqali noqulay harakatlarni engishga muvofaq bo‘lasiz. E’tiboringizni nafas olish ishida bajarilishi kerak bo‘lgan sharoit - charchamaslik, artikulyatsion organlar ishida engil charchoq his qilguncha takrorlashga qarating. Bu engil mashqlar sizning artikulyatsion apparatingizni rivojlantiradi va marraga etkazadi. Ko‘zguga oddiy qarash jarayoni esda saqlash va tasavvur qilish uchun axbarot beradi. Juda ko‘p bo‘ladiki, ya’ni mashq so‘zini o‘zi insonda qisilishni keltirib chiqaradi (ayniqsa boshlovchilarda tabiiylikni yo‘qotish, qandaydir to‘xtov, noto‘g‘ri psixologik holatni keltirib chiqaradi). Lekin doimo ishga moslashgan odamlarda «mashq» so‘zi faol ish holatini keltiradi. Biz o‘quvchilarga aytamizki: siz xuddi shamga puflayotgandek, o‘zingizni tasavvur qiling va bu harakatni juda tez bajarasiz. Agar boshlovchi bilan ishlayotganda biz bu jumladan oldin aytsak: ya’ni “mashqni bajaramiz” - bunda tajribaga ega bo‘ligan boshlovchi tabiiylikni bir zumda yo‘qotadi. Nafas olish ham misli ko‘rilmagan bir daqiqalik sukut (to‘xtalishlarni), lablarga noto‘g‘ri zo‘riqish beradi va hakozo. Tezlikda ishchanlik holatiga kirishishga o‘rganish kerak. Tasavvur qila bilish uchun turli harakatlarni bajara olish, diqqatni mayda harakatlargacha to‘g‘rilay olish, his tuyg‘ular va jarayonlarni o‘rganish kerak.

**9-mashq.** She’rlardan yoki hikoyalardan parcha oling, ularni yoddan bilmaysiz. Uni o‘zingiz uchun ko‘zgu oldida o‘qing, o‘z yuzingiz, og‘zingiz, ko‘zlarining o‘qiyotgan paytingizda kuzating. Tovushingiz qanday jaranglayotganiga ahamiyat bering.

Baholash kriteriyalari - estetik o‘quv turli ko‘rinishlardagi uyg‘unlik, tabiiylik fizik va psixologik holatning qulayligidir. Ko‘p vaqtida boshlovchilarning ko‘zgu oldidagi ishi bu xaqiqiy ekanligini sezish mumkin. Siz bu ishda o‘zingizga ko‘zgu oldida turish qulayligini bilishingiz kerak. A.Barsova maslahat beradi: “Musiqali asarni ijro qilishdan oldin bir necha marotaba matnni o‘qib chiqish kerak, yaxshisi ko‘zgu oldida turib”. Shunday qoida mavjud: “Har qanday jumlanı,

tovushni talaffuz qilishdan oldin nafas oling, keyin uni yuqori tishlar ildiziga qattiq tanglayga qarating”. Hazilakam o‘zingizni quyon deb tasavvur qiling. Old tishlar bilan sabzini eyayotgandek xuddi shunday jadal faol hisni siz matnni o‘qiyotgan vaqtingizda sezishingiz kerak. Tovush tuzilishi bilan mashg‘ul bo‘lgan vaqtingizdan boshlab hamma tovushlar nafas yo‘lida bo‘lishi kerak. O‘z o‘rnida bu sharoit umr bo‘yi, hattoki oddiy so‘zlashuvda ham esdan chiqmaydi.

**10-mashq.** Yangi jumlanı aytishda nafas olish ko‘nikmasi ustida ishlang. SHe’r va hikoya parchasini o‘qiyotganingizda o‘zingiz anglagan holda har bir jumladan oldin nafas oling. Chunki nafas olish tovush chiqarishda va ravshanlik sifatida kerakki, buni nafaqat jumla boshida va hatto turli belgilarda ham bo‘lishi lozim. (bu adabiy va musiqali matnga tegishlidir). Nafas olish shovqinli bo‘lmasligini kuzating, chunki har xil tovushlar matnni qabul qilishga xalaqit qiladi.

Ikkita qoidani esda tuting:

a) jumla boshida lablar engilgina yopilgan bo‘lishi kerak, ya’ni tovush boshlanishida kechikmaslik uchun turli tovushlar chiqarmaslik (ua-ue-uo) va yana chapillatmaslik kerak;

b) og‘izni tovush oxirida yopish shart, bo‘lmasa uni eb qo‘yadi va jumla oxirida «M» eshitiladi.

**11-mashq.** Siz baland yoki past talaffuzingizda ko‘proq nafas olishingiz lozimligini kuzating. Siz baland talaffuz qilish uchun ko‘proq nafas olishingiz kerakligini tushunib olasiz, past so‘zlashuv esa kamroq nafas olishni talab qiladi va nafas chiqarganda ko‘proq kuzatuvchanlik, diqqatni jalb qilishlik kerak. Bu sizning uzoqdagi tinglovchilaringizga ham eshitilishi kerak.

**12-mashq.** She’rni yoki asarni uch hissa oshirib, matnni talaffuz qilgan holda o‘qing. Bu artikulyatsion apparatlar uchun yaxshi gimnastikadir. Uch hissalik talaffuz katta xonada aniq eshitiladi, ammo uch hissalik talaffuz jag‘larni siqilishiga olib kelmasligi kerak. Halqumni, tilni, lablarni har doim esda tutish darkor, unli tovushlar jadal, bir zumda va engil talaffuz qilinishi shart. Ular undoshlar tovush talaffuzini buzmasligi lozim, bo‘lmasa ijroda biri ikkinchisiga o‘tishida talaffuzni og‘irlashtiradi va mustahkam unlilar apparatni qisilishiga olib keladi.

**13-mashq.** Unli tovushlarni tekis oqim bo‘yicha talaffuz qilish usuli orqali aniq va bir zumda she’rni cho‘zib, faqat unlilarda o‘qish kerak.

Yolg‘iz elkan ko‘rinmoqda

e-e-i e-e u-i-o-a

Ushbu bir tekis chiroyli unlilar oqimini eshiting. Keyin bu oqimga tez aniq va engil undoshlarni qo‘ying, unlilar oqimining bir tekislilagini va chiroylilagini buzmaslikka harakat qiling. Bunda nimani nazorat qilish kerak: gap – so‘z (tishlar orasida) yaqin qolsin, halqumda erkin nafas olish jadal bo‘lsin. Ushbu mashqni ijro oldidan ham qilish mumkin. Faqat oldin adabiy matnda, keyin esa musiqa bilan. Ijro faqat unlilarda bo‘lsa yaxshi natija beradi.

**14-mashq.** Mashqlar uchun tez aytishlar juda yaxshi natija beradi. Tez aytishlarni oldin sekin aytish kerak, so‘ngra ularni asta-sekin tezlashtiriladi. A’lo

darajaga etkazgunga qadar davom ettiriladi. Talaffuzni ritmik bo‘lishini kuzating. Tezlik darajasini va tovush so‘zlarini aniq talaffuz qilishni unutmaslik kerak.

- 1) G‘ani g‘ildirakni g‘izillatib g‘ildiratdi.
- 2) Oq chko‘zgukka ko‘k qapqoq, ko‘k chko‘zgukka oq qapqoq.
- 3) CHigiritka chiyillab chirilladi, va hakozo.

**15-mashq.** Pedagog Vitt maslahat beradi: “Tezlikda gaplarni oxiri ajratib ko‘rsatilishiga alohida diqqatni qaratish kerak, bu tovush va so‘zlarni aniq talaffuz qilishni yaxshilaydi, lekin ushbu qoidani unutmaslik kerakki, undoshlarni yiriklashtirmaslik, og‘irlashtirmaslik darkor, balki aktivlashtirish zarur”.

**16-mashq.** So‘lg‘in, siniq talaffuz qilish, ayniqsa ijroda tezlik darajasini cho‘zilishiga olib keladi.

**17-mashq.** Agar sizda qandaydir tovushlar o‘xshamasa, unda oddiy lug‘atni oling, uni sizga qiyin bo‘lgan harfini olib, shoshilmasdan barcha so‘zlarni birin ketin o‘qing, sizga qiyin bo‘lgan tovushga qulq soling. Ko‘p martalab nazoratda bo‘lgan tovushni talaffuz qilish sharoitni yaxshi tomonga o‘zgartiradi. Bu ishga magnitafonni qo‘sish juda yaxshi. Sizga lug‘at kerakli harf bilan so‘zlarni topishingizga va diqqatni jalb qilishingizga yordam beradi.

**18-mashq.** Akustik va tembrli ovoz xususiyatlarini rivojlantirish uchun halqum va til muskullarini rivojlantirish zarur. Tovushsiz A-E-O larni talaffuz qilish, esnash bo‘shlig‘ini keng ochgan holda (og‘izni emas) 10 marta kaytarish kerak.

Barcha maslahatlar va mashqlardan kerakli xulosa chiqarib olamiz.

a) artikulyatsion apparat ichida mashqlarni bajarish ongli ravishda tekshiruv, kuzatuvni talab etadi.

b) ko‘zgu oldida ishslash juda zarurdir.

v) jadal erkinlik ichida o‘ziga nisbatan juda talabchan bo‘lish kerak, ya’ni hech ham siqilishlarga yo‘l qo‘ymagan lozim. Masalan «qiyshiq og‘iz, qoshlarni chimirib, ko‘z soqqasidan chiqquday» holatlarda.

g) artikulyatsion apparatni mashq qilishda noqulay harakatlarni ko‘p martalab qaytarish kerakdir, ya’ni qulaylikni his qilguncha, muskullar charchashidan qo‘rmaslik kerak, lekin yangi qisilishlardan qochish zarur.

d) yaxshi ijrochilarning qo‘sishlarini tinglash juda foydalidir, chunki eshitish orqali qabul qilish muskuli his-tuyg‘ularni anglashni yaxshilaydi.

## XULOSA

O‘zbekiston Respublikasi istiqlolga erishgandan so‘ng unitilib borayotgan milliy qadriyatlarimiz, milliy an’analarimiz va urf-odatlarimiz alohida e’tibor berila boshlandi. Shu bilan bir qatorda milliy san’atimizga bo‘lgan e’tibor ham kuchaydi.

Milliy musiqamiz asrlar osha avlodlardan-avlodlarga o‘tib sayqallahib, rivojlanib kelmoqda. Yosh va barkamol avlodni milliy ruhda tarbiyalashda va umuminsoniy qadriyatlarimizni asrab avaylab kelajak avlodlarga ham qoldirishda milliy musiqamiz va san’atimizning o‘rni nihoyatda beqiyos.

Shu maqsadlarni ko‘zlagan holda yaratilgan ushbu o‘quv metodik qo‘llanmaning ham asosiy vazifasi vokal ijrochiligidagi ovozni to‘g‘ri tarbiyalash, to‘g‘ri nafas olish va undan foydalanish, to‘g‘ri tovush hosil qilish, artikulyatsiya apparati hamda tovush hosil bo‘lishida ishtirok etadigan barcha organlarni tanishtirish va ularni faoliyati haqida ma’lumotlar berishdan iboratdir.

Albatta, vokal ijrochiligi o‘qituvchisi avvalo o‘zi nihoyatda puxta o‘zlashtirilgan vokal ovoziga ega bo‘lmog‘i, har bir asarni nazariy va badiiy tahlilini to‘g‘ri tushuntira olishi, tanlangan asarni talabalarga o‘zi ijro qilib berishi, ijro etish jarayonida har bir tovushni hosil bo‘lishi, uni jaranglashi, aytidayotgan asarni tinglovchi nechog‘li etib borishini anglatmog‘i kerak.

O‘quv metodik qo‘llanmada ovozni to‘g‘ri hosil qilish, to‘g‘ri nafas olish haqida mashqlar ham berilgan. Bu esa bo‘lajak vokal ijrochilariga katta yordam beradiki, bunda diksiyani rivojlantirish, unli va undosh tovushlarni talaffuz qilish, turli xil nota cho‘zimlari bo‘yicha kuylash, bir nafas oralig‘ida bir necha taktdagi bo‘g‘inlarni to‘g‘ri kuylash jarayonida nafasni ushlab tura olish, odiydan murakkabga qarab xromatik ijroni to‘g‘ri kuylashga undaydi.

SHuni alohida ta’kidlash kerakki, vokal ijrochiligi o‘qituvchisi nafaqat pedagog psixolog ham bo‘lishi talab etiladi. Chunki xarakteri jihatidan turli xil bo‘lgan talabalarga asar tanlashda, ularga mazmun mohiyatini tushuntirishda, ularni ijrosidagi nuqsonlarni aniqlash va uni tushuntirish jarayonlarida psixolog jihatdan yondashgan holda amalga oshiriladi.

Ushbu o‘quv metodik qo‘llanma bo‘lajak vokal o‘qituvchilarini va talabalarning amaliy va nazariy bilimlarini yanada boyitishda va ijrochilik mahoratlarini o‘sirishga, muntazam ravishda o‘z ustida ishlashlari, asarlarni tahlil qila olishlari, ijro yo‘llarida izlanishlar olib borishlarida katta yordam beradi degan umiddaman.

Ushbu o‘quv metodik qo‘llanma madaniyat va san’at oliy o‘quv yurtlarining bakalavr yo‘nalishi talabalari uchun mo‘ljallangan.

## Savollar

- 1. Ovozni tashkil kiluvchi barcha a'zolar kanday ataladi?**
- 2. Ovoz apparatini tashkil kiluvchi a'zolarga kuyidagilarning kaysi biri kiradi?**
- 3. Tovush tashkil kilishda kaysi a'zo katnashadi?**
- 4. Kushik aytish jarayoni nimadan boshlanadi?**
- 5. Ijro asosining poydevori nima?**
- 6. Nafas olish necha kurinishda buladi?**
- 7. Italyanchadan «maschera» -maska degan ma'nolarni bildirib, ashulachilik san'ati keng tarkalgan musika janri va shakli kanday ataladi?**
- 8. Tovushning pastki tayanchi nima deyiladi?**
- 9. Vokal adabiyotida ijrodagi esnash necha turga bulinadi?**
- 10. Nafas olganda bir notadan ikkinchi notaga xech kanday silkinishsiz, tuxtamasdan bir tekis utishi, nima deb ataladi?**
- 11. Ijro tovushini tarbiyalashda ishni nimadan boshlash kerak?**
- 12. Registr tushunchasi kanday ataladi?**
- 13. Ijrochi yaxshi ijro kilishi uchun nimalarga e'tibor berishi kerak?**
- 14. Ijro bu nima?**
- 15. Xavo utkazish bushligida (burma usti va osti yerida) tovushlar chidamliligi akustik uzgarishlarga uchraydi, kuchayadi va bu bushliklar nima deb ataladi?**
- 16. Kushik aytganda esnok kanday xolatga keladi?**
- 17. Inson a'zosidagi egiluvchan tana nima deb ataladi?**
- 18. Ijrochi kanday nafas olishi kerak?**
- 19. Ijro san'ati bu nima?**
- 20. Nima bilan mašk kilish yaxshi natija beradi?**

## TEST SAVOLLARI

1. Ovozni tashkil qiluvchi barcha a`zolar qanday ataladi?  
A. asab sistemasi  
B. tovush chiqaruvchi apparat  
V. diafragma  
G. ovoz apparati
  
2. Ovoz apparatini tashkil qiluvchi a`zolarga quyidagilarning qaysi biri kiradi?  
A. og‘iz va burun bo‘shlig‘i, diafragma  
B. xiqildoq, tovush naychalari, tomoq  
V. traxeya, bronx, o‘pka, ko‘krak qafasi  
G. barcha javoblar to‘g‘ri
  
3. Tovush tashkil qilishda yana qaysi a`zo qatnashadi?  
A. qalqonsimon muskullar  
B. asab sistemasi  
V. tovush burmalari  
G. ichki muskullar
  
4. - bu havo o‘tish tezligini va ovozlar tashkil bo‘lishida burmalar tagidagi bosimni, ular kuchini o‘zgarishini tartibga soladi.  
A. diafragma  
B. xiqildoq, xalqum, bo‘g‘iz  
V. burun bo‘shlig‘i  
G. og‘iz bo‘shlig‘i
  
5. Qo‘sish qaydini nimadan boshlanadi?  
A. havo chiqarishdan  
B. tovush chiqarishdan  
V. nafas olishdan  
G. bo‘g‘iz muskullari qisqarishidan
  
6. Ijro asosining poydevori bu - ...  
A. nafas  
B. diafragma  
V. ovoz apparati  
G. ovoz tashkil etilishi jarayoni
  
7. Nafas olish necha ko‘rinishda bo‘ladi?  
A. to‘rtta  
B. uchta  
V. ikkita  
G. beshta

8. Vokal bu - ... deganidir.
- A. italyanchadan «maschera» -maska
  - B. ashulachilik san`ati keng tarqalgan musiqa janri va shakli
  - V. she`riy va musiqiy obrazlar bir-biriga uyg‘unlashgan holda dunyoga kelishi
  - G. barcha javoblar to‘g‘ri
9. Tovushning pastki tayanchi bu...
- A. ko‘krak osti rezonatorlari
  - B. ko‘krak rezonatorlari
  - V. ko‘krak ustki rezonatorlari
  - G. ijro rezonatorlari
10. Vokal adabiyotida ijrodagi esnash necha turga bo‘linadi?
- A. bir turga (vokalli esnash)
  - B. uch turga (ijroda esnash)
  - V. ikki turga (vokalli esnash, yarim esnash)
  - G. hech qanday turga bo‘linmaydi
11. Ijro ovozi nutq ovozidan qanday farq qiladi?
- A. diapazoni va kuchi bilan
  - B. tembri bilan
  - V. ovozning rang-barangligi bilan
  - G. barcha javoblar to‘g‘ri
12. Nafas olganda bir notadan ikkinchi notaga hech qanday silkinishsiz, to‘xtamasdan bir tekis o‘tishi, bu - ...
- A. kantilena
  - B. legato
  - V. diafragma
  - G. ovoz rezonatori
13. Ijro tovushini tarbiyalashda ishni nimadan boshlash kerak?
- A. vokal undoshlarini shakllantirishdan
  - B. vokal tovushlarini to‘g‘ri talaffuz qilishdan
  - V. vokal unlilarini shakllantirishdan
  - G. so‘zlarni anik, to‘g‘ri talaffuz qilishdan
14. Registr tushunchasi bu...
- A. bir qator ketma-ket va bir turdagи ovozlardir
  - B. bir mexanizmni ichki to‘zilishi harakati orqali ishlab chiqilishidir.
  - V. ko‘kraklar va bosh rezonatorlarining ishlashidir
  - G. to‘g‘ri javob A va B

15. Ko'krak registri necha turga bo'linadi?

- A. uch turga
- B. ikki turga
- V. to'rt turga
- G. bir turga

16. Ijrochi yaxshi ijro qilishi uchun nimalarga e'tibor berishi kerak?

- A. o'z ovozini kuch bilan siqib chiqarmasligi
- B. o'z-o'zini eshitishi
- V. o'z-o'zini nazorat qilishi
- G. barcha javoblar to'g'ri

17. Ijro bu...

- A. tanaffuzsiz ovozning mantiqiy harakatidir
- B. nafas chiqarish (tovushli)dir
- V. nafas olish (tovushli)dir
- G. koordinastiya (ovozni to'g'rilash)dir

18. Havo o'tkazish bo'shlig'ida (burma usti va osti erida) tovushlar chidamliligi akustik o'zgarishlarga uchraydi, kuchayadi va bu bo'shliqlar nima deb ataladi?

- A. diafragma
- B. rezonator
- V. dikstiya
- G. ovoz registrlari

19. Tovush so'zlarini aniq talaffuz qilish bu - ... deyiladi.

- A. dikstiya
- B. rezonator
- V. diafragma
- G. registr

20. Ijrochi ijro qilayotganida...

- A. og'izni chiroqli ochishi kerak
- B. tilni to'g'ri qo'yishi kerak
- V. nafasi siqilmagan bo'lishi kerak
- G. yuzi erkin bo'lishi kerak

21. ... Bu ovoz apparatining bir qismi bo'lib, nutq tovushlarini shakllantiradi va uning tarkibiga kiruvchi artikulyastion apparat a`zolaridan biridir.

- A. dikstiya
- B. artikulyastion apparat
- V. rezonator
- G. registr

22. Quyidagilarning qaysi biri artikulyastion apparatga tegishlidir?

- A. yuz, lab, til
- B. tishlar, jag‘lar
- V. tanglay, xalqum, bo‘g‘iz
- G. barcha javoblar to‘g‘ri

23. Artikulyastion apparat ishining sharti bu...

- A. harakatchanlik
- B. tabiiylik
- V. faollik
- G. to‘g‘ri javob B va V

24. Mashqlar uchun ... juda yaxshi natija beradi

- A. tez aytishlar
- B. oynaga qarab mashq qilish
- V. she`r va parcha o‘qish
- G. ko‘proq nafas olish

25. Qo‘sinq aytishda esnoq...

- A. torayadi
- B. kengayadi
- V. cho‘ziladi
- G. to‘xtaydi

26. Inson a`zosidagi egiluvchan tana bu - ... deyiladi.

- A. tovush burmalari
- B. og‘iz muskuli
- V. manglay bo‘shlig‘i
- G. muskullar

27. «Ovozni tarbiyalashning boshlang‘ich davrida qo‘sinqchi shuni esda tutishi kerakki, ya`ni tovush bilan emas, balki aql bilan o‘rganish lozim, uni charchatib hech qanday vosita bilan ham yaxshi holatga keltira olmaysan. Aqli bosh omadli ishlarning kafolatidir, u shuningdek xuddi yaxshi tovushdek zarur». Yuqorida keltirilgan jumla qaysi pedagog-vokalist olimiga tegishli?

- A. M. Garsia
- B. P. Lukanin
- V. F. Lamperti
- G. S. Fuchito

28. Ijrochi qanday nafas olishi kerak?

- A. ko‘krak kafasi havo bilan to‘lib ochilishi
- B. elka tinch bo‘lishi
- V. qaddi-bastini to‘g‘ri tutishi

G. xamma javoblar to‘g‘ri

29. Ijro san`ati bu...

- A. nafas chiqarish san`ati
- B. nafas olish san`ati
- V. to‘g‘ri esnash san`ati
- G. to‘g‘ri ijro qilish san`ati

30. Nafas olganda qovurg‘alar qanday xolatga keladi?

- A. qovurg‘alar yon tomonga, qorin oldinga chiqadi
- B. qovurg‘alar ichki tomonga, qorin oldinga chiqadi
- V. qovurg‘alar yon tomonga, qorin ichkariga kiradi
- G. qovurg‘alar oldinga, qorin xam oldinga chiqadi

31. Nima bilan mashq qilish yaxshi natija beradi?

- A. sham bilan
- B. qush pati bilan (straus)
- V. ko‘zgu bilan
- G. barcha javoblar to‘g‘ri

32. Bitta notadagi barcha unlilarni toping.

- A. a, e, i, o, u
- B. a, d, m, n, u
- V. a, o, e, i, u
- G. to‘g‘ri javob A va V

33. Erkaklar ovozi necha turga bo‘linadi?

- A. oltita turga
- B. ettita turga
- V. beshta turga
- G. to‘rtta turga

34. Ayollar ovozi necha turga bo‘linadi?

- A. ettita turga
- B. beshta turga
- V. oltita turga
- G. to‘rtta turga

35. Ovozlar klassifikasiyasi necha xil bo‘ladi?

- A. ayollar, erkaklar ovozi
- B. ayollar, o‘smirlar ovozi
- V. erkaklar, o‘spirinlar ovozi
- G. ayollar, yosh bolalar ovozi

36. Nafasni to‘g‘ri sarflanishi bu - ...

A. nafas olganda haddan tashqari ko‘p olishlik va uni chiqarganda oxirigacha siqib chiqarish

B. nafas olganda haddan tashqari ko‘p olmaslik va uni chiqarganda oxirigacha siqib chiqarmaslik

V. nafas olganda o‘rtacha olish va uni oxirigacha siqib chiqarish

G. nafas olganda haddan tashqari ko‘p olishlik va uni o‘rtacha siqib chiqarish

37. Tana «vokal shaklini» saqlashida nimalarga e`tibor berishi kerak?

A. nafas chiqarish va yangi nafas olish o‘rtasida sukut saqlash

B. nafas chiqarish va yangi nafas olishda sukut saqlamasligi

V. nafas olish va ovoz boshlanishi o‘rtasida nafas chiqarishning bir zumda tutilishi

G. to‘g‘ri javob A va V

38. O‘zbek vokal san`ati namoyondalari kimlar?

A. H. Nosirova, S. Qobulova

B. N. Hoshimov, B. Zokirov

V. S. Yarashev, M. Razzaqova

G. barcha javoblar to‘g‘ri

39. Vokal san`ati qaysi yo‘nalishlardan iborat?

A. an`anaviy

B. mumtoz, maqom

V. akademik, estrada

G. to‘g‘ri javob A va V

40. «Ovozni to‘g‘ri qo‘yishni biladigan ijrochilarda aniq dikstiya, to‘liqlik, unlilar butunligi, xiqildoq chidamliligi kuzatiladi. SHu bilan birga yaxshi ovozga ega bo‘limgan ijrochilarda sof tovush bilan ijro to‘liq bo‘lmay, sifat darajasi past bo‘ladi. Ya`ni asosan xiqildoq ko‘p harakatlanishi kuzatiladi». Bu jumlalar quyidagi qaysi olimga tegishli?

A. M. Lebedev

B. F. Zasedatelev

V. A. Menabeni

G. E. Karuzo

### **Test savollarining javob kalitlari:**

1.Г	11.Г	21.Б	31.Г
2.Г	12.А	22.Г	32.А.В
3.Б	13.Б	23.А.В	33.А
4.А	14.Г	24.А	34.В
5.В	15.В	25.Б	35.А
6.А	16.Г	26.А	36.Б
7.Б	17.А	27.В	37.А.В.
8.Г	18.Б	28.Г	38.Г
9.Б	19.А	29.А	39.А.В
10.В	20.Г	30.А	40.А

### **Mustakil ish**

Uzbekistonda tanikli vokal ijrochilar bilan yakindan tanishish.

Talabalarda vokal ijrochiligi xakidagi bilim, kunikma va malakalarini orttirish.

Vokalning uziga xos xususiyatlarini e'tiborga olib ish kurish koidalarini egallash.

Talabalar bilan vokal ijro kilishda ovoz tarbiyasi va uni rivojlantirish koidalarini takrorlash.

Vokal mashkclarini, talaffuzini, registrlarini tekislash masalalarini xal etishni uzlashtirish.

Vokalda ovoz sozlash, ovoz xosil kilish, xamda talaffuz madaniyatini uzlashtirish ustida mashklar.

Vokalning maksad va vazifalari bilan tanishtirish.

Talabalarda vokalni boshka fanlar bilan uzaro boglikligi xakidagi bilim va kunikmalarini orttirish.

Vokal ijrochisining kanday kobiliyatga ega bulishi xakidagi tasavvurni talabalarda shakllantirish.

Ijrochiga tavsiya etilgan asarni xar tomonlama uzlashtirish.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. K.P.Vinogradov. Rabota nad diksii v xore. M., 1967
2. L.B.Dimitriev. Osnovi vokalnoy metodiki. «Muzika». M., 1968
3. A.S.Gusev, Yu.P.Sergeev. Anatomiya. «Meditina» nashriyoti. T., 1969
4. I.O.Brizgalov. Shkola peniya dlya baritona i basa. G'.G'ulom. T., 1987
5. Sh.Ro'ziev. Xorshunoslik. G'.G'ulom. T., 1987
6. N.Sharafieva. Xor sinfi. «Musiqa» nashriyoti. T., 2005
7. V.Axunov. Estradnoe penie. Tashkent. 2008
8. N.Ortiqmatov. Jamoa ijrochiligi va uslubiyoti. T., 2008
9. Q.Mirzaev. Bolalar xor jamoasi bilan ishlash uslubiyoti. T., 2009
10. Q.Mirzaev. Aralash xor jamoasi bilan ishlash uslubiyoti. T., 2009

## M U N D A R I J A

Kirish .....	3
Ovoz apparati haqida qisqacha ma'lumot .....	4
Ovoz (tovush) tashkil etilish jarayoni.....	8
Nafas olishning ichki tuzilishi .....	9
Ovoz apparati a'zolari(organi).....	18
Niqobdag'i ijro tushunchasi.....	20
Vokalda esnash .....	23
Ijroda xiqildoq (halqum) .....	24
Ovoz registrlari haqida .....	25
Ovozlarning klassifikatsiyasi.....	29
Ovoz bilan ishslashning keyingi bosqichlari .....	30
Rezonator nima?.....	31
Diksiya.....	32
Artikulyatsion apparat. Diksiya.....	33
Xulosa.....	38
Savollar .....	39
Test savollari.....	40
Mustaqil ish.....	46
Foydalanilgan adabiyotlar .....	47

**ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ МАДАНИЯТ  
ВА СПОРТ ИШЛАРИ ВАЗИРЛИГИ  
РЕСПУБЛИКА МЕТОДИКА ВА АХБОРОТ МАРКАЗИ  
АБДУЛЛА ҚОДИРИЙ НОМИДАГИ ТОШКЕНТ  
ДАВЛАТ МАДАНИЯТ ИНСТИТУТИ**

**ЭРКИН РАҲИМОВ**

**ВОКАЛ**

**Ўқув-методик қўлланма**

**Абдулла Қодирий номидаги Тошкент Давлат маданият институти илмий кенгашининг 2009 йил 26 ноябрдаги 4-рақамли йиғилишида муҳокама қилинди ва нашрга тавсия этилди.**

Ушбу ўқув-методик қўлланма вокал ижрочилигида овозни тўғри тарбиялаш, тўғри нафас олиш ва ундан фойдаланиш, тўғри товуш ҳосил қилиш, артикуляция аппарати ҳамда товуш ҳосил бўлишида шитирок этадиган барча органларни таништириши ва уларнинг фаолияти ҳақида маълумотлар беради.

“Вокал” ўқув-методик қўлланмаси маданият ва санъат олий ўқув юртлари бакалавр йўналиши талабалари учун мўлжалланган. Айни пайтда ўқув-методик қўлланмадан мусиқа, санъат, маданият ва педагогика институтлари талабалари ҳамда маданий-маърифий муассасалар қошида ташкил этилган жамоалар ҳам иш жараёнларида фойдаланишилари мумкин.

**Масъул мухаррир:**

**Носиров Р.Х.**

Абдулла Қодирий номидаги Тошкент Давлат Маданият институти профессори, филология фанлари номзоди

**Тақризчилар:**

**Мирзаев К.Т.**

Абдулла Қодирий номидаги Тошкент Давлат Маданият институти “Вокал ижрочилиги, мусиқа тарихи ва назарияси” кафедраси мудири, профессор

**Тўраев Ю.Ш.**

Ўзбекистон Давлат консерваторияси доценти, Ўзбекистонда хизмат кўрсатган артист

Изъянотот Ҳабиб  
га ахборот берадиган  
2009 йил 26-и  
2011 йил 26-и  
шешмисимдан курбанди  
хөзирин Гавесид  
26. XI. 2011  
Директор



## КИРИШ

Бутун инсоният тарихида инсонга берилган ижрочилик овози Аллоҳ томонидан берилган деб ҳисобланган. У ҳар доим илоҳий титроқни, ҳавасни ва уни эгаллаш ҳошиш истагини келтириб чиқарган. Ижрога нисбатан катта хурмат ва майший қизиқишлиарни ортиб бориши, вокал мактабларини ва янги овоз усууларининг ташкил топишига сабаб бўлди. Аммо талабчанлик мақсадига кўра уларни усул деб айтиб бўлмайди. Бу педагогик тарафдан шахсни вокални ҳис қилиш туйғуси орқали овозни йўлини топиш ҳаракатлари эди. Улардан ҳар бири ўз усулини ажойиб ижрочи сифатида таклиф қилган. Айни дамда эса гап ўқувчини ўқитиши эмас, балки табиатан унда бўлган овозининг имкониятларини мукаммаллаштириш ва унинг табиий сифатларини ривожлантириш ҳақида эди ва педагогик тарафдан қаралганда ижобий натижага ўқитувчи ва ўқувчининг вокални ўзаро жуда яқин сезиши орқали эришилади. Лекин бу ўқитишининг кўп қисми бўлиб, улар ўртасида курашни келтириб чиқаради ва турган гапки ўқитувчи ютиб чиқкан.

Хрестоматияга асосан мисол, Энрико Карузо ўзининг биргина ўқувчисини овозини ўзига ўхшашга мажбур қилиб жуда тез бузган. Карузо ўзининг феноменал вокал маълумотларини ўқувчига таклиф қилганда ўзининг табиатан оддий овози билан бундай юкни қўтара олмаган ва овози шикастланган. Бундай мудҳиш воқеалар ҳозирги вақтда ҳам содир бўлмокда. Савол туғилади: нима учун мусиқа педагогикасининг ҳеч бир соҳасида вокалдан ташқари шундай вазиятлар мавжуд эмаски, ўқитувчи ўқувчисини ўз касбига ўргатиши билмайди. Нафақат билмайди, балки унинг табиатан бўлган имкониятларига зарар қиласи. Жавоб битта: ўқитувчи буни қандай қилишни билмайди ва бу муаммони ўзича ечишга ҳаракат қиласи. Ўқувчи ўзида бор овоз билан бир амаллаб олдига қўйилган масалаларни ечиши мумкин. Акустика ва физиология фанларининг охирги ютуқларига асосан мураккаб механизмга эга бўлган овоз тузилиши мушакларини қўшиқ айтиш жараёнида аҳамиятга эга бўлиши учун уларнинг ҳар бирини машқ қилишдадир. Шундай қилиб овозни йўлга қўйиш қўшиқнинг ўзи ва мусиқа жўрлигига «яккаликка» чек қўйди. Ижрочилик санъати мустаҳкам илмий базага эга бўлиб, энди ижро қилишни бошлаётган ўқувчига нолдан бошлаб профессионал овоз ижрочиси бўлгунига қадар барча йўлларни очади.

Овозни ижро қилиш илмини яратиш масаласига катта ҳисса қўшган буюк олимлар: Юссон (Франция), Л.Б.Дмитриев (Россия), Д.Е.Огородников (Россия).

Юссон ва Л.Дмитриев масалани акустика ва физиологик томонларини ўрганганлар. Бундан асосий хуносат: бу бир турдаги вокал техникасини мавжудлигидир, яъни ҳамма ижрочилар технологик томондан бир хил айтадилар.

## ОВОЗ АППАРАТИ ҲАҚИДА ҚИСҚАЧА МАЪЛУМОТ


Овозни ташкил қилувчи барча аъзолар биргаликда **овоз аппаратини** ташкил қилади. Унинг ичига қуийдагилар киради:

- оғиз ва бурун бўшлиғи (қўшимча бўшлиқлари билан);
- хиқилдоқ (ҳалқум, бўғиз);
- товуш найчалари;
- томок,;
- трахея;
- бронх;
- ўпка;
- кўқрак қафаси;
- нафас олиш мускули;
- диафрагма;
- қорин бўшлиғи мускуллари.

Лекин булар ҳаммаси эмас. Товуш ташкил қилишда, шунингдек асаб системаси ҳам қатнашади. Бош мия асаблар марказини сезадиган ва қимирлайдиган асаблар билан бирга бу марказларни бошқа кўрсатиб ўтилган аъзо билан бирлаштиради. Миядан ҳаракатланувчи асаблар бўйлаб бу аъзоларга буйруқлар келади, сезувчи асаблар бўйича эса ишчи аъзоларнинг ҳолати ҳақида маълумотлар келади. Ишнинг асосий мақсади, товушни ташкил қилишда қатнашувчи аъзолар марказий асаб системаси буйруқларини, техник бажарувчилар бўлиб ҳисобланади. Товушни ташкил этувчи аъзоларнинг ишини марказий асаб системаси билан боғлиқ эмас деб қараш мумкин эмас. Асаб системаси товушни ташкил этувчи аъзоларнинг вазифасини биргаликда бошқариб қўшиқ ижро этиш жараёнини мураккаб психо-жисмоний ҳаракатга келтиради.

Товуш чиқарувчи аппарат:

- 1 – хиқилдоқ (ҳалқум, бўғиз);
- 2 – кекирдак;
- 3 – кекирдак тармоқлари;
- 4 – ўпка;
- 5 – диафрагма.



Эшитиш ва овознинг ўзаро боғлиқлиги икки томонлама бўлади. Товуш фақатгина эшитиш аъзоси орқали шакллана олмайди, лекин эшитиш ҳам товуш аъзоларининг иштирокисиз ривожлана олмайди. Эшитиш орқали қабул қилиш товуш аъзоларининг ҳаракатга келиши

орқали юзага келади. Бу сухбатни, мусиқани ёки қўшиқни эшитиш орқали «биз» ўз ичимизда гохида овоз чиқариб, уларни қайтариб ва сўнгра қабул қиласиз. Вокал малакасини шаклланиши ва ривожланишида ҳар вақт қатнашувчи аъзоларнинг туғилиши юз беради, ортиқчалари сидирилади ва

мукаммаллашади. Барча жараёнлар резонаторли, мускулли ва эшишишни ҳис қилиш назоратисиз бўлмайди.

Овоз аппаратининг аъзолари:

- **Хиқилдоқ** (ҳалқум, бўғиз) - бу овоз туғилиши юз берадиган аъзо бўлиб, у бўйин ўртасидан уни олд қисмида жойлашиб, ингичка йўлакни (трубкани) ўзида намоён қилиб, юқори тешиги томоқ бўшлиғида очилади. Пастки бўғиз қизил ўнгач томонигача давом этади. Хиқилдоқ (ҳалқум) уч вазифани бажаради: нафас олиш, химоя қилиш, товуш чиқариш. Унинг асосини мураккаб тузилишга эга бўлган кемирчак ташкил қиласи. У ўзаро бириккан бўғимлар орқали ҳаракатланадиган боғламлар, шунингдек юзасидан ва ичкарисидан мускуллар билан тўқилган. Хиқилдоқ (ҳалқум, бўғиз) нинг ички сирти бизни танамиздаги ҳамма оғиз бўшлиғи аъзолари каби шилемшиқ қават билан қопланган. Хиқилдоқ (ҳалқум)нинг энг катта кемирчаги - қалқонсимон бўлиб, хиқилдоқ (ҳалқум) кенглигини билдиради. Унинг устки тешиги ҳалқумга кириш деб аталиб, овал шаклида намоён бўлади. Нафас олишда ҳалқумга кириш йўли очик бўлади, ютишда эса ҳалқум усти эркин, атрофи орқага эгилиб, тешиги беркилади. Қўшиқ айтиш вақтида хиқилдоқ (ҳалқумга) кириш йўли қисилади ва унинг устини ёпади. Бу жараён қўшиқ товушини қимматли ва бадиий фазилатларини таркиб топишида, қўшиқ айтиш таянчидаги катта аҳамиятга эгадир. Агар хиқилдоқ (ҳалқумга) юқоридан қаралса икки томондан симметрия тарзида шилемшиқ қават билан қопланган, бири иккинчиси устидаги дўнгликни кўрсатади. Улар орасида унча катта бўлмаган симметрик чуқурлар (ковак), яъни қисиладиган ошқозон бўлади. Устки дўнгликлар ёлғон бурмалар деб аталади, пасткилари эса товуш бурмалари дейилади. Ёлғон бурмалар худди хиқилдоқ (ҳалқум) шилемшиқ қавати каби рангда бўлиб, улар ковак тўқималарини қўшилишида бурмаларни яқинлаштирадиган, кучсиз ривожланган мускуллардан ташкил топган. Безлар йўқ бўлган бурмаларни намлантиради. Бу вазифа асосан қўшиқда товуш (овоз) пайдо бўлишида жуда керак. Товуш бурмалари нафас олганда учбурчак шаклидаги (товуш ёриғи деб аталувчи) ёриқ (тешикни) ташкил қиласи. Товуш ташкил қилишда товуш бурмалари ўзаро яқинлашади ёки бирлашади ва товуш тешиги ёпилади. Товуш усти оч қизғиши (пушти рангли) мустаҳкам эластик тўқималар билан ёпилади. Улар ичидаги ташқи ва ички қалқонсимон мускуллар жойлашган бўлиб, ичкилари вокал мускуллари деб аталади. Мускулли толалар ички бурмалар четига параллел ва қийшиқ йўналишда жойлашади. Ушбу тузилиш туфайли товуш бурмалари кўплаб нафақат ўз узунлигини ўзgartириши мумкин, балки яна икки қисмга тебратади. Бу унинг барча кенглиги ва узунлиги бўлиб, қўшиқ айтишда товушни ранг - баранг бойитилишига сабаб бўлади. Товуш бурмалари хиқилдоқ (ҳалқум, бўғиз)ни икки кенгликка: яъни бурма усти ва бурма ости қисмларига ажратади. Ҳамма хиқилдоқ (ҳалқум) мускуллари ички ва ташқига бўлинади. Ички мускуллар товуш тешигини қисиб, товуш тузилишини намоён қиласи. Ташқи хиқилдоқ (ҳалқум) мускуллари юқорида ётган пастки

жағни тил ости билан бирлаштиради ва пастки қисмидан эса күкрак суяги билан бириктирилади. Бу мускуллар хиқилдоқ (халқумни) құттаради ва туширади, шунингдек уни тегишли юқориликда түплаб товуш ташкил қилиш учун керакли ҳолатга түғрилайды. Пастдан хиқилдоқ (халқум) нафас олиш томоғидан ёки қизилўнгачдан бевосита ўтади. Қизилўнгач кемирчаклардан иборат бўлиб, орқаси ёпилмаган узун карнай сифатида кўринади. Бу кемирчакли пластинкалар япалоқ кемирчаклар билан ўзаро боғланиб циркуляр ва узунасига мускуллар билан ўралгандир. Циркуляр мускуллар қисқараётib қизилўнгачнинг ёруғлигини беркитади, узунасига эса қисқарганда уни катталаштиради. Қизилўнгач икки катта бронхга бўлиниб: улар дараҳтга ўхшаб шохлаб, жуда майдалашиб кетади. Энг кичик бронхлар - бронхиола (газ алмашиш) содир бўладиган думалоқ шарчалар билан тугайди. Барча бронхиал дараҳтлар хиқилдоқ (халқум) нусхаси бўйича тузилган, фақат кемирчак узунлиги билан беркитилган. Хиқилдоқ (халқум) ва бронх мускуллари юмшоқ, текис нусхага тегишли бўлиб, бизнинг онгимизга бўйсунмайди, балки ўзи автоматик тарзда ишлайди. Нафас йўллари бронх калибрининг ўлчови бўйича кичрайишида кемирчак тўқимаси унда кичик бўлиб қолади ва мускулларда қисилади. Кичкина бронхлар нафас йўллари бутунлигича мускул тўқималаридан ташкил топади. Бу тузилиш кичик бронхларга очилиб – ёпилиш ролини ижро этишга рухсат беради. Товуш тузилиши вақтида ўпка тўқималаридан ўтадиган ҳавонинг ўтиши тартибга солинади. Барча бронхлар ўпка шарчалари билан иккита ўнг ва чап ўпкаларни ташкил қиласи, улар күкрак қафасида жойлашган күкрак бўшлиғи атрофидаги ҳаводан герметик тарзда ажратилган ҳолда жойлаштирилган бўлади. Кўкрак қафаси конуснинг кесилган шакли тарзида бўлади. У олдиндан кўкрак суяги билан орқадан эса кўкрак умуртқа поғонаси, яъни кўкрак қисмидан ташкил топган. Умуртқа поғонаси кўкрак суягининг ёйсимон қовурғалари билан бириккан, кўкрак қафаси асоси мускуллари билан ўралиб, улар нафас олишда қатнашади, бири нафас олишда қатнашиб кўкрак қафаси бўшлиғини кенгайтирса, бошқаси кўкрак мускуллари қовурғаларни тушириб, нафас чиқишни рўёбга чиқаради ва шу сабабли нафас чиқарувчилар дейилади. Кўкрак қафаси асосини диафрагма ёки кўкрак қорин тўсиқлари ташкил қиласи ва бу жуда кучли мускулли аъзо бўлиб ҳисобланади.


**Диафрагма** – пастки қовурғаларга ва умуртқа поғонасига бириккан иккита ўнг ва чап гумбазга эгадир. Нафас олиш вақтида диафрагма мускуллари қисқаради, унинг икки гумбази кўкрак қафаси ҳажмини кенгайтириб пастга тушади. Диафрагма қўндаланг йўл-йўл мускуллардан ташкил топган. Унинг ҳаракати бизнинг онгимизга умуман бўйсинмайди. Биз онгли равишда нафас олиб чиқаришни ушлашимиз мумкин. Лекин диафрагмани мураккаб ҳаракатлари товуш ташкил қилишда онгимиз остида содир бўлади. Диафрагма ҳаво ўтиш тезлигини ва овозлар ташкил бўлишида бурмалар тагидаги босимни ва уларни кучини ўзгаришини тартибга солади.

Товуш ости бурмаларида жойлашган бўшлиқлар:

- бурун;
- оғиз;
- томоқ;
- хиқилдоқ (ҳалқум) устки қисми устидан ўтадиган карнай.

Бу карнайнинг устки қисми – **бурун** бўшлиғидир. У буруннинг юмшоқ тўқималаридан ва бош суягининг сирти (юзи)дан тузилган бўлиб, бурун деворининг ўрта чизигидан вертикал чап ва ўнг ярмича орқа ва олдидан очилган. Бурун бўшлиғи деворларида кичик канал тешикчалари бўлиб, у бош суяги сиртида жойлашган ҳаво ўтиш бўшлиғи билан туташади ва улар ҳам худди бурун бўшлиғи каби шилимшиқ қатламлар билан қопланган ва бу бўшлиқ касалланганида йиринг билан тўлиши мумкин, бу эса қўшиқ айтганда овозни сифатига салбий таъсир кўрсатади.

**Ҳалқум** - (raguhn) мускулли кавак орган бўлиб, хиқилдоқ ва оғиз бўшлиқларининг орқасида жойлашган. Ҳалқум юқорида калла асосининг сукларига ёпишади, пастда эса қизилўнгачга ўтади. Ҳалқум бўшлиғининг учта қисмлари бор: бурунга қараган, оғиз ва хиқилдоқ. Ҳалқумнинг бурунга қараган қисми **хоаналар** ёрдамида бурун бўшлиғига, оғиз томондаги қисми томоқ воситасида оғиз бўшлиғига туташади. Ҳалқум бўшлиғи хиқилдоқ томондаги қисмida қизилўнгачга ўтади ва хиқилдоқ бўшлиғига туташади. Ҳалқумнинг бурун томондаги қисми бурун бўшлиғига тутшиш билангина қолмай, эшитув найи орқали ўрта қулоқ бўшлиғига ҳам туташади. Эшитув найларининг ҳалқумга очиладиган тешиклари ҳалқумнинг бурун томондаги қисмининг ён деворларида, буруннинг пастки чиғаноқлари рўпарасида воронкасимон чуқурчаларга ўхшаб ётади.



- 5 – тил;
- 6 – хиқилдоқ (ҳалқум);
- 7 – кекирдак;
- 8 – кичик тилча;
- 9 – хиқилдоқ (ҳалқум) қопқоғи.

Мускул пардаси кўндаланг-тарғил мускуллардан тузилган бўлиб, ҳалқумни қисувчи уч жуфт мускул ва ҳалқумни кўтарувчи икки жуфт мускулдан иборат.

**Расм 3.** Ўпка, бронх (нафас ўйлари), хиқилдоқ (ҳалқум) ва устки резонаторларнинг тузилиши (тасвири).


- 1 – ўпка;
- 2 – бронх, кекирдак тармоқлари;
- 3 – бронхиола;
- 4 – алвиола;

**Бурун** шилимшиқ қатлами қон томирлари ва безлар билан бойдир ва шунингдек туклар билан ҳам қопланган. Туклар нафас олганда бурундан

ўтаётган ҳавони иситади, юмшатади ва тозалайди. Бурун бўшлигини пастида **офиз бўшлиғи** жойлашган. Унинг ён деворлари лунж бўлиб, оғиз ичини тил тўлдиради, олди деворини эса лаблар ташкил қиласди. Лаб қалинлигига мускуллар бўлиб оғиз тешигини ҳосил қиласди ва уни шаклини ўзгартириб оғизни ёпиди. Оғиз бўшлиғи устки деворлари ясси суж парчасидан тузилган бўлиб, у оғиз бўшлиғини бурун бўшлиғидан ажратиб туради. Бу қаттиқ танглай деб аталиб орқа тарафдан юмшоқ танглайга ўтади ва танглай пардаси дейилади. Орқа оғиз бўшлиғида эркин осилиб турадиган юмшоқ танглай чети ўртасида дўнглиги бўлиб унинг кичик тилчаси бор (у факат одамда бўлади). Юмшоқ танглайнинг иккита тарқалган симметрик бурмали шилимшиқ қатлами бурчак остида пастга томон икки томонга тарқалади. Бу бурмалар-олдинги ва орқа ёйча дейилади. Ёйча қалинлигидан мускуллар ўтади ва улар юмшоқ танглайни тил ва хиқилдоқ (ҳалқум) билан бирлаштиради. Юмшоқ танглай сезувчан асабларга яхши мослашган. Танглай қалинлигига жойлашган мускуллар қисқарган вақтда кўтарилиб, уни тортади. Қаттиқ ва юмшоқ танглай олд тишлар билан бирга маълумотни ташкил қиласди. Орқадан оғиз чаноқ бўшлиғи кенг ёриқ пайдо қилиб (унинг ўрта қисмича) эсноқ бўғизга очилади. Тепадан эсноқ юмшоқ чаноқ билан, ён томондан чаноқ ёйчаси билан, пастидан тил суюнчиғи билан чекланган ва эсноқ қисилиши, кенгайиши мумкин. Унинг қисилиши (сиқилиши) мускуллар қисқариши натижасида содир бўлади. Кўшиқ айтишда эсноқ кенгаяди, бу юмшоқ чаноқнинг кўтарилишида ва тилни тутишида содир бўлиб, у кўшиқ айтишда кузатилади. Бўғиз ўзида мускулли карнайни кўрсатади, унинг юқорига кенгайган бўлими кўр-кўронга бош суяги маълумоти остида тўхтайди. Бўғизда алоҳида безли тўпламлар бўлиб улар майда қон томирлари тўқималари дейилади ва улар бодомни ташкил қиласди. Улардан кўпроқ аҳамиятлироғи: - хиқилдоқ (ҳалқум) бодомлари (бўғиз юқори деворида ётади) ва – бодомлар (улар олд ва орқа чаноқ ёйчасида жойлашган). Бодомлар ҳимоя қилиш вазифасини бажаради, уларда бўғизга туташадиган кўзга кўринмайдиган жуда кичик организмлар (микроблар) ушланиб қолинади. Бодомларнинг ўткир яллиғланиши ўткир тонзилит ёки томоқ оғриғи дейилади. Бодомларнинг аҳамиятли катталashiши бўғиз бўшлиғини кичрайтиради, кўшиқ айтиш овозини ташкил бўлишига салбий таъсир қиласди. Бўғиз (ҳалқум) деворларини кучли мускуллар ташкил қилиб улар цирқуляр ва узунасига йуналишда бўлади. Булар натижасида ҳалқум (бўғиз) кенгайиши ва кичрайиши, турли қисмларда сиқилиши мумкин (пастки, ўрта, устки) ва шу билан бирга қўп марта ўз шакли ва ҳажмини резонатор хусусиятларини ўзгартириши мумкин. Ҳалқум (бўғиз) мускуллари бутунлай бизни онгимизга бўйсунади.

## ОВОЗ (ТОВУШ) ТАШКИЛ ЭТИЛИШ ЖАРАЁНИ


Ҳар қандай әгилувчан гавда тебраниш вақтида атрофидаги ҳаво қисмларини ҳаракатга келтиради. Бўлардан овоз (товуш) тўлқинлари ташкил бўлади. Бу тўлқинлар кенгликда тарқалиб бизнинг қулоқларимизга товушдек эшитилади. Шундай қилиб бизни атрофимизни ўраб турган табиатда товуш (овоз) ҳосил бўлади. Инсон аъзоларида шундай әгилувчан тана бўлиб товуш бурмалари ҳисобланади. Сўзлашув ва қўшиқ айтиш товуши овоз бурмалари тебранишида ва нафас олишда уларни ўзаро бир-бирига таъсирида ҳосил бўлади. Инсоннинг ўз ҳоҳиши билан қўшиқ айтишида унинг барча овоз аппарати қисмлари бу ҳаракатни бажаришга тайёргарлиги ҳолатига келади. Қўшиқ айтиш жараёни нафас олишдан бошланади. Ҳаво оғиз бўшлиғи ва бурун бўшлиғидан, ҳалқумдан, бўғиздан, трахеядан, бронхлардан ўпкага киришда кенгайиши вақтида ўтаётгандан сўнг асаб системасида, хабарларнинг таъсири остида ёпик товуш ёриклари ҳосил бўлади ва бу нафас чиқариш вақтига тўғри келади. Ёпилган товуш бурмалари ҳаво чиқариш йўлини тўсади, эркин нафас чиқаришга ҳалақит беради. Нафас олганда йиғилган бурма ости кенглигидаги ҳаво нафас чиқариш мускуллари таъсири остида сиқилади.



**Расм-4.** 1 – манглай бўшлиғи;  
2 – панжарасимон лабиринт;  
3 – гайморит бўшлиғи;  
4 – бурун бўшлиғи тешигини устки бўлими.

Ҳеч качон унутмаслик керакки, инсонлар аъзоларининг хусусиятлари индивидуал (якка) анатомик, физиологик ва психологик бўлиб ва шу ерда ҳар бир шахс якка ёндашиши шартдир, шунингдек ҳар бир овозни эшитилиши қайтарилмаслиги, тембри, кучи, чидамлилиги ва бошқа сифатлари бўлиши учун шартдир.

## НАФАС ОЛИШНИНГ ИЧКИ ТУЗИЛИШИ



Ҳар доим катта педагог-вокалист Ф.Лампертининг қуидаги гапларини унутмаслик керак: “Овозни тарбиялашда бошланғич даврда қўшиқчи шуни эсда тутиши керакки, яъни товуш билан эмас балки ақл билан ўрганиш лозим, уни чарчатиб ҳеч қандай восита билан ҳам яхши ҳолатга келтира олмайсан. Ақлли бош-омадли ишларнинг кафолатидир, у шунингдек худди яхши товушдек зарур».

Ижро асосининг пойдевори - бу нафас. Яхши ижро - бу нафас чиқариш усталиги бўлиб, худди усталик билан нафас чиқариш учун нафас олишни ўрганиш керак. Нафасда жумлани айтиш ёки ижро қилиш учун етарли ҳаво ҳажми бўлиши даркор, у аста-секин боғламлардан оқим бўйлаб ўтиб, томоқ оқимлари бўйича камончадек товуш бизнинг асаб толаларимизни товуш чиқаришга мажбур қиласди. Албатта бу жуда қаттиқ талаб қилинган тасвир, аммо бу ерда асосий фикр бу товуш ташкил қилиш жараёнида нафас олишни ўта зарурлигини кўрсатади. Ижрода нафас олиш - жуда илғор аниқ мақсадга йўналтирилган мустаҳкам тугунчага ўхшаб йиғилган камонча бўлиши керак.

Нафас олиш уч хил бўлади: - **сарпардали, кўкракли, кўкрак коринли.**

**Сарпардали** нафас олиш жуда усткидир. Бундай нафас олишда инсоннинг елкалари кўтарилади «силтанади». Сарпарда (бу ташқи кўриниш) ҳаво фақат ўпка устки қисмидан кўкрак қафасини умуман қимирантасдан ўтади. Бу нафас олиш умуман ижрога тўғри келмайди. Ижроши шундай нафас олиши шартки, бунда кўкрак қафаси ҳаво билан тўлиб очилиши, елка эса тинч бўлиши, қадди басти тўғри бўлиши керак. Тасаввур қилингки, олдингизда ёқилган шам уни сиз пуфлаб ўчиришингиз керак. Сиз нима қиласиз? Ҳеч ким бу муаммо устида бош қотиришни ҳаттоқи ўйламайди ҳам, хотиржам ҳавони йиғиб (ютиб) оловга пуфлайди. Тўғри энди буни яна бир марта қайтаринг ва ўз ҳаракатларингизни кузатинг. Ҳаво кўкрак (ўпкани) тўлдиради кейин эса йўналган оқим бўйича ташқарига чиқарилади. Бу

жараён содир бўлиши шарт. Сиз гапираётганингизда ёки қўшиқ айтаётганингизда, яъни ҳар янги жумлада олдин нафас оласиз, кейин йўналган нафас чиқарасиз.

Биз айтиб ўтдикки, қовурғалар кўкрак қафасини ташкил қиласди, унда юрак, ўпка жойлашган. Ўпкалар ҳаво билан тўлганда (нафас олганда) улар катта ҳажмга эга бўлиб қовурғаларни икки томонга суради - булар **қовурғали, кўкракли** нафас олишдир.

Машҳур педагог И.П.Пряничков: ўпкага ҳаво йиғишни ўрганиш хақида маслаҳат беради. Келинглар шунга нафас олиш аппаратини мустаҳкамловчи ва пишитадиган оддий нафас олиш машқлари ёрдамида ўрганишни бошлаймиз:

**1-машқ.** Кўл кафтларини қовурғаларга қўйинг. Ён томонларга панжалар билан кўкрак марказига ва чуқур киндиккача нафас олинг. Елкаларни кўтарманг. Сизнинг қўлларингиз ҳавони кўкракка ўпкага шиддат билан кириш ўрнини тарқалишини сезади. Бу сизни тўғри ҳаво ҳажмини олганлигини билдиради. Нафас олишни ташлаб нафас чиқаринг. Қўлларингиз қовурғаларни қандай тушганлигини сезиши керак.

**2-машқ.** Олдин тилингизни олдинги устки тишларингиз илдизи ёнидан ўтказинг. Тишлардан (қаттиқ танглай) орқага келади. Бу ерни (сезинг) ҳис қилинг. Олдинги сўйлоқ тишлар илдизи қаттиқ танглайдир. Энди нафас олишда қўллар билан қовурғаларни назорат қилиб, кираётган ҳаво ҳажмини ҳис қиламиз. Нафас чиқараётганимизда аниқ баланд овоз билан санаймиз: 1-2-3-4 ва ҳакозо. Бу билан тилимиз билан теккан сўйлоқ тишлар илдизини (ҳис қилишга) сезишига ҳаракат қиламиз. Бу доирага биз нафас чиқариш оқимини йўналтирамиз ва бу ерда бизнинг гапимиз эшитилади. Бунда сизнинг тасавурингиз ёрдам бериши керак. Фараз қилайликки, қаттиқ танглай - жуда юқори гумбаздек, худди соябон ёки парашют томидек. Бундай гаплар назоратдаги нафас чиқариш ва нафас олишдаги қўйилган талаблар дейилади. Ўлчов билан ҳаво сарфланаётганида қовурғаларни ҳеч қандай силкинмасдан оҳиста тугаётганини кузатинг. Бу ҳавони ўпкадан оҳиста чиқишидир. Буюк педагог М.Гарсиа айтгандики, яъни кўкрак овозни ҳаво билан тўйдиришдан бошқа иш қилмайди. Барча нафас олиш машқлари бу бўлимда «алифбодек» жуда оддий, ҳатто қадимийдир. Эсланг қандай қилиб ёш болалар ҳаётда биринчи қадамини дадил бошлайди, қачонлардир ердан узилган, ерда чаққон эмаклаган ҳолда уларни юришга ўргатиш учун қанча сабр ва вақт керак. Ажратилган мускулларни, товуш нафас олиш учун профессионал тузишда, уларни ишлаб чиқиши ва машқ қилдириш керак. Жуда кўп учрайдики, инсон бу машқларда ҳеч қандай янги ҳис туйғуларни топмайди. Бундан кўриниб турибдики, инсоннинг табиати бунга мослашган ва бу мускуллар ишланиб бўлган. Бу босқичда тўхтаб қолмай яна илгарига юриш мумкин. Айрим ҳолларда табиат инсонларга нафас олиш, товушни тўғри чиқаришни беради, лекин бундай вазиятлар камдан кам учрайди. Агар машқлар давомида сезги туйғуларингиз янги бўлса, уларни оддийлигидан деб ўйламанг, улар биз қураётган бино бўлади. Мен сизларга машқлар давомида

нафас олишни назорат қилишни ва кейин ижро вақтида қўл кафтларини пастки қовурғаларда ушлашингизни тавсия қиласан. Диққат қилинг: тўғри нафас олганда пастки қовурғалар нафақат ён томондан, балки орқа қадди қоматдан ҳам йирилиб очилади. Қовурғаларнинг худди шу йирилиб очилиши тўғри нафас олишни кўрсатади.

**3-машқ.** Жуда тез чуқур ва тезликда бурун орқали нафас олинг (пастки қовурғалардан) бунда елкалар қўтарилемаслигига эътибор беринг. Тезликда фаол оғиздан нафас чиқаринг. Бу машқ нимаси билан ажойиб? У нафас аппаратини жуда фаол қиласади. Сиз жуда фаол онгли равишда назорат қилган ҳолда нафас оласиз. Педагог Луканин уни тил ва ҳалқумнинг тўғри ҳолатини (белгилаш) ўрнатиш учун тавсия қиласади. Бу фаол ҳаво оқимини яхши боғлиқлигидир. Сиз дарсга бораётганингизда бу машқларни бир неча маротаба такрорлаб кўринг, шунда сиз машғулотга кучли тайёргарлик кўргандек кирасиз, яъни бу машқлар нафақат аппаратни фаоллаштиради, яна у бор овоз тузилиш усулига диққатни тортади.

**4-машқ.** Оғиздан фаол нафас оласиз, нафас чиқаришда ДА-ДЕ-ДО бўғинини айтасиз, (олдинги тишлилар илдизини ҳис қилган ҳолда иккита олдинги тишлилар орасини чертишдек товуш орқали айтамиз). Тил юқори сўйлоқ тишилар илдизини ёнидаги қаттиқ танглайга тегади, пастки жағ эркин ҳаракатланади, лекин тушмайди. Тасаввурингизни йўналтиринг: Сизнинг қаттиқ танглайнингиз гўё гумбаздек. Шунинг учун «А» товуши (ДА-бўғинида) кенг хонада гапираётган инсон овозидек жуда кенг, чиройли чиқади. Нафас олишни текис, ҳеч қандай силкинишсиз бўлишини кузатинг.

**5-машқ.** Ўзингизга қулай қаддингизни ростлаб орқага ётинг бир қўлни қовурғалар устига, иккинчисини қорин устига қўйинг, чуқур нафас олинг. Қўллар қовурғаларни йирилиб очилишини ҳис қилиши керак. Ўпкалар ҳаво билан тўлдирилган, қорин текисланади ўпка диафрагмани итаради. У бўлса қоринни эзади. Нафас чиқаришда 1-2-3-4 ва ҳакозо саноқ сонларни шошилмасдан давом эттиринг. Ҳавони охиргача сиқиб ташлаш керак эмас. Бир текис оҳангда бир мақомда сананг. Овоз (товуш) бир вазнда ва ёқимли, бу машқда энг асосийси - нафас олишдир (бутунлай нафас олиш ва бир текис давомли нафас чиқариш). Товушларни худди тўртинчи машқдагидек ҳис қилиш.

**6-машқ.** Машқларни озроқ мураккаблаштирамиз (ҳаммаси бешинчи машқдагидек). Қаддини ростлаб ётилган ҳолат: нафас олиш ва нафас чиқаришни назорат қилинг, бир вазнли товушда сананг. Саноқни икки белгили сонлар билан олиб боринг: 21-22-23-24 ва ҳакозо. Асосийси саноқни давомлилиги эмас, балки нафас олиш сифати ва нафас чиқаришни бир текислигидир.

**7-машқ.** Оғиз билан чуқур нафас олиб, нафасни бурундан овоз чиқариб олинг, яъни тез ва чаққон кўкракда ҳаво кенглиги тушсин. Бу товуш чиқариш «ихраш» нафас чиқарганда катта ҳайвонни далада нафас олишига қиёслаш мумкин бўлсин (сигир, от) мараш эмас, нафас чиқариш ихраш бўлсин. Ёки ўзингиз фараз қилинг: кўкрак бу катта идиш бўлиб, унга сизнинг

ихрашингиз киради. Ихраш товушини устки (тепа) тишларга суюнг, бунда лабларингизда қитиқлаш ҳис туйғуси пайдо бўлиши керак, бўғиз катта ва эркин. Нима сабабдан сигирга ўхшатиш сизга ғайри-табиий туюлаётгандир, чунки сигирнинг ён томонлари катта ва нафас чиқариши жуда бақувват. Табиатда биз ҳайвонлардек эркинликни ва табиийликни ўрганишимиз керак, уларни инсонлар йўқотишган. Бу машқда сизнинг ихраш товушингиз ўзингиз учун қулай, қаердадир регистрнинг пастки қисмида бошланиши керак..

**8-машқ.** Оғиз билан чуқур нафас олиб, нафас чиқаришда узун чўзиб «М» бўғинини айтинг. Лаблар юзи юмилган, қисилмаган бўлиш керак. Кўллар нафас олишни кузатади. Товуш кўкракда эшитилиши керак. «М» товушини «И», «В», «З»га алмаштиринг. Шароитлар ва талаблар худди «М» товуши каби бўлиши керак.

**9-машқ.** Тўққизинчи машқни мураккаблаштирамиз. Иккита бўғинни айтамиз. Иккинчисига урғу берамиз, яъни иккинчи бўғин унлисини чўзамиз, эшитамиз. «МА», «МА» ҳар вақт ҳис қилишни тўғрилигини текширамиз, нафас олишни назорат қиласмиз. Ўзингизни товушингизни давомийлигини эшитинг, у сизнинг қоматингиздаги кенгликтини тўлдиради, қаттиқ танглай (бошдан) пастки қовургаларгача катта кенг очилган томоқдан ўтаётиб (худди хумдан сув оққандек). Бўғинларни шошилмасдан айтинг. Бўғинлар орасида тўхталиш қилмаслик, нафасни у тугагандан кейин олиш, бўғинлар алмашиши, унлиларни алмашиши, товуш ранг-баранглигини, унинг ҳажми ва кучини ўзгартирмаслигини кузатинг.

Vocals

1 Ma-ma, Na-na, Va-va, Za-za Ma- ma, Na -na, Va -va, Za -za.

7 Ma-mo, na-no, va-bo, za-zo. Ma-mo, na-no, va-bo, za-zo. Ma-mo, na-no, va-bo, za-zo.

13 Ma-mi, na-ni, va-vi, za-zi. Ma-mi, Na-ni, Va-vi, Za-zi. Ma-mi, Na-ni, Va-vi, Za-zi.

19 Ma-mu, Na-nu, Va-by, Za-zu. Ma-mu, Na-nu, Va-by, Za-zu. Ma-mu, Na-nu, Va-by, Za-zu.

25 Ma - mэ, Na --- nэ, Va ---- vэ, Za ----- zэ.

Бу машқ нафас олиш давомийлигини ривожлантириб, ҳаракатдаги товушни эшитиш имкониятини беради, бу машқни турли унлиларни битта шаклда текис эшитилиши учун бажариш шартдир. Машқ тепа ва пастки товуш суюнчиғини сезишга, уни устини (гумбазини) унинг пойдевори-кўкрак диафрагмани ҳис қилишга ёрдамлашади.

**10-машқ.** Ҳаёлан шамни ўчириш керак. Қўл кафтларини қовурғаларингизга қўйинг. Нафас олиб «шамни пуфлашни бошланг». Эътибор беринг қандай қилиб табиат сизни ҳаракатингизни қузатиб тўғриламокда. Ҳаво ўпкадан аста секин ва бир текисда чиқади, қовурғалар кўз очиб юмгунча пастга тушмайди, пасайиши эса аста-секин ўлчам бўйича. Худди шундай нафас чиқаришдаги табиийлик ижрода бўлиб, олинган ҳаво бутун жумла бўйича жойлашиши керак. Бу машқ ижродаги нафас олиш жараёнида жуда фойдали. Буни кўп марта шошилмасдан дикқат билан қисилмасдан бажаринг. Бир хил пайтларда уни ижро вақтида ўз ҳис туйғусини тўғрилигини текшириш учун қилиш мумкин.

**Яна асосий вазифа:** Сиз шамни пуфлашни бошлаганингизда шунга эътибор берингки, яъни нафас олиш ва нафас чиқариш вақтида (пуфлашни бошлагандан) секундли тўхташ содир бўлади - нафас олишдан нафас чиқаришга ўтилади. Озгина тўхталиш бутунлай тўхташ ва қисилиш эмас. Мана шу кичкинагина тўхталиш жуда муҳимдир. Асосийси бу бир сониялик ва табиий қилиниши сизни нафас олишингиздан нафас чиқаришингизда ва ижрода ҳам худди шундай аниқ бўлиши керак.

Энди лабларингизга дикқат қилиб, кўзгуга каранг. Сиз шамга пуфляпсиз, сизнинг лабларингиз худди шундай фаоллашиши керакки, яъни ҳавони ўтказишида ва оқимни йўналтиришида тепа лаб айникса ҳаракатни содир қилиши шарт: шамни пуфлаб ўчиришда юздаги ҳаракатлар бунда ўзгармаслиги, ҳунуклашмаслиги, табиийликни йўқотмаслиги керак. Лаблар фаол, лекин қисилмаган бўлиши керак. Лаблар асосий табиийликда ва ҳеч қандай ёпиқсиз бўлиши керак. Кўзгу бунда катта ёрдамчидир. Ижрода бундай майда жараёнларни саклаш жуда муҳимдир. Малакага эришиш ва нафас олишда эркинликка эришиш учун кўпроқ шу машқларни такрорлаб туринг. Айтишадики: **«Ижро санъати бу нафас чиқариш санъатидир»** - биз буни аста секин эгаллашимиз керак. Барча ушбу оддий машқлар **кўкрак (қовурға)** нафас йўлини ривожлантиради. Бу машқлардан олинган кўникма (малака)лар содда вокал машқлари билан мустаҳкамланади, аникрофи вокал машқларига ўтади. Сиз қовурғанинг нафас олишида тенг ҳис-туйғуларга эришсангиз, шундагина диафрагмали нафас олиш ва уни амалиёти ҳақида сўз юритишингиз мумкин.

Диафрагмали нафас олиш - бу инсон аъзосидаги энг кучли мускулдир ва бизнинг мураккаб аъзоимиздаги бу машинанинг ишидаги белгиларини юқори баҳолашимиз мумкин эмас. Масалан: диафрагмани - (медицинада) ишловчилар: венозли юрак, энг катта қон томирли юрак деб атайдилар. Қон айланишида у жуда кўп ўринга эга бўлиб, кўкрак ва қорин бўшлигини ажратади, юракни ва ўпкаларни кутилмаган зиён ва шикастлардан ҳимоя қиласди (масалан - инсон боши устида турса). Биз айтганимиздек, ўпкага ҳаво кирган вақтида кўкрак қафаси икки томонга қовурғалар ҳисобига йириб очилади. Диафрагма гумбази катталашган ўпкалар босими орқали қисқаради ва туташади. Ўз навбатида қисқарган диафрагма қорин бўшлифи ичидагиларни устидан эзади ва шунинг учун қорин нафас олгандага

чиқади. Шундан келиб чиқадики, нафас олганда қовурғалар ён томонга, қорин олдинга чиқади.

Ижрочи нафас олинишини рўёбга чиқариш учун қаддини тўғри тутиш шартдир. Бунда орка кўриниши - қадди басти, яъни умуртқа пофонаси бел қисми яхши эгилган ва диафрагма ўзининг хилпираб турадиган мускулли боғламлари юкори бел умуртка пофонасига бирикади. Бел қисми диафрагма уни қисқаришида худди маҳкам тутқич бўлиб хисобланади, шунинг учун бел умуртқа пофоналари яхши мустаҳкам бўлиши керак.

Ижро нафаснинг энг мураккаб вазифаси бўлиб, назорат қиладиган ва тўғрилайдиган нафас чиқаришdir, бу диафрагмали нафасни эгаллашни таъминлайди, нафас чиқаргандаги ҳаво оқимини тўғрилаб, кўкрак қафасини ижро ҳажмини сақлашни тўғри жойлади. Ижро - бу нафас чиқариш маҳоратидир, лекин ҳамма проффесионаллар ҳам бу маҳоратга эга эмас. Бошида ҳамма нафасни биринчи товуш жумласиданоқ танламасликка ўрганса яхши бўларди, яъни уни охиригача аста-секин текис оқим бериб жойлаштирса, у текис товушни таъминлайди. Биз яна бир бор шам пуллаш машқига қайтамиз, лекин бу гал қўл билан нафасни назорат қиламиз:

**1-машқ.** Иккала қўлингизни қовурғалар устига қўйинг, ўпкангизга ҳаво йиғинг ва шамга пулланг, диафрагма қандай ҳаракат қилаётганини кўринг. Сиз уни худди цилиндр ичидаги поршендек ҳис қилишингиз керак. Ҳавони ушлаб уни дарров нафас чиқаришдаги отилиб чиқишига йўл қўйманг. Қўлингиз билан тезлаштиришга ёрдам беринг (ҳавони чиқаришни фаоллаштиринг) бунда қорин пастки мускуллари итарилади. Эътиборингизни шунга қаратинг: Яъни қорин аста секин қўтарилимоқда, қўкрак қафаси эса тушмаяпти, у ўралган ҳолда худди нафас олгандаги ҳолда қолган. Диафрагма нафас олганда тўғриланган. Нафас чиқарганда тез ўз шаклини ўзгартирмайди, балки жуда секин ўзининг биринчи кўринишига, гумбазсимон ҳолатига қайтади. Худди шу жараён ижрода нафас чиқариш жараёнини рўёбга чиқаришга ёрдам беради. Ижро вақтида кўкрак қафаси жуда тез пастга тушиши мумкин эмас. Ижрода нафас чиқаришда кетма-кет ҳаво чикади, кўкрак қафаси ҳажми тушмайди. Энди шамни пуллаб ўчиришда олган сезгиларингизни товуш билан кайтаринг, яъни нафас чиқараётганингизда “У” товушини куйланг ва уни маълум муддат чўзиб туринг. Қўлларингиз билан нафас чиқариш механизмини қузатинг. Ижро вақтида қорин кимирламаслигига эътибор беринг, яъни қорин қимирламасин ва шишиб олдинга чиқмасин (тарвузга ўхшаб қолмаслиги керак).

Биз айтиб ўтганимиздек ўпкага хаво кирганда кўкрак қафаси қовурғалар туфайли икки томонга йирилиб, пастьдан эса диафрагма туфайли очилади. Диафрагма гумбази қисқаради ва кенгайган ўпка босими орқали тушади. Ўз навбатида қисқарган диафрагма қорин бўшлиғи ичидагиларни юқоридан эзади ва шунинг учун қорин нафас олиш вақтида олдинга шишиб чиқиб қолади. Шундан келиб чиқадики, нафас олганда қовурғалар ёнга қорин эса олдинга чиқади. Қорин мускуллари ва диафрагма ижрова нафас чиқаришни тўғри тартибга солишга ёрдам беради, кўкрак резонаторлари эса

(күкрак қафаси) ўз шаклини товуш эшитилишида ўзгартирмай уни ҳажмли, кучли қилади. Худди шу вокалда сүянчик бўлади, диафрагмага ва кўкрак резонаторларига кўкракни ишлатган ҳолда яхши дикқат қилганда, ўкувчилар анча тез диафрагмали нафас механизмини тушунадилар. Вокал вазифалари, машқлари, асарлари бу босқичда ўқитилиши оддий бўлиши керак. Ўкувчи дикқати олдида пайдо бўладиган вазифа ва қийинчиликларни енгиб бориши керак. Диафрагмали нафас олиш техникасини эгаллаш ижрода нафас равон йигилган оқим бўйича мустаҳкам секин чиқарилишини узилмаслиги, тезлик яхши шиддат билан бўлишига ёрдам беради ва бундан товуш текис ва жарангдор бўлади. Аста-секинлик билан ҳаво берилиши уни жарангдор овозли тўлқинларга айланишини таъминлайди. Нафасни шундай ишлатишни билиш, у ҳеч қандай қолдиқсиз товушга айланишини, ижрода нафас чиқаришни моҳирона эгалланганлигини аниқлайди. Ўқитилмаган ижро чилар нафас олганда кўпинча анча кўп ҳаво ютиб, уни биринчи мусиқали жумла товушидаёқ сарф қиладилар. С.Фучитонинг гувоҳлигича буюк қўшиқчи Э.Карузо доимо нафасини маҳсус машқлар билан чиниктирган, ҳавони сарфлашда назоратни юқори малакага етгунича кучайтирган. Ламперти нафасни машқ қилдирганда бир текисликни ва кам сарфланишини тавсия қилган. Нафас чиқаришни назорат қилишда ижро чига қўйидагича тавсия қилган. Оғиз олдига ёқилган шамни қўйинг, агар товуш чиқарганда олов қимирламаса (ҳеч қандай ҳаракатга келмаса), демак, нафас чиқариш жуда тўғри ишлатилмоқда. Худди шундай тажрибани машхур рус тенори Д.Смирнов ҳам ишлаб кўрган. Шам ўрнига у страус патини олган ва уни ижро вақтида оғзидан 20 см масофада ушлаган. Товушсиз ижро нафасини ривожлантириш мумкин эмас ва унинг тескариси. Бизнинг юқорида қилган барча машқларимиз тайёрлов машқларидир. Улар мускулларни мустаҳкамлаб, ривожлантиради, профессионал нафас олиш механизми ҳақида тасаввур бўлади. Педагог М.Э.Тессиер ижро чиларда нафас чиқариш жараёнини фаввора томчилари билан таққослаган, яъни у ўзининг доимий оқими натижасида енгил коптокни ушлаб туриши мумкин, яъни копток доимий сув отилиб чиқиши вақтида тушиб кетмайди. Худди шундай товуш ҳам ҳеч тушмаслиги керак, чунки тўхтовсиз нафаснинг отилиб чиқиши уни ушлаб туради. Агар жумла катта бўлса, унда сиз қорнингизни пастдан сиқасиз, бу ҳаракат билан нафас қолдиқлари берилади ва сиз жумлани охиригача олиб боришингиз мумкин.

Е.Т.Петренко мана шундай ёзади: Бошловчига ижрода нафас олишни кўрсатиш анча осонроқ. Айрим қўшиқчилар сўзларининг охирги жумлаларигача нафасда айтишни нималигини тушунмайдилар, бошланғич босқичдагилари эса нафасни жумлаларини охиригача қандай ушлашни билмайдилар ва барча товушларни сүянчикда айтмайдилар. Вокал машқлари нафас чиқариш малакасини ошириш учун жуда оддий, секин темпда бўлиши керак. Уларни текис товуш кучи билан айтиш керак ва бу ишда ўз-ўзини назорат қилиш ва эшитиш муҳимdir.

Ўзингизча қўлларингиз билан ушбу барча жараёнларни тўғрилигини

назорат қилишга ёрдам беринг. Бизнинг оддий нафас олиш машқларимизни вокал машқлари билан галма-гал бажаринг. Аниқ ва янги ҳистайғуларингизни йўқотмаслик учун шуни эсда тутингки, товушни охирлатиб ўқувчи кўкракни тез пастга тушириб ҳаво қолдиғини чиқариб юбориши мумкин эмас ёки нафас олиш қисмида бўшашишга йўл қўймаслик (диафрагма), вокал шакли механизми бўлган гавдани тўғри, тик ҳолда сақлаш керак. Бундай вокал шаклини сақлаш назорати ва ишлаб чиқилган техника сарф қилинган нафасни тўхташида тўлдирилиши ёки жумлалар ўртасида текис профессионал товушни кафолатидир.

Ижро жараёнида артикульация аппаратидан тўғри фойдаланиш жуда муҳим омил бўлиб ҳисобланади. Биз педагог А.Г.Менабенининг гапларини келтирамиз: мусиқали жумлаларни тугаганидан кейин товушни жаранглиги кўкрак қафасини жойлашишида айрим босқичларида сақланиши керак. Вокалистлар айтганидек, нафас олиш резерви қолсин ва бу учун назорат керак. Бундай қўринишида ҳар қандай янги нафас олиш, ундан олдингисига ёндашади. Ижро қурилмаси, янги нафас олишни бошқаришга ёрдам беради. Бошловчиларда нафас олиш сўлғин ва ортиқча кучаниш бўлади. Сўлғин нафас - бу ривожланмаган мускуллар нафас олишининг етарли эмаслиги, сўлғин нафас чиқаришдир. Шунинг учун товушда суюнчиқ бўлмайди. Ортиқча кучланишда нафас жуда ортиқча нафас мускуларини фаоллиги билан нафас олишининг шовқинлиги ортиқча нафас олишининг ҳаддан ташқари нафас чиқаришда ортиқча тезлик билан боғланади.

**Шовқинлик нафас олиш** хақида бир неча сўз. Бу шовқин етарлича йирилиб очилмаган бурмалар боғламларга ўтаётган ҳавони ишқаланиб тегиб ўтишида содир бўлади ва хиқилдоқ (ҳалқум) йўли ва бронхларнинг яхши очилмаганлиги (йирилмаганлиги) натижасида содир бўлади. Шовқин товушни хунук қилиб товуш (овоз) бурмаларига зиён етказади. Бурмаларни олдини олиш учун шовқинда ижро қилаётганда диққатини доимо қаратмоқ лозим ва нафас олишда камчиликлар кузатилиши керак. Шовқинсиз нафас олишга эришиш учун яхши эснаш ва чуқур, оҳиста нафас ёрдам беради.

Энди барча айтганларни жамлаб қандай талабларни бажариш, қандай малакаларни эгаллаш кераклигини кўриб чиқамиз ва хулоса қиласиз:

1. Ижро вақтида икки оёғингизда қулай ҳолда туринг, албатта қаддингизни тик ва тўғри тутинг, елкаларни эса ёйиб калла эркин ва яхши ҳолатда бўлиши керак. Бу талаблар шунинг учун керакки танадаги барча мускуллар ижрочи учун teng оғирлик тушириши ва ҳамма нарса эркин бўлиши керак.

2. Ҳеч қачон тўқ қоринга қўшиқ айтманг. Чунки бу диафрагмани эркинликдан ва ҳаракатланишдан маҳрум қиласи. Кўп овқатланиш билан қўшиқ айтиш вақти камида 1 соатни ташкил қилиши керак. Педагог Пряничников «Тўқ қоринга қўшиқ айтиш бу товуш тебранишига таъсир кучини беради” дейди.

3. Нафас олиш шовқинли бўлиши керак эмас, товушчаларга (хар хил шовқинларга) нафас олишда йўл қўйиб бўлмайди.

4. Бошловчилар нафас олишда бир вақтда ҳам бурун билан, ҳам оғиз билан ва оғиз очилган ҳолда бурун орқали олишлари керак, бу ҳалқумни яхши очилишига ёрдам бўлади. Л.Роботнов В.Л.Органовнинг тадқиқот ишларида бундай турдаги нафас олиш хиқилдоқ ва йирик кекирдак тармоқлари кенгайишига ёрдам бўлади деб кўрсатганлар. В.Барсова бир зумда ёпилган оғиз орқали чукур нафас олиш мумкин эмас ва бундан ташқари бу нафас олиш қўриниши (оғиздан бурунга) шовқинсизроқдир. Бир дақиқалик сукутларда, оғиз билан нафас олганда қурийдиган шилимшиқларга намланишига ёрдам бўлиши учун иложи борича бурун билан нафас олиш керак.

5. Тўла ҳажмли ҳавони олинг (пастки қовурғалар, диафрагма), лекин ортиқча олманг, чунки ҳаддан ташқари ортиқча нафас олиш қисилишга олиб келиши мумкин. Ҳамма нарса ортиқчаликсиз табийий бўлиши керак.

6. Ҳамма ҳавони охиригача чиқарманг, чунки бу ҳам табийийлик ва эркинликни бузади. Нафасни тўғри сарфлашни билиш учун аввалло **икки қонунни** билиб олиш керак:

1. нафас олганда ҳаддан ташқари кўп олмаслик;
2. нафас чиқарганда охиригача сиқиб чиқармаслик.

7. Овозни тугатаётганда ўқувчи қолган ҳавони кўкракни тезлиқда тушириб ёки диафрагмани бўшаштириши мумкин эмас, яъни тана «вокал шаклини» нафас чиқариш ва янги нафас олиш ўртасидаги сукутда сақлаши керак, бу текисликни ва овоз суюнчиғини кафолатини беради.

8. Нафас олиш ва овоз бошланиши ўртасидаги нафас чиқаришни бир зумда бўлишини кузатинг. Эсда тутиングки, нафасни бир зумда тутилиши жуда муҳимдир.

- а) у нафас чиқаришни ташкил қиласди;
- б) бўғилиш бўлмаслигига;
- в) томоқни қуриладиган ва аниқлигига, овоз тонини топишга ҳалақит беради;
- г) ҳаво отилиб чиқмаслиги учун ҳалақит беради;
- д) “Х» товуши билан;
- е) бўғин бошида нафас йўналишини олдини олади;
- ж) бир лаҳзалик нафас тутилиши чиқаришдан олдин бу тайёргарлик дақиқаси барча аъзоларнинг йиғилганлиги, тайёрлиги, товуш ташкил қилиш ҳажмини ташкил қиласди.

9. Ҳеч қачон ижрода нафас чиқаришни товуш бошлашдан олдин машқ қилдирманг, ҳеч бўлмагандан бирор сўз айтинг ёки битта товушни кўйланг.

10. Нафас олишни охирги дақиқада эмас, балки озгина эртароқ олинг.

11. Нафасни иложи борича тингловчиларни қўзига қўринмайдиган ва улар эшитмайдиган ҳолда олинг.

12. Нафас олиш оралиғида ёки шундай жойларда олинадики, у мусиқали ёки адабий матнга қарши бўлмаган вақтида.

13. Эсдан чиқармаслик керакки: нафас олиш - бу ўткирлик (аниқлик) воситаси ҳамдир:

- а) – қувноқ, мусиқа-енгил тез нафас олиш;
- б) – драматик (ғамгин) мусиқа-оғир, секин нафас олиш;
- в) – ҳис-ҳаяжонли мусиқа-азоб чекишиңи берадиган, нафас олиш жадал, шовқинли, лекин барча ҳолатларда ижрочи нафас олишда ижро пойдеворини унутмаслиги, овозни нафас олишга, унинг ҳажмига, фаол ишлашига зиён бўладиган саҳнавий ихтирочиликка қизиқмаслиги керак.

14. Нафас олиш машқларида ҳаддан ташқари толиқиши мумкин эмас, чунки товуш чигаллиги, чарчаши, титрашни келтириб чиқаради.

15. Ҳар қандай бир дақиқалик сукутдан унумли фойдаланишни билиши, дам олиши учун толиқиши енгиши учун қайтадан мукаммал фаол нафас олишни билиши керак.

## ОВОЗ АППАРАТИ АЪЗОЛАРИ (ОРГАНИ)

1. Ижрога жисмоний ва психологик тайёргарлик.
2. Нафас олиш.
3. Вокал “ниқоби” ва бош резанатори.
4. «Товуш хужуми».
5. Кўкрак резанатори - пастки товуш (таянчи) тирсаги.
6. Вокалда эснаш ва хиқилдоқ ҳолати.

Олдинги мавзуларда нафас олиш, саҳна масалалари, анатомия, артикуляция, актив эркинлик ва барча аъзолар ишидаги табиийлик ҳақида билиб олдик. Нафас олиш жараёнлари, овоз артикуляцион аппаратларини билиб олган бўлсак, энди товуш ташкил қилишни, «Вокал ниқоби» орқали кўришни бошлаймиз.

“Вокал” термини луғавий айтилганда «маска» - италянчадан «Масчера» (maschera) деганидир. Ижрочини овоз садоси бурун ва буруннинг ёндош бўшлиқлари билан боғлиқ. Маска тушунчаси юзнинг юқори қисмидаги жойлашган бўлади.

Ушбу тушунча ёрдамида тушуниш учун «Ниқобни», вокалда эснашни ҳис қилган ҳолда ижрода юз бераётган ҳодисаларни қўз олдимизга келтириб олиш учун бир неча оддий машқларни бажарамиз.

**1-машқ.** Оғиз очиқ, шу ҳолатда ушлаб туриш табиийлик ҳиссини эшитиш оғиз, тил, томоқ эркинлигини ички кўз орқали барча аъзоларни кўриб чикиш демакдир. Лабларни қисинг, лекин маҳкам эмас ва томоқни эркин ҳолда қолдириб қулай тонда товуш чиқаринг М-М-М-М бу билан юқори лаб, тиш, танглайдаги қитиқликни сезиш керак. Агар қитиқлаш ҳисси бўлмаса тебраниш бўлмаса, унда сизнинг томоғингиз сиқилган, уни озод қилинг. Ўзингизни марашингизни тишларга йўналтиринг. Албатта нафасни яхши олинг. Қитиқлашни ҳис қилган қисми «Ниқобдир». Қисман товушни олдинга суриб ҳаракатлантиринг. Кема ва заводнинг гудогини (овоз чиқаришини) эсланг, унда қандай озодлик, давомийлик ва худди шу вақтда куч ва тўлдириш бор.

**2-машқ.** Сиз олдингизда ҳушбуй гулни кўраяпсиз (масалан: атиргул) ва уни ҳиддаяпсиз. Тасаввурингиз ҳушбуй гул ҳидини ҳис қилишга ёрдам беради. Ўша жойлар (танглайды, кўзларда, бошда, калла суягида) қаерга ифор кирадиган бўлса, шу ер тўлдирилаётганлигини эсда саклаш керак. «Ички янги кенгликни» қўп марталаб қайтариб, сиз ушбу ҳис туйғуни бу ҳолатни тушунасиз ва эслаб қоласиз, бу тўғри. Вокалдаги «*эснаш*»ни тасаввур қилиш «юқори ижро гумбазини» мавкеини беради. Бундай ҳолат нафас олишда овоз чиқаришдан олдин бир зумда пайдо бўлиши керак. Нафас олишда сиз ўз товушингизни ва нафасингизни пастки тиргак гумбазидан, юқори тиргак гумбазига йўналтиришингиз керак.

**3-машқ.** Сизнинг олдингизда катта пишган чиройли олма, буни ҳозир тишлаб ейишингиз керак. Юқори жағлар «йириб очилмокда ва кўтарилимокда», ва танглай бунда ширин олмадан каттароқ қисмини тишлаб олиш ҳоҳишини тасаввур қилиш керак. Ҳеч қачон сиз меваларни пастки жағлар билан тишламайсиз. Ушбу ҳис-туйғуларни қидириб кўринг, озодликни, табийликни топинг. Юқори кўтарилиган танглай ижро гумбазидир.

**4-машқ.** Оғзингизда қайноқ картошка, у танглайнингизни куйдирмокда сиз уни туфлаб чиқармасдан совутмоқчисиз ва совуқ ҳавони ютмоқдасиз. У картошкадан куйган танглайни музлатади. Тасаввурингиздаги ҳис туйғуларни қидиринг, юқори танглай музлашини ҳис қилинг ва уларни эслаб қолинг.

**5-машқ.** Иссиқ ҳавода кучукни тасаввур қилинг. У югурмокда, унинг тили ҳавони тўғрилаш учун осилган (чиқарилган). У жуда тез-тез нафас олмоқда, бу билан оғзини ва барча аъзоларини совутмоқда. Албатта сиз тилингизни чиқаришингиз мумкин эмас, лекин шу кучукни тасаввур қилиб, танглайни музлатиш учун тез-тез нафас олишга уриниб кўринг. Сиз дарҳол танглайнингизни нақадар юқорилигини, сизнинг вокал гумбазингиз қанчалар ажойиб эканлигини сезасиз, бунда хиқилдоқ пастда озод ва кенг бўлади.

**6-машқ.** Совуқдан титраган ҳолда тез-тез тишлар билан тақиллатинг. Диққатни олдинги тишлар томонга қаратинг, бунда жағлар озод. Сиз сиқилган жағлар билан титраган ҳолда тишлар билан тақиллата олмайсиз. Энди эса олдинги юқори тишларни, уларнинг илдизларини ҳис қилишга ҳаракат қилинг, яъни қаттиқ танглай ёки гумбаз бошланиш жойини кўринг, у қандай фаол, юқори эканлигини билиб оласиз. Буни яхшилаб кўриш, ҳис қилиш учун яна олдинги тишларингиз билан такроран ўз ҳис туйғуларингизни эшитинг.

**7-машқ.** Лаблар сал-пал қисилган. Оғиз тинч, ички сезиш орқали юқори танглайни сезинг. Тинч ва ётган тил учи пастки тишлар илдизига таянади. Тил илдизи тинч, хиқилдоқ озод осилтирилган, кенг худди катта хум (кўза оғзицек). Ўз диққатингизни юқори тишлар илдизига қаратинг ва ҳаммасини тинч ҳолатда қолдириб товуш чиқармасдан «Н» товушини қаттиқ танглайга текказиб айтинг. Бунда хиқилдоқ умуман тинч, кенг ва паст бўлиб қолиши мумкин. Сиз бўшлиқларни, кенгликларни йириб очилиши ҳиссини

тутиб олишингиз лозим керак. «Юқорига күтарилаётган» қаттиқ танглайни ва пастга тушаётган кенг томоқни сезасиз.

**8-машқ.** Оғиз, хиқилдоқ тинч ҳолатда. Сиз эснашни ҳоҳляяпсиз, лекин шундоқ қилингки худди одобли жамиятдагидек, ҳеч ким сезмагандек, оғиз ёпилган ҳолда эснанг. Сизнинг тасавурингиз эснаш ҳоҳишини ҳис қилишга ёрдам бериши керак. Диққатингиз қаттиқ танглайга қаратилган бўлиши зарур. Юқорида тўпланган ва кенг эркин пастга туширилган томоқда эснаш шундай ҳолда юзага келиши керак: юқори жағ ва танглай юқорига кўтарилади, ҳалқум эса озод бўлади ва пастга тушади, бундай ҳаракатлантириш ва озодлик (эркинлик) кўз ёш чиққунгача давом этади. Одатда шундай бўладики эснаганда кўздан ёш чиқиши мумкин. Эснаш вақтида юмшоқ танглай фаоллигига қулоқ солинг. Ушбу машқлардан қайсинисидир албатта сизга эснашдаги вокал ҳис туйғуларини топишга ёрдам беради. Гумбазлар уларнинг бир зумда кўрилиши нафас олишни бир дақиқалигини кейингисида эса, нафас билан хужум юқори мавқега ва чиройли товушни юзага келишига ёрдам беради. Бизнинг тана аъзоларимиз майда мускулли ҳаракатларни ва мураккаб координацияни, кучанишларни тез қабул қила олмайди, шунинг учун бизга диққат, сабр, тасаввур ва оддий машқлар каби ёрдам керак.

## НИҚОБДАГИ ИЖРО ТУШУНЧАСИ

Ниқобдаги ижро тушунчasi - ижрода ўз-ўзидан маълум бўладики, юқори резонаторларни бутунлай ишлатиш орқали ижрони юқори товуш мавқенини намоён қиласди. Педагог Виттанинг айтганидек: «Овозни тўғри кўйиш шундан иборатки, товуш ниқобга тўғри йўналтириш ва уни ушлаб туришни (юқори тишлар илдизида сақлаган ҳолда) ниқобдаги овоз шундай яққол кўриниши керакки, уни юқори тишларингиз илдизига қандай урилаётганини худди кўриш бўлгандек сеза олиш керак. Тиргак нуқтаси қанча ичкарига сурилган сари шунчалик товуш яққол эшишилади, бу билан овоз чуқур бўлиб товушни томоқда қолишга шароит яратилади». Савол туғилади: ушбу хужум нуқтасини қандай қилиб юқори қурак тишлар илдизига суриш мумкин? Оддий масала буни ечишга ёрдам беради. Оғзингизни очинг унга кўрсаткич бармоғингизни киритинг анча чуқур қўл кафти пастга жойлашган. Бармоқни тирноқ билан юқори танглайга босиш, нафасни олиб қаратилган нафасни чиқаришни бошланг аста секин тугунга йиғилган худди фонар нуридек. Кўрсаткич бармоқ танглайга босилган ва у худди аслаха шкаласидек чиқаётган ҳаво оқими иссиқлигини ҳис қиласди, бармоқларнинг энг иссиқ жойи бу нафас чиқаришнинг ҳужум нуқтаси бўлиб худди шу ерга ижрода товуш тўлқини оқими ҳам тегиб ўтади. Аста секин диққатни бир жойга тўплаб шунга эришиш мумкин, нуқта юқори тишлар илдизига максимал силжиганни англаш қийин эмас. Бундан хулоса қилиш мумкинки, бу ҳисларни товуш билан текшириш керак. Ўз овозингизга диққат билан қулоқ солинг, унда мусаффоликни, равшанликни қидиринг, бундан

ташқари, ўз ҳис-туйғунгизга қулоқ тутинг ва уларни эслаб қолинг.

ХХ аср француз олими Р.Юссон ушбу муаммони аниқладики, “Юзнинг уч аъзоси асаб аъзолари, бурун бўшлиқ қисми ва буруннинг ёндош бўшлиқлари ва овоз мускуллари билан рефлектор боғланиши мавжуд”. Ушбу овозни тўғри юбориш (ҳаво оқими) юз нервини қўзғатади, танглай гумбазига тарқатадиган овоз мускулларини тонусини қўтаради ва равшанликни, жарангдорликни ва тембр овоз гўзаллигини кучайтиради. Қадимги Италян педагоглари «Ниқобдаги ижро тушунчаси»ни ҳис қилиш учун қуидаги машқларни тавсия қилганлар: “Қулай тонда «М-Н-В» товушларини айтинг, қақшаб титрашни ҳис қилиб, лабларда ва юқори тишларда, кенг ҳалкумда озодликни ҳис қилиш лозим”. Агар тил илдизи зўриқкан бўлса уни қўтариш керак, шунда бу ҳис туйғулар туғилмайди. Бу машқлар биринчи марта очик товуш билан бажарилади “Н-Н-Н-Н”, кейин эса ёпиқ товуш билан марашга ўхшаган товушда “М-М-М-М” бажарилади. Бу машқлар томоқ ижросидан халос бўлишга ёрдам беради, улар шундоқ ҳам амалиётга киритилган. Бунда “Н-Н-Н-Н” ва “М-М-М-М” «мараш» номи билан товушни ҳаракатга келтиришда, «мараш» принципи машқлари ёрдам беради. Ҳарфларни талаффуз қилинг: “МА-МИ-МО-МУ” ниқобда «М» товушини жалб қилиб (юқори лаб қитиқлашиши ва юқори тишлар илдизи зонасини) кейинги унли товушнинг ҳис-туйғусини ўзгартирмасдан, ҳамда товуш оқимини ва унинг куч ғайратини йўналтирган ҳолда томоқда ҳеч қандай зўриқиш бўлмаслиги лозимдир. Иш жуда қулай бўлиб, унли товушдан бошланади, албатта ҳамма Италян вокалистлари қуий муҳит ва иссиқ иқлимда яшаганлиги сабабли бу машқларнинг таъсир кучи якқол кўринади. Чунки бу муҳитда қуёш, денгиз мавжуд бўлиб, ўз-ўзидан кўриниб турибдики, инсон қисилишдан озод бўлади. Бизнинг совук, нам, доимо ўзгарувчан муҳитимизда инсоннинг барча ҳис туйғулари бошқачароқ. Бизда меҳмон бўлган «LA SKALA» театр актёрлари қандай қилиб бу ерда вокалистлар яшайди ва ижро қиласиди деб ҳайрон бўлишган, чунки бизда муҳит илиқ бўлиб оғир қисилишга олиб келади. Бизнинг бошланғич ижро чаримиз кўпинча ҳалқум сиқилишига дуч келадилар, бунга қаршилик кўрсатиш учун қўтарилилган елкалар жуда эпчил бўлиши керак, машқлар ва мараш бу камчиликларни мустаҳкамламаслиги лозим. Ушбу хавфлилик ҳодисаси тўғрисида М.Э.Донец Гейсор шундай дейди: “Марашни қўллашда жуда эҳтиёт бўлиш керак, у билан машғул бўлмаслик даркор, чунки у юмшоқ танглайни нотўғри қўтарилишига олиб келади, яъни у манқаликни келтириб чиқаради. Калла бош резонаторининг сезишини, қаншарни сезиш деб атайди. Бу товуш йигилганлигини, унинг юқори мавқеда эканлигини таъминлайди”. Биз ниқоб ҳақида гапираётган эдик (бош резонаторлар), ким товуш ҳосил қилиш учун ҳаво оқимини қаерга юборади? У қандай юборилади? Товуш хужуми - бу товуш бошланиши вактида нафас олишни юборишdir. Нафас тор оқимлар бўйича, худди уколдек, юқори мавқеларига қаратади (юқори тишлар илдизига). Физиологлар айтишадики, “товуш хужуми - бу усул ва тезлик, бунда нафас олиш тешиги нафас олиш ҳолатидан овоз ҳолатига ўтади. Товуш боғламлари

қисқа туташувининг вақти ва даражасини чиқаради. Ҳужум овоз туғилиши вақтига катта таъсир кўрсатади”. Тўғри ҳужумга эга бўлиш учун педагог М. Петренко NASATO (италянча стаканча - парча, бўлак) машқларни қўллашни тавсия қилган. Бошловчиларга эса қуидаги машқлар ёрдам беради:

1. Юқори тишлар илдизи ёрдамида жуда кескин равишда айтиш керак: “А-А-А-А” ёки “У-У-У-У”. Қулай нотада гапириш керак сизда шундай ҳис туйғу пайдо бўлиши керакки, худди бу товушни сиз игна билан ўзингизга санчаяпсиз.

2. Юқори гумбазда айтиш керак: тишларга санчиб “ДЕ-ДЕ-ДЕ” ёки “ДУ-ДУ-ДУ”. Ушбу гумбазни ҳис қилиш учун гул ифори, иссиқ картошка ҳақида эслаш керак (бу машқлар илгари берилган эди.). Оғиз жуда кенг чиройли бўлиши керак.

3. Какку қуши овозига ўхшатиш: “Ку-ку”лаш учун жуда юқори нотада ижро қилиш керак.

4. Ушбу ҳис-туйғуларни ижрода қўллаш учун олдинги машқларда сизга қулай бўлган битта нотада ўша унлининг ёрдами керак.

5. Терцияни ижро қилиш учун битта нота LEGATO (чўзиброк) иккинчиси эса STAKKATO (унчалик чўзмасдан, парчаламасдан), ҳар бир терциядан олдин секин темпда нафас олинг. Педагогик вокал амалиётида юмшоқ ва қаттиқ ҳужум ишлатади, бу ўқувчиларни қобилиятини якка ҳолда аниқлашга ёрдам беради. Унда товуш узатилиши сўниқ бўлса (сўниқ ва пирираш) бир қанча муддат товуш боғламларини фаоллаштириш учун қаттиқ ҳужумдан фойдаланиш айни муддаодир. Аксинча агар товуш узатилиши қаттиқ ва томоқ товуши қаттиқ бўлса, унда юмшоқ ҳужумни қўллаш фойдалидир. Лекин бунда жуда зукко бўлиш керак, яъни бу товуш узатилиш усули кириш йўлларини товуш ташкил қилишда келтириб чиқармасин. Нафасни юқори мавқега аниқ жўнатиш, бу уни ҳужум санчиши дейилади ва бош резонаторларини жаранглашига олиб келади. Овоз боғламлари камертонга тегишлидир. Резонаторсиз жаранглайдиган камертон жуда секин жаранглайди. Уни ургандан кейин қулоқга тутиш керак, лекин унга резонатор қўйсангиз (ҳеч бўлмаганда шиша идишни) сиз шунда камертондан чиқаётган овозни кучаяётганини эшитасиз. Худди шундай нарса овоз билан ҳам содир бўлади, бунда камертон бош ва кўрак резонаторлари бўлиб ҳисобланади, фақат уларни ёқиши ва тўғрилашни ўрганиш керак.

Кўкрак резонаторлари - товушнинг пастки таянчиидир. Ижро товуши ўпкадан чиқаётган ҳаво овоз тешигидан ўтаётган вақтида, титрашда ҳосил бўлади. Бу титрашлар товуш тўлқинларини вужудга келтиради ва улар хиқилдоқдан ташқарига узун йўлак бўлган (эсноқ, оғиз, бурун бўшлиғи) орқали чиқади ва у ерда сифатли жаранглаш товушига эга бўлади. Бироқ ижро товуши хиқилдоқда сезилмаслиги керак. Ҳатто у ерда ҳосил бўлган бўлмаса ҳам, у томоқда вужудга келади. Ижро этаётган товуш гўёки кўкракда ҳосил бўлаётганидек, кейин эса қаттиқ танглайга таянаётгандек туюлиши керак. Н.Эверарди маслаҳатини эсга оламиз: “Бошни кўкракка, кўкракни бошга қўйинг - яъни ижрода аралаш кўкрак ва бош таянчини қўллаш керак.

Ҳаддан ташқари бош ёки кўкрак резонаторлари билан шуғулланиш, овоз ташкил қилишда, ижрода бошқа вақтларини ҳисобга олмасдан, овоз бузилишига олиб келиши мумкин. Ҳаддан зиёд бош резонатори билан шуғулланиш аста секин товушни сиқилишига олиб келади”. Амалиётда айтилганидек: “Бўғилган ижрода товуш жаранглигини йўқотиш, ижро вақтида фақат юқорида ижро қилишни таъминлайди. Кўкрак резонаторидан ҳаддан ташқари фойдаланиш овозни қийин ахволга солади, зўрайтиради. Овозни юқорига ҳаракатланишини қийинлаштиради, овоз эшитувчанлигини яна ва яна кўпроқ учишни йўқотади, тебранади ва йўқола бошлайди”. Ўз ишида ажойиб ижрочи бўлган В.Барсова қуйидагиларни ёзди: “Ижро вақтида кўкракда овоз таянчини ҳис қилишга ҳаракат қиласман. Бир вақтда бу таянч ва қорин мускуллари билан юқорига ёрдам беради. Яъни ниқоб жойлашган жойда”. Кўкрак ости резонаторлари деб - кўпинча кўкрак қафаси мускуллари кучи фаоллиги тушунилади, ёки нафас чиқариш жараёни англанади. Бу ҳаво кўкрак резонатори бўлиб, мускуллар эмас ўпка, кекирдакда йиғилган ҳаво ҳисобланади. Шунинг учун ижро вақтида нафас олишда кўкрак резонатори кенглиги ўзгармаслиги учун кўкрак қафаси кенглигини очиб юбормаслик жуда мухимдир. Ҳаддан ташқари кўкрак қафаси мускулларини ва қоринни зўриқиши, нафақат кўкрак резонаторига мос келмайди, балки унга қаршилик қиласи, яъни нафас бўшлифида ҳавони меъёрида жойлашишини қийинлаштиради. Резонаторлар товушни кучайтиради, унга сифатли жаранглаш беради, шунинг учун кўпинча бундай ўқитиш, никобда ижро қилиш зарурлиги ҳақида гапирилади. Бош резонаторидан фойдаланиш нафас таянчидан ижро қилиш, кўкрак резонаторини кўшиш, ижрода ижрочи резонаторларини бир мунча фаоллаштиради (кўкрак қисмида), бу кучли тебранишда намоён бўлади, таянчиз резонаторлар фаоллиги тушиб кетади. Хулоса: ижро резонаторларининг фаоллик даражаси - бу ижрочининг вокал техник мукаммаллигининг энг асосий кўрсаткичидир.

Италян педагоги Э.Баррэ ёзган эдики: “Бизнинг ижро овозида ҳеч қандай сир ва ҳеч қандай бошқа имкониятларимиз йўқ (фақат акс-садодан ташқари). Сиз акс-садони йўқотиб ижрочи бўлишни бас қиласиз”. Тарихдан овоз жарангги кучининг мўъжизавийлиги ҳақидаги ҳодиса ҳаммага маълум: 1894 йил Москвада машҳур Тенор Томаньо (1850-1905й.) томошаси кўйилганида, у жуда кучли энергетик йўналишга эга бўлиб, унинг овоз кучи ҳаттоки кўзгуларни синдириган. Шовқин бирлиги ўлчови – децибел бўйича, (отбой-ҳодисани тамом бўлганлигини билдирадиган сигнал болғаси, шовқин билан ишлайди) - 100дб. Кўйилган товуш кучи - 110дб. Шунинг учун жўрнавозларнинг операдаги ишини зиён заҳматли даражаси бўйича, шовқин, суронли цехда ишлаш билан тенглаштириш мумкин. Кўкрак резонатори (кекирдак, кекирдак тармоқлари, бронхлар), ўпка ҳаво билан тўлдирилган товушга асосий кучни беради. Бош резонаторлари овозга товуш тембр ва ранг-барангликни беради. Ҳалқум кўпинча товуш юқори кўрсаткичини бошқаради. Кўпинча биз резонаторларни ёкиш ва қўллаш гапини ишлатамиз.

Албатта резонаторлар ўчириш асбобига эга эмас, лекин агар инсон ўз ишини белгиласа, ижро жараёни механизми (ички тузилмаси) ҳақида аниқ тасаввурга эга бўлса, ўз вазифалари ва мақсадлари бу ёқилиш, ички компьютеримизни ҳисобига содир бўлади, буни биз мия ва асаб тузилиши деб атаемиз. Энди биз аниқ тасаввур қиласизки, қўйилган овоз юқори таянчга эга (гумбаз, никоб, мавқе) ва пастки диафрагмали ва қўкрак орасидаги ҳаво оқими худди тортилган ингичка найдадек. Нафас олиш ижрочини бу ҳис туйғуни сақлашга, ижро жараёнида товуш чидамлилиги ҳақида ўйлашга, қўйилган овоз эса эшитувчида таъассурот қолдиришга олиб боради. Техник мукаммаллик ва ижрочи овозининг мусиқавийлиги ижрочидаги таъассуротни тўлдиради.

## ВОКАЛДА ЭСНАШ

Кенг эркин хиқилдоқнинг юқорида тутган ўрни, бизга товушни фаол хужумда, юмшоқ танглай кўтарилиган ҳолатда бўлиши кераклилигини таъминлайди. Танглай пардалари Ламперти айтганидек: “У шамол туфайли дўппайиб чиққан елкан кўринишидек бўлиши керак”. Педагог Донец Гейсер маслаҳат беради: “Айрим ҳолларда бармоқлар билан кичик тилчага тегиниб кўриш ва юмшоқ танглай ва тилчани қандай кўтарилаётганини ҳис қилиб кўриш лозим”. Вокал адабиётида бу ижродаги эснаш, вокалли эснаш, яrim эснаш деб аталади. Ҳалқум мускуллари фаоллашганда (эснов, юмшоқ танглай) жағлар қисилади, тил озод бўлади, хиқилдоқ тушади.

Э.Карузо ижрочига: “Кўзгу олдида туриб томоқни очиб машқ қилиш фойдали ва бу билан танглайни кўришга ҳаракат қилиш, худди биз томогимизни врачга кўрсатмоқчи бўлганимиздек” - деб ҳисблайди. А.Г.Менабени эснов ҳақида мана нималарни ёзади: “Ижро товушнинг тўғри ташкил қилинишида юмшоқ танглай бутунлигicha димоғни ҳалқумдан ажратади. Яъни кўтарилиган ҳолатда эсновга яқин бўлади. Эсноқ нафас олганда тайёрланади ва ижро товуш ташкил қилишига катта таъсир кўрсатади. Унда ҳалқум бўшлиғи кенгайиб унинг резонаторлик қобилияtlари катталашади, товуш кучи ўсади. Танглай бу ҳолатда юқори кўтарилиган, юмшоқ ҳалқумнинг ижро товушини тўғри шаклланиши учун шарт шароитлар яратади, унинг айланаси ва юқори мавқеи эсноқ вақтида тил илдизлари пастга тушишини таъминлаб, хиқилдоқ осилган ҳолда, тил ости суяги ҳам шундай ҳолатда бўлади. Шунинг учун эсноқ методик қўлланма бўлиб намоён бўлади. Эркин ҳолда хиқилдоқни тушишида юмшоқ танглайнин эсноқда зўриқиши, асаб боғламлари орқали-диафрагмани керакли тонусини келтириб чиқаради. Овоз бурмаларини зўриқишига ҳам таъсир қиласи, у аралаш регистрни ташкил қилиши учун зарурдир”. Вокал амалиётида яrim эсноқ ҳақида гапириш қабул қилинган, бу далил нима билан ажратиб кўрсатилган - бу ижро эсноғи оддийликдан камроқ кузатиш керак демакдир, бошидан нафас олишни бошламок, оғиз ҳалқумини яrim эсноқда тўғрилашга

мос келиши шарт. Агар қаттиқ танглайда юқори таянч бўлмаса, унда товуш равон, тез, очик, соф бўлади. Бундай товуш халқ ижрочилигида қўлланилади. Агар товуш юмшоқ танглайда акс этса у йиртиқ, металсиз, нурсиз, хира, бурун акси бўлади. Товушни бурунга йўналтиришга йўл қўймаслик керак. Чунки бу ҳодисада у оддий, жирканч бўлиб қолади.

Машқ: агар бошловчида бурун товуши бўлса, унда ижро вақтида бармоқлари билан бурнини қисишга мажбурланг, яъни ўзида бу камчилик мавжудлигини билсин. Нафас чиқаришга ҳеч қандай зиён қилмайди, чунки ижрода нафас чиқариш бурундан бўлади.

## ИЖРОДА ХИҚИЛДОҚ (ҲАЛҚУМ)

Ижрода хиқилдоқ жойлашуви паст ҳам юқори ҳам бўлмаслиги керак, у ҳар бир ижроцида индивидуал (якка тартибда) бўлиб, унинг вокал аппаратини қандай тузилганлигига боғлиқдир (хиқилдоқ шакли боғламлар узунлиги, узун ингичка йўл баландлиги ва ҳакозо). Тименконинг ўгитларига кўра: “Ижрочи ўқиш, ўрганишининг аввалида енгил айтиладиган товушларни айтиши керак, тахмин қилиш мумкинки бу товушлар хиқилдоқ жойлашуvida ўрта чизиқни аниқлаши лозим. Ижро пайтида хиқилдоқни кузатинг хиқилдоқ умуман ўз ўрнини ўзгартирмайди”. Доктор М.Лебидов шундай дейди: “Овозни тўғри қўйишини биладиган ижрочиларда аниқ дикция, тўлиқлик, унлилар бутунлиги, хиқилдоқ чидамлилиги кузатилади. Шу билан бирга яхши овозга эга бўлмаган ижрочиларда соф товуш билан ижро тўлиқ эмас, асосан хиқилдоқнинг кўп ҳаракатланиши кузатилади”. Профессор Ф.Ф.Заседателев ўз илмий ишида ёзади: “Хиқилдоқнинг сўзлашувдаги ёки асли ҳолига жойлашуви ижрога яроқли эмас. Унинг бу жойлашуvida товуш текис, ясси, ингичка бўлади. Ижродан олдин хиқилдоқ паст тинч ҳолатга ўтади. Бу хиқилдоқнинг жойлашуви техника тўғрилиги ва тон тўғрилиги бўлиб ҳисобланади. Хиқилдоқнинг паст жойлашуvida резонатор бўшлиғи ва ҳалқум бўшлиғи катталашади, у билан бирга яна овоз кучи ва кенглиги ҳам ортади. Агар хиқилдоқ юқорида турган бўлса, бунда тил ва оғиз чуқурлиги кўтарилади. Агар пастда бўлса унда тил илдизи ва оғиз бўшлиғи чуқурлиги пастга тушади. Бу тилни текис ингичка ушлаш масаласини енгиллаштиради. Аммо хиқилдоқни мажбуран ҳаракатсиз ҳолда ушлаб туриш ҳам зарарли, ҳам бажариб бўлмайдиган иш, у овозни бузади”. Пастки ҳалқум тарафдорлари: - Эверарди, Ферни, Джиральдони – “Булар бизнинг ишимизда эсноқ хиқилдоқни пастга тушишига ва озод бўлишига ёрдам бериши” хақида гапириб ўтишган. Ижрода эсноқни асраш эса хиқилдоқ жойлашувини сақлашликка ёрдам беради. Албатта ўқувчи ўз эътибори овоз аппарати ички тузилиши ҳақида кераклича, аниқ тасаввурга эга бўлиши керак, аммо амалий машғулотларда асосий диққатни эшитиш ва мускулли ҳис-туйғуларга, табиийликка ва содир бўлаётган жараёнларнинг фаоллигига

қаратиш керак. Тушуниш ва натижага эришиш учун оддий, жисмоний ва мусиқали машқлар ёрдамида эришилади. Ҳис туйғуларни ҳар хил бирлашмалар орқали, образларни қидириш, куч ва сиқиши орқали ҳаракат қиласлиларни керак. Бу ишда энг катта ёрдамни кўзгу беради. Бу манақиатли ишда профессионал диққат, сабр, қатъийлик тарбияланади.

А.Г. Менабени ўзининг илмий ишида вокал артикуляцияси ҳақида жуда яхши ёзган. Ижро овози ва нутқда қандай фарқлар бор? Ижрода овоз диапазони бутунлича қўлланилади; нутқда эса фақатгина унли бор қисми ишлатилади. Овоздан ташқари (тенор, бас, баритон, сапрano, мецц-сапрano) гапираётган одам ўз овозининг ўртача бўлагини ишлатади, бу ерда овозли гапириш қулайроқ, у ҳолдан тоймайди. Ижро овози гапириш овозидан нафақат диапазон ва кучи билан фарқ қиласди. Балки тембр билан ҳам, яъни овозни бойроқ ранг-баранглиги билан ҳам фарқланади. Ижрода товуш - сўзларни аниқ талаффуз қилиш, унлиларни шаклланнишига боғлиқ бўлиб, оддий нутқда унли ва ундошларни талаффуз этиш, вақт бўйича деярли тенг бўлиб, нутқда товуш ва сўзларни аниқ тўғри, талаффуз қилиш ундошларни бутунлай аниқ-равshan талаффуз қилишга боғлиқдир.

Ижродаги товуш ташкил қилиниши орқали артикуляцион аппарат жуда кўп маротаба жадаллашади (активлашади). Ундошлар ижрода ва нутқда деярли бир хилда шаклланади, аммо ижрода аниқ ва енгил талаффуз қилинади.

Ижрода унлиларни талаффузи нутқдан деярли фарқ этади. Ижрода ҳалқумни юқори даражадаги тинч ва эркинлигига, оғиз бўшлиғи унлиларни шакллантиради. Бу билан оғиз бўшлиғини аниқ иши мазмунини ва уни вокалдаги товушларни тўғри талаффуз қилишдаги ролини кенгайтиради.

Нутқда ҳалқум бир зумда кенглигини ва унлиларни алмашишида шаклини ўзгартиради. Буюк вокал ўқитувчилари доимо шунга эътибор қаратганларки, яъни унлилар - вокал товушини «келтириб чиқарувчилар»дир. Улар деярли товуш талаффузини бутунлай эгаллаб олганлар.

Ундошлар максимал даражада қисқартирилиб иложи борича аниқ ва равшан талаффуз этилади. Унлилар худди ижро товушини қоплаб олгандек қобиқ бўлиб ҳизмат қиласди. Шунинг учун ижро товушини тарбиялашда ишни вокал унлиларни шакллантиришдан бошлаш керак. Бу товушларда вокал овозини барча асосий сифатлари ишлаб чиқилади. Унлиларни вокал бўйича тўғри шаклланниши ижро овозини бадиий бойлигига боғлиқдир.

## ОВОЗ РЕГИСТРЛАРИ ҲАҚИДА

Гарсианинг классик аниқлаши бўйича: Регистр тушунчасида бир қатор кетма-кет ва бир турдаги овозлар тушунилади, бир механизм ички тузилиши ҳаракати орқали ишлаб чиқилади. Йккинчи турдаги товуш ташкил қилиш усули ҳам мавжуд бўлиб: **кўкракли ва фальцетли (фистула)дир.**

1. **Кўкракли** – овоз тешигини батамом туташуви бўлиб, боғламлар ўзининг бутун кучи билан тебранади ва хиқилдоқ бу ерда паст, қуи жойлашади. Акустика томонидан кузатилганда товушнинг катта бойлиги бу унинг кучидир,

2. **Фальцетли** – овоз тешигини, тирқишини бутунлай ярим туташуви ҳисобланиб, боғламларнинг фақатгина четларини тебратади. Акустика томонидан товуш обертонлар сабабли кескин фарқ қиласи, кўкракка нисбатан мусаффо, асл фальцет профессионал опера ижрочиси регистридек ҳисобга кирмайди.

Кўкрак регистри учга бўлинади: кўкрак, медиум (микст), бошли бўлади.

Эркакларда у иккита – кўкрак ва бош; аёлларда учта – кўкрак, бош, микст.

**Микст** – бу кўкрак ижросидан бошга бир хил меъёрда ўтиши, бунда боғламлар юмилиши ўрта жойлашувини эгаллайди.

Микстда кўкраклар ва бош резонаторлари ҳам ишлайди. Бу ишда микст устидан эшитиш назорати жуда муҳим ва ҳис туйғуларни қидиришдаги қулийлик бўлиб ҳам хизмат қиласи. Ижрочи синиқ ноталардан қочиши керак. Яхши нафас олишни овоз орқали назорат қилиб тўғрилаб ва зўрға билинаётган унли товушни, унинг тубанлик моҳиятини ўзгарганлигини, унлининг ёпинчиғи дейилади. Шунинг учун очилиш ва ёпилиш товушлари атамалари бордир.

**Ёпилган товуш** – бу тембр бўйича кўпроқ яхлитлаб юқори ва пастки резонаторларнинг максимал қўлланилганлигидир. Ва бир вақтда таянч ҳиссини сақлашдир. Вокал ижросида товуш ёпилиши (беркитилиши) осон ишлайди, ҳалқум меъёрда кенгаяди, хиқилдоқ эса ўзининг меъёрий ҳолатидан пастга тушади. Товушни тўғрилаш жуда юқори ва пастки ноталар орқали ўз вақтида содир бўлади. Очиқ (соф) тембрдан ҳаддан ташқари фойдаланиш бошланғич ўқитиш даврида товушларни нотўғри шаклланишига олиб келади. Бу жуда кўплаб овозларни муддатидан олдин йўқ бўлишини асосий сабабларидан биридир. Айниқса эркакларнинг юқори овозини очиқ тембрда ижро қилиши заарлидир. Аёл ижрочиларнинг очиқ товушда ҳаддан ташқари фойдаланиши, уларда ҳар хил нуқсонлар пайдо бўлишига ва овозни тез эскиришига, бузилишига олиб келади. Ушбу вазифани ёдда сақлаш учун қўшиқ айтишни эндиған бошлаганлар нимани унутмаслиги керак?

1. Овоз тембрини ўрта тонларда тузатиш, унинг чиройлилиги, ёпилмаган ва очилмаган ҳамда соф бўлиши мумкин эмас.

2. Ўрта регистрларнинг тонини бир текис тўғри ўтишини кузатиш, ўз

ўзига овозини синишига, ўзгаришига йўл қўймаслик бу кўкрак ва бош ижродаги товушининг аралашувини таъминлайди.

3. Товушнинг “ранги” эркин ва жарангдор бўлишини кузатиш тубан ва бўғиқ, хунук ва эшитилмайдиган қиласи. Гарсиа айтганидек товушда қуидагилар бўлиши керак:

- паст (қуий) хиқилдоқ;
- тилнинг қошиқсифат шакли;
- юқори юмшоқ танглай.

Вокал машқлари билан шуғулланиш бўйича бир қанча маслаҳатлар олдик:

**1-машқ** – табиий, бутун, ҳеч қандай кучланишсиз, унлиларни ўзгартирмасдан бир хил кучда ижро қилиш керак.

Глинка кўрсатмаси: “Машқларда товушни куч ишлатмасдан чўзиш. Энди бошлаётганлар учун машқ жуда оддий, ритмик, тор интервалларда ва квинта оралиғида бўлиши керак”.

Вокал ижрочилари қўшиқ айтиш учун биринчи навбатда нафасни тўғри олишдан бошлиш керак дейишади. Вокал ўқитувчилари ижрода «А» товушини ишлатишдан бошлишни тавсия қилганлар. Чунки бу унлида ажойиблик кўпроқдир. Хиқилдоқ тинч, пастда жойлашган бўлади, ҳалқум очилган, кенгайган ва юмшоқ танглай кўтарилган бўлади. Кўпинча ўқувчиларга «А» товушини айтиш қийин, «О» ёки «У» унлиси эса енгилроқ бўлиб туюлади. Педагог Витт маслаҳати бўйича: “Яхши шаклланадиган ва яхши жаранглайдиган унлини топиш қулайдир”. Глинка буни шундай атаган: “Олдин енгил бўладиган товушларни айтиш керак”. Албатта кейинги машқларда барча унлилардан фойдаланиш керак. Ижро матнидаги унли ва ундош товушларни навбатма-навбат келишида товуш бир текис, иложи борича чиройли бўлиши керак. Товуш текислиги мусиқали интервал, тўхталишларни енгилишига, унли ва ундошларни ўзгаришига тобе бўлмаслиги керак. Барча унлилар битта вокал шаклига эга бўлиши керак. Ундошлар ва унли товушларни, уларни вокал чизигидан чиқариб ташламаслиги, улар енгил ва аниқ талаффузда бўлиши ҳамда унлилар оқимини бўлмаслиги керак. Овозни тўхтамасдан чиройли ва текис жаранглаши ижронинг асосларидан биридир. Бунга чиройли нафас олиш жараёнлари ва товуш ҳажми мукаммаллиги орқали эришилади.

**Нафас олиш** - бу педални босиш, товушларни биргаликда боғлайдиган барча машқларни LEGATOдан ташқари ижро қилиш демакдир. **Кантileна** - нафас олганда бир нотадан иккинчи нотага ҳеч қандай силкинишсиз, тўхтамасдан бир текис ўтишни билдиради. Буни тақинчоқ билан тенглаштириш мумкин, яъни бир ипга бирин -кетин дурларни ўтказишdir ёки скрипкачининг скрипка чалишидек, камончани симлар оралаб бир текис равон келишидир. LEGATO ва KANTILEKS устида ишлашдан олдин оддий асар ва машқларни тинч темпда ижро қилиш керак.

М.Гарсиа товуш текислиги LEGATO ҳақида шундай дейди: “Бир бўғиндан иккинчисига ўтаётганда, бир нотадан иккинчисига ўтишда овозни

силкинишсиз ва бўшаширмасдан айтиш керак. Худди барча қурилмалар факат бир текис ва давом этадиган товушдан ташкил топсин. Барча ноталарни бир тембрда қатъий сақлаш керак. Тембр текислиги хиқилдоқнинг бир нусхали ишлашидан вужудга келади”.

FORTE ва PIANO ижросига кўра педагог Витт маслаҳат беради: “Ижрони ўрганаётганлар шуни унутмаслиги лозимки, овоз қучи уни бошқаришда осон олдинга ўтади. Яхши ижро этиш учун ижрочи ўз овозини куч билан итармасдан, балки ўстириши керак”.

Вокал мактабининг энг яхши натижаларидан бири – бу ўз-ўзини эшлиши ва назорат қилиш орқали содир бўлади. Биринчи машқларданоқ ўз овозини эшлишига ўрганиш, уни яхши бўлмаган ҳолда ҳам қабул қила олиш, шунингдек уни худди ўсимлик сингари ўстириш, сақлаш, севиш орқали овоз жаранглайди ва равшанлашади. Машқларни биринчи ноталар номи билан куйлашдан бошлаш керак, лекин у барча вокал талабларига жавоб бериши даркор:

1. Ўзини ўқишига бўлган қизиқишини, жисмоний ва психологик тайёгарлигини текшириши керак. Бўғинларни айтамиз: «ВА», «МА» ёки «ДА». Ўзингизга қулай бўлган бир товушни олиб нафас чиқгунича ушлашингиз керак (нафасни охиригача сиқиб чиқарманг). Товуш кучсиз бўлгунича нафас беришни кучайтиринг, товуш чиройли ва текислигини кузатинг. Нафас олганда чарчаманг, бўлмаса товуш қалтирайди, бу машқ ижро нафасини ҳис қилишига ёрдам беради.

Vocals

Ba-va-va-va-va.  
Ba-va-va-va-va.  
Ba-va-va-va-va.

7

Ma-ma-ma-ma. Ma-ma-ma-ma. Ma-ma-ma-ma. Ma-ma-ma-ma.

14

Da-da-da-da-da-da. Da-da-da-da-da-da. Da-da-da-da-da-da. Da-da-da-da-da-da.

2. Биринчи нотадан олдин унлини FORTE кейин PIANОда айтинг. Диққат: нафас узатилишида товуш сифати ва текислигини назорат қилинг. Нафас текис, фаол, силкинишсиз узатилади. Ижро вақтида гавдани тўғри ҳолатда бўлишини кузатинг.

12

Ba-va-va-va-va.  
Ba-va-va-va-va.  
Ba-va-va-va-va.

20

Ma-ma-ma-ma. Ma-ma-ma-ma. Ma-ma-ma-ma. Ma-ma-ma-ma.

3. Битта нотада ҳамма унлиларни шошилмасдан битта нафасда айтинг (А, Э, И, О, У - А, О, Э, И, У). Товуш сифатини ва унинг текислигини назорат қилинг, бунда унлилар кетма-кетлиги ўз-ўзидан қўрсатилмаган. Бу унлилар тартиби товуш артикуляциясининг текислигини, меъёрийлигини, қулайлигини таъминлайди, фақатгина «А» товушида хиқилдок қисиғанлигидан ташқари ҳолатларда. Бундай ҳолатда қулай унлидан бошлаш зарур, чунки мана шу қийинчиликларга кўра кўпгина педагоглар сольфеджиони ижро қилишга қатъий қаршидирлар. Айниқса бу бошланғич ўрганиш даврида содир бўлади, чунки ижрочининг дикқати бошқа йўлга қаратилган бўлади ва бу товуш сифатида намоён бўлади.

4. Мараҳ «М» товушини қўшиб айтиш керак, тил илдизи тўғри жойлашганига қўникиш учун оғизни очиш, лабларни юмшоқ бирлаштириш (ёпиш) ва «М» товушини узоқ чўзиб айтиш, лаблар тепасида қитиқлаш ва титраш бўлишига олиб келади. Агар тил илдизлари кўтарилилган бўлса, бу туйғу бўлмайди.

5. Ижрода биринчи нотали бўғимларида «МА-МЭ-МИ-МО-МУ» (шошилмасдан, осойишта куйланг), «М» энг биринчи товуш, мараҳ сифатида талаффуз қилинади. Худди олдинги машқлардагидек, кейинги унли товуш худди шу ерга, яъни тепа тишларга, шу кенглик ва айланалик даражасида оғизнинг табиий бўлишини, хиқилдоқнинг озод бўлишини, нафасни ўтказувчан бўлишини кузатинг. Машқ таянчини ҳис қилишга ёрдам берадиган товушни олдинга суради.

6. Гарсиа ва Ламперти машқларида бошловчилар учун битта нотада шундай сўзларни айтиш лозим «Мама - Мийа», “Татта - та» ва ҳакозо.

7. Бошловчилар учун «Л» ундоши жуда яхшидир. Битта нотада ёки кичкина тор интервалларда бўғинларни айтинг: “ЛА-ЛЭ-ЛИ-ЛО-ЛЯ-ЛУ-ЛО”.



8. Унча қийин бўлмаган хроматик ижрони қулай бўғинда айтинг (диопозон, квинта, терция), олдин барча бўғинларни ҳар бир нотада талаффуз қилинг, аниқ равшанликни ишлаб чиқишилик учун фақат битта нотада бўғинни талаффуз қилинг, кейингилари эса унлиларда содир бўлади.



## ОВОЗЛАРНИНГ КЛАССИФИКАЦИЯСИ

Овозларнинг номлари ва диапозонлари қуидагилардан иборат:  
Аёлларнинг овозлари.

**Колоратура сопрано** – жуда катта диапазонга эга бўлиб, ўта ҳаракатчан бўлади. Бу овоз ўзининг жуда ҳам тиниқ ва ингичка тембри билан бошқа овозлардан ажралиб туради (диапазони: “До” 1-чи октава – “Фа” 3-чи октава).

**Лирик сопрано** – юмшоқ тембрли овоз (диапазони: “До” 1-чи октава – “До- Ре” 3-чи октава).

**Драматик сопрано** – кучли оҳангдор овоз (диапазони: “До” 1-чи октава – “Си” 2-чи октава)

**Меццо - сопрано** – енгил ва тўлиқ овоз ҳисобланади (диапазони: “Соль” кичик октава – “Соль” 2-чи октава).

**Лирик меццо - сопрано** – ёрқин овоз ҳисобланади (диапазони: “Ля” кичик октава – “Ля- Си” 2-чи октава).

**Контральто** – аёл овозининг энг пастки ва жуда қуюқ овози ҳисобланади (диапазони: “Ре” кичик октава – “Ми” 2-чи октава).

Эркаклар овозлари.

**Лирик тенор** – жуда соф жарангли овоз (диапазони: “До” кичик октава – “Си-До” 2-чи октава).

**Драматик тенор** – кучли жарангдор овоз (диапазони: “До” кичик октава – “Си-бемоль” 2-чи октава).

**Лирик баритон** – юмшоқ ҳаракатчан овоз (диапазони: “Ля” катта октава – “Соль” 1- чи октава).

**Драматик баритон** – кучли ва жарангдор овоз (диапазони: “Соль” катта октава - “Фа” 1-чи октава).

**Бас** - эркакларнинг энг пастки овози (диапазони: “До” катта октава – “Ми” 1-чи октава).

**Бас-профундо** – энг пастки ва кўкрак қафаси орқали ижро этиладиган овоз. Кўпинча черковда ижро этиладиган қўшиқларда кўпроқ ишлатилади.

## ОВОЗ БИЛАН ИШЛАШНИНГ КЕЙИНГИ БОСҚИЧЛАРИ

Овозни ҳаракатчан ва тезкор бўлишида оддий машқлардан сабоқ олинади ва чегараланган миқдорда хиқилдоқни чарчатмаслик учун жуда тинч темпда ижро қилинади. Бу ишда асосий принцип: талаффузни аниқлашдир, чунки ҳаммаси аниқ, тўғри, ритмик бўлиши учун. Олдин октава диапазонида - гаммалар аниқ, равшанлиги муаллақ бўлмаса, унда бўғинлар қўшилади: ДА-ДЕ-ДО, ёқимли - ЛЕ-ТА-ТА.

Да-Дэ-До. Да-Дэ-До. Да-Дэ-До. Да-Дэ-До. Да-Дэ-До. Да-Дэ-До. Да-Дэ-До. Да-Дэ-До.

Vocals      Le-ta-ta, Le-ta-ta. Le-ta-ta, Le-ta-ta. Le-ta-ta, Le-ta-ta. Le-ta-ta, Le-ta-ta.

6            Le-ta-ta, Le-ta-ta. Le-ta-ta, Le-ta-ta. Le-ta-ta, Le-ta-ta. Le-ta-ta, Le-ta-ta.

Метро Фортёнини айтиши бўйича нафасни ҳаддан ташқари кўп олмасликни, темпни кўпайтиришга шошилмасликни, тезкорликни, хиқилдоқни эгилувчан ва чўзилувчанлигини, чидамли, мashaққатли, техник вазифалари учун кулоқ осишни ўргатади. Тезкорлик ишига факат хиқилдоқни озод этилганидан кейингина киришиш мумкин.

Ижро чида тоза интонация (талаффузни) етишмаслиги, координация (овозни тўғрилаш) йўқлиги, вокал кўнималарини етишмаслиги ёки эшитишни яхши ривожланмаганлигида бўлиши мумкин. У ҳам бу ҳам атрофдаги назорат орқали онгли равишда ўз-ўзини назорат қилиш туфайли амалиётда ривожланади. Тўғри интонацияга эришиш учун кўп меҳнат ва сабр билан ишлаш талаб этилади. Ижро жараёнида қинийчилик туғдирадиган интервал ёки асар парчасини мусиқадан «юлиб олиш» ва LEGATOда қулай бўлган унлилардан 1-2-тонгача пастга ёки юқорига олиб ўтиш мумкин. Бу парчани худди вокал машқидагидек ижро қилиш лозим. Мусиқада алоҳида товушлар мавжуд эмас, ҳар бир ижро қилинган товуш кейингисини тайёрлайди. Бунга пианиночи Гофман томонидан шундай таъриф берилган:

“Битта бармоқ чалади, қолганлари тайёрланади”. Алоҳида ноталар бу чиройли ижро эмас.

Ижро - танаффуссиз овознинг мантиқий ҳаракати ҳисобланади. Бу иш албатта – алифбо сабоқларидан бошланади.

Профессионал овозни техник тайёрлашга ва олдинга қўйилган мақсадларга эришишда қандай талаблар қўйилганлиги тўғрисида санаб ўтамиз:

1. FORTEPIONO METRO FORTE – ижро қилишни билиш, овозни тозалаш;
2. Овозни турли тембрли рангларга эга бўлишини билиш;
3. Хроматик ва диатоник гаммаларни тўғри ижро қилиш;
4. Сурилиш ҳаракатига эга бўлиш (калоратура);
5. Ноталарни турли усувлар билан боғлаш: LIGITO; PORTO; MENTO; STAKKATO;
6. Техник томондан қўллашга эга бўлиш;
7. Турли қийинчиликларнинг ритм ва темпини тушуниш;

Овозни муқаммаллаш устида ишлаш ҳақида: Биз вокал техникасини муқаммаллаштирамиз. Вокал техникаси атамаси ижрочининг барча овоз ҳосил қилиш қисмлари ишининг бир-бирига таъсири деб тушунилади.

## РЕЗОНАТОР НИМА?

Тахминан 80% қўшиқ товуши куввати атрофдаги тўқималардан ўтишида ўлади. Уларнинг тебранишида исроф бўлади. Ҳаво ўтказиш бўшлиғида(бурма усти ва бурма ости ерида) товушлар чидамлилиги акустик ўзгаришларга учрайди, кучаяди – шунинг учун бу бўшлиқлар **резонаторлар** дейилади.

**Резонаторлар – устки ва қўкрак резонаторларига бўлинади.**

**Устки резонаторлар:** барча бўшлиқлар товуш бурмаларидан юқорида ётувчи ҳалқумнинг тепа бўлими, оғиз ва бурун бўшлиғи ва калла резонаторларидан ташкил топган. Бўғиз ва оғиз бўшлиғи сухбат товушини шакллантиради, товуш кучини оширади, тембрни унга таъсир қилдиради. Калла резонанси - овоз учишига (худди металл йигилиши сингари) эга бўлади. Бу резонаторлар товуш тузилишини кўрсатувчи бўлиб ҳисобланади.

**Қўкрак резонанси** товушга ижрони тўлиқлиги ва кенглиғидан хабар беради. Қўкрак резонансидан ҳаддан ошиқ фойдаланиш ижрони оғирлаштиради ва товуш сусайишига(тебранишига) ва оҳангни пасайишига олиб келиши мумкин.

## ДИКЦИЯ

**Дикция** – товуш, сўзларни аниқ талаффуз қилишдир. Қўшиқ айтаётганда оғзи бўш, эстетик бўлиши керак. Бу жағлар, тил ва лабларга боғлиқдир. Оғизни ижрочиликда чиройли очиш тилни, ҳалқумни, бўғизни тўғри қўйилишига ва бутун овоз аппаратини кераклича тўғри ўрнатишга ёрдам беради. Қисилган жағ пастки оғиз очилишига ҳалақит беради ва тил ости суяги орқали бу қисилган ҳалқумни юқорига тортади, бу томоқда ижро қилиш сабаби бўлиб намоён бўлади.

Жағлар тилни жуда зўр бериб ишлашига сабабчи бўлиб, у унлиларнинг асосий артикуляторидир. Тилнинг ҳолати оғиз резонатори шаклини ўзгартиради ва овоз тембрига таъсир қиласди. Ижрода пастки жағ бўш бўлиши керак. Нафас фаол бўлгандан ҳам у қаттиқ орқага отилиб ҳалқумга урилиши керак эмас. У юз (бет) мускуллари ва лаблар бурчаклари билан ушланиши керак. Лабларнинг ўзи билан ундош товушларни фаол талаффуз қилаётган лаблар унлиларни батамом ташкил қиласди ва лабда ундошларни асосий шакллантирувчиси бўлиб намоён бўладилар. Лаблар ҳолати ижрочи товушини тембрига таъсир қиласди. Табассум тембрни ёритишга ёрдам беради. Лаблар тишлар устида ётиши керак.

М.Гарсиа шундай деб айтган: “Юмшоқ танглай овоз ташкил бўлишида алоҳида асосий рол ўйнайди, унинг ҳолати оғиз ютиш каналининг резонатор хусусиятига муҳим таъсир қиласди. Тадқиқотчилар уни ҳалқум ва бурун, бўғиз билан боғлиқлигини, товуш диапазонига таъсир қилишини кўрдилар. Мана шу сабабларга кўра юмшоқ танглай ижрода доимо фаол ҳолатда бўлишги керак”.

Артикуляцион аъзоларнинг бизнинг онгимизга бўйсуниши керакли йўналишга ҳаракатланиб, бутун овоз аппаратига муҳим таъсир кўрсатиши мумкин. Эркинлик, табиийлик, уйғунлик - мақсад сари фикрни яхшилаб жамлаб саклашда ҳақиқий санъат томон йўл очади. Қайсиdir олим ижро қилаётганда юз эркин бўлиши керак, деб жуда тўғри айтган. Усиз техник вокални акс эттириш мумкин эмас.

Энди турли педагогларнинг артикуляция ва дикцияга доир бир нечта айтган гаплари ҳақида:

- ҳаддан ташқари жағларни ҳаракатлантириш натижаси бўғизни қисади ва керак товуш тебранишини бўғади;
- товуш аппаратидан унинг резонанс маълумотини олиб қўйиб бўғади;
- агар тишлар жуда яқинлаштирилган бўлса, товуш томоқ аксини олади;
- агар лаблар оғзи тор идишга суюқлик қувиш учун ишлатадиган асбоб шаклидек олдинга ҳаракат қилса, бунда фақат оғир ва худди увиллагандек овоз хосил бўлади;
- агар оғиз овал шаклида очилса (балиқ оғзи каби) бу ҳолат ноқулайликка эга бўлиб, у овозни учиради, артикуляцияга ҳалақит беради ва нихоят юзга беўхшов, хунук кўринишни беради.

Оғизни овал «О» шаклида очсак, лекин пастки жағни устки жағдан алохіда қилиб ажратсак, у бунинг оқибатида пастга тушади. Оғиз бурчаклари бунда озгина күтариленген бўлиши керак, бу ҳаракатлар лабларни тишларга қисиб, ушлаб, оғизга чиройли шакл беради. (М.Гарсиа, Ж.Дюпре). Ижрочи диққати товуш оқимига ва унлиларни ўзаро уланганлигига қаратилген бўлиши керак. Бунда ундошлар оқимини тўғри ташкил қилган бўлади. Буларни тез ва аниқ талаффуз қилиш керак, уларни бир-бирига жипслаштириш, отиб ташлаш мумкин эмас, яъни овоз (уммонлар) оқимига зарар келтирмаслиги учун ижрони тўсмаслик керак. Бузилган дикция нафакат вокалда, балки бадиий муносабатда ҳам заарлидир.

Машхур ҳикматли сўз (афоризм) мавжуд: - Яхши ижроцида дикция ҳам яхши ва ёмон ижроцида дикция ҳам ёмон бўлади. Бу дикция овозни тўғри ташкил қилишда ўзаро боғлиқлигини кўрсатади (Н.Малышев).

К.С.Станиславский нутқ санъатини ижро санъатига нисбатан мураккаб санъат деб қабул қилган. У кўпинча айтардики: “Яхши айтилган сўз – бу ижродир, яхши ижро қилинган жумла эса - нутқдир”.

## АРТИКУЛЯЦИОН АППАРАТ. ДИКЦИЯ

Бизни талабаларга қарата айтадиган гапимиз – сўзларимиздами, ижроимиздами, талаффузимиздами аниқ бўлиши керак, яъни у етарлича жарангдор, ифодали бўлиб уни залнинг охирги қаторида ўтирганлар ҳам эшитишин. Дикция яхши бўлиши ниҳоятда зарур бўлиб, гапларни аниқ, равшан талаффуз қилиш керак. Яхши натижаларга эришиш учун артикуляцион аппарат устидан малака ошириб, унинг техник имкониятларини ишлаб чиқиш шартдир.

**Артикуляцион аппарат** - бу овоз аппаратининг бир қисми бўлиб, нутқ товушларини шакллантиради ва унинг таркибига кирувчи артикуляцион аъзолардан бири бўлиб ҳисобланади. Бу аъзоларнинг иши нутқ товушини бунёд қилишга қаратилган (унли, ундош-артикуляция) дейилади.

Артикуляцион аппаратга тегишли аъзолар:

- Оғиз бўшлифи, юз, лаблар, тишлар, тил, жағлар, танглай, ҳалкум, бўғиз. Шуни эсда тутиш керакки, оғиз бўшлифи - бу жуда асосий ҳаракатланувчи резонатордир. Артикуляцион асбоб ишининг биринчи шарти – табиийлик ва фаолликдир. Фаол табиийликка эришиш учун турли қисилишлар орқали ва турли мускуллар ва аъзоларнинг аниқ ишлашини рағбатлантириш орқали эришилади. Албатта қисилишларни ечиш жуда оддий айтилади, аммо уларни олдин топиш, кўриб олиш керак. Кўзгу олдида жуда узоқ ишлагандан кейингина, ҳамма вақт эътибор қилган ҳолдагина, бу етишмовчиликлар йўқола бошлайди.

Бу ишда бизга оддий машқлар ёрдам беради: фаол табиий ёки фаол эркинлик - бу етарли даражадаги услубдир. Товушларни талаффуз қилиш озроқ оширилган ҳолда бўлиши керак, яъни томоша залиниг охирги қаторида ўтирганлар ҳам эшитиши учун. Лекин фаоллаштириш янги

қисилишларни келтириб чиқариши керак эмас. У қулайлик, табийлик, эркинлик орқали юзага келади. Ҳатто Карузо айтган эди: “Ўша ижрочи ёмонки, у қисилган жағлар билан ижро қилишни ўйлади”. Катта устознинг бу жумласи шуни билдирадики, товуш уйғунликни ва санъат жараёнидаги табийликни қандай баҳолаганлигини англатади. Кўзгу - бу уйғунликга ва табийликга эришишлик ишида катта ёрдамчидир, чунки қўплаб қисилишлар нафақат овозда, балки ижро этаётган ёки гапираётганинг юзида ҳам акс этади.

Мана бу машқлар сизга ёрдам беради:

**1-машқ.** Ўз оғзимизнинг ички тузилишини кўриб чиқамиз, кўзгуга қаранг. Юз хотиржам, лабларнинг табий шаклига назар солинг, энди уларни фаол ҳолатга келтиринг, лабларни бир-бирига теккизинг. Уларни худди ингичка карнай ҳолатида йиғинг, тепа лабни кўтаринг ва оғизни очинг. Уларнинг чиройли шаклига, пастки жағда тинчгина хотиржам ётган тилга қаранг. Тил илдизига қараб кичик тилчани кўринг, уни ушлаб олишга ҳаракат қилинг. Ҳалқумни юмшоқ танглайни ҳис қилган ҳолда эркин ҳолга келтириб эснашга ҳаракат қилинг. Чунки юқори тишлардан қаттиқ танглай келади, кейин эса юмшоқ ҳаракатланувчи танглай ва кичик тилча келади.

**2-машқ.** Тилни фаоллаштириш учун тилингизни бир томондан иккинчи томонга қимирлатинг. Олдинга, орқага, ўнгга, чапга, айлана ҳаракат қилиб икки томонга винтикли, трубочкини ҳолатда. Тил учини оғиздан чиқариб тез-тез уни бир бурчакдан иккинчи бурчакка ўтказинг.

**3-машқ.** Тил учини ҳис қилинг. У фаол ва қаттиқ худди болғачадек (бунда сизга тасаввур қилиш ёрдам беради). Тил уни билан тишларга уриб кўринг, худди (товушсиз) айтаяпсиз: ДА-ДЕ-ДА-ДА. Бу пайтда юқори танглайни ва оғиз кенглигини ўзингизга тасаввур қилинг. Гайратли кескин айтинг: Т-Д, -Т-Д, - Т-Д.

**4-машқ.** Ички назар билан оғиз бўшлиғини кўринг, табий тил жойлашуви пастки жағда тинчгина ётади, унинг уничи тепалик пастки тишларнинг илдизига тегади, тепадан эса юқори танглайга. Тил илдизи тинч тушган, шу сабабли хиқилдоқ (ҳалқум) хотиржам, эркин бўлади. Бу ҳисларни эшитинг ва эсда қолдиринг. Агар ҳаммасини бирдан ҳис қила ололмасангиз унда кўзгуни олинг, унга қаранг, кейин оғиз тузилишини тасаввур қилинг.

Вокалист ўқитувчилар аниқлашдики, тил буқрайиб ётганда у ҳалқумни (хиқилдоқни) тортади ва эгади, ижрода унинг тинчлигини ва оҳангдорлигини бузади. Тилни куч билан ётқизиш шарт эмас, кўзгу ёрдамида бу камчиликни тузатиш фойдали, уни ҳис қилиб, қулай жойлашишини ва ҳолатини қидириш керак. Бу ерда кўзлар ва дикқатни жамлаш ёрдам беради.

**5-машқ.** Тилни ва ҳалқумни озод қилиш учун шундай вазифани бажаринг: тез, қисқа ва чуқур нафас олиш, бурундан кейин оғиздан бутунлай чиқариш лозим. Нафас чиқаришда ҳаво тез, худди отилгандек бўлиши керак: «ФУ» товуши билан (лунжлар бўшайди). Ҳалқум мускулларини мустаҳкамлаш учун кескин талаффуз қилинг: К-Т, К-Г, К-Г.

**6-машқ.** Лаблар мускулларни фаоллаштириш учун йиғилган лаблар орқали лунжларни шишириб, ҳавони қарсиллатиб тез чиқаринг. Худди бир боғлам қилиб жамлангандек, кескин талаффуз қилинг: П-Б, П-Б, П-Б.

**7-машқ.** Бу машқларда пастки жағларни озод қилиш учун оғизни оддий очинг, жағларни четга ҳаракатлантириңг (суринг). Бу машқларни эркинлигини ҳис қилиб, енгил чарchoқни ҳис қилгунингизча күзгу олдида бажаринг. Пастки жағ эркин бўлиши керак, лекин очилмаган ҳолда оғир осилиб ётган пастки жағ ҳалқумга (хиқилдоққа) урилади. Товушни шаклсиз қилиб, артикуляцияни мустаҳкамлайди.

**8-машқ.** Жағлар қисилган бўлиши керак эмас, олдинги тишлар билан худди совуқда қолгандек титраган ҳолда тақиллатинг. Янги сиқилишлар пайдо бўлмаслиги учун сиз турли ҳаракатларни бажараётганингизда ўзингизни күзгу ёрдамида назорат қилинг. Сизнинг юзингиз (пешона, қошлар, кўзлар) тинч бўлиши керак, ҳеч қандай қийналмасдан, зўриқишишиз, ортиқча ҳаракатсиз, юзингизни кузатишга мослаша боринг. Қайси машқлардаги вазифалардан қийинчилик бўлганини кузатинг.

Қайсинисида нокулайлик ҳис қилдингиз, кўзгуда зўриқиши ёки қийин ахволни кўрдингиз? Ҳаракат (яхшиси зўр куч бериш) сизга нокулайликни келтириб чиқарган бўлса, кўп марта қайтариш керак. Сиз ўз олдингизга кўйган мақсадингизга, кўп маротаба такрорлаш орқали нокулай ҳаракатларни енгишга мувофақ бўласиз. Эътиборингизни нафас олиш ишида бажарилиши керак бўлган шароит - чарчамаслик, артикуляцион органлар ишида енгил чарчоқ ҳис қилгунча такрорлашга қаратинг. Бу енгил машқлар сизнинг артикуляцион аппаратингизни ривожлантиради ва маррага етказади. Кўзгуга оддий қараш жараёни эсда сақлаш ва тасаввур қилиш учун ахбарот беради. Жуда кўп бўладики, яъни машқ сўзини ўзи инсонда қисилишни келтириб чиқаради (айниқса бошловчиларда табиийликни йўқотиш, қандайдир тўхтов, нотўғри психологик ҳолатни келтириб чиқаради). Лекин доимо ишга мослашган одамларда «машқ» сўзи фаол иш ҳолатини келтиради. Биз ўқувчиларга айтамизки: сиз худди шамга пуфлаётгандек, ўзингизни тасаввур қилинг ва бу ҳаракатни жуда тез бажарасиз. Агар бошловчи билан ишлаётгандан биз бу жумладан олдин айтсак: яъни “машқни бажарамиз” - бунда тажрибага эга бўлмаган бошловчи табиийликни бир зумда йўқотади. Нафас олиш ҳам мисли кўрилмаган бир дақиқалик сукут (тўхталишларни), лабларга нотўғри зўриқиши беради ва ҳакозо. Тезликда ишчанлик ҳолатига киришишга ўрганиш керак. Тасаввур қила билиш учун турли ҳаракатларни бажара олиш, диққатни майда ҳаракатларгача тўғрилай олиш, ҳис туйгулар ва жараёнларни ўрганиш керак.

**9-машқ.** Шеърлардан ёки ҳикоялардан парча олинг, уларни ёддан билмайсиз. Уни ўзингиз учун кўзгу олдида ўқинг, ўз юзингиз, оғзингиз, кўзларингизни ўқиётган пайтингизда кузатинг. Товушингиз қандай жаранглайтганига аҳамият беринг.

Баҳолаш критериялари - эстетик ўқув турли кўринишлардаги уйғунлик, табиийлик физик ва психологик ҳолатнинг қулийлигидир. Кўп вактда

бошловчиларнинг кўзгу олдидаги иши бу хақиқий эканлигини сезиш мумкин. Сиз бу ишда ўзингизга кўзгу олдида туриш қулайлигини билишингиз керак. А.Барсова маслаҳат беради: “Мусиқали асарни ижро қилишдан олдин бир неча маротаба матнни ўқиб чиқиши керак, яхшиси кўзгу олдида туриб”. Шундай қоида мавжуд: “Ҳар қандай жумлани, товушни талаффуз қилишдан олдин нафас олинг, кейин уни юқори тишлилар илдизига қаттиқ танглайга қаратинг”. Ҳазилакам ўзингизни қуён деб тасаввур қилинг. Олд тишлилар билан сабзини еяётгандек худди шундай жадал фаол ҳисни сиз матнни ўқиётган вақтингизда сезишингиз керак. Товуш тузилиши билан машғул бўлган вақтингиздан бошлаб ҳамма товушлар нафас йўлида бўлиши керак. Ўз ўрнида бу шароит умр бўйи, ҳатто оддий сўзлашувда ҳам эсдан чиқмайди.

**10-машқ.** Янги жумлани айтишда нафас олиш кўникмаси устида ишланг. Шеър ва ҳикоя парчасини ўқиётганингизда ўзингиз англаган ҳолда ҳар бир жумладан олдин нафас олинг. Чунки нафас олиш товуш чиқаришда ва равшаник сифатида керакки, буни нафақат жумла бошида ва ҳатто турли белгиларда ҳам бўлиши лозим. (бу адабий ва мусиқали матнга тегишлидир). Нафас олиш шовқинли бўлмаслигини кузатинг, чунки ҳар хил товушлар матнни қабул қилишга халақит қиласди.

Иккита қоидани эсда тутиинг:

а) жумла бошида лаблар енгилгина ёпилган бўлиши керак, яъни товуш бошланишида кечикмаслик учун турли товушлар чиқармаслик (уа-уэ-уо) ва яна чапиллатмаслик керак;

б) оғизни товуш охирида ёпиш шарт, бўлмаса уни еб қўяди ва жумла охирида «М» эшишилади.

**11-машқ.** Сиз баланд ёки паст талаффузингизда кўпроқ нафас олишингиз лозимлигини кузатинг. Сиз баланд талаффуз қилиш учун кўпроқ нафас олишингиз кераклигини тушуниб оласиз, паст сўзлашув эса камроқ нафас олишни талаб қиласди ва нафас чиқарганда кўпроқ кузатувчанлик, диққатни жалб қилишлик керак. Бу сизнинг узоқдаги тингловчиларнингизга ҳам эшишилиши керак.

**12-машқ.** Шеърни ёки асарни уч ҳисса ошириб, матнни талаффуз қилган ҳолда ўқинг. Бу артикульяцион аппаратлар учун яхши гимнастикадир. Уч ҳиссалик талаффуз катта хонада аниқ эшишилади, аммо уч ҳиссалик талаффуз жағларни сиқилишига олиб келмаслиги керак. Ҳалқумни, тилни, лабларни ҳар доим эсда тутиш даркор, унли товушлар жадал, бир зумда ва енгил талаффуз қилиниши шарт. Улар ундошлар товуш талаффузини бузмаслиги лозим, бўлмаса ижрода бири иккинчисига ўтишида талаффузни оғирлаштиради ва мустаҳкам унлилар аппаратни қисилишига олиб келади.

**13-машқ.** Унли товушларни текис оқим бўйича талаффуз қилиш усули орқали аниқ ва бир зумда шеърни чўзиб, фақат унлиларда ўқиши керак.

Ёлғиз елкан кўринмокда

е-е-и е-е у-и-о-а

Ушбу бир текис чиройли унлилар оқимини эшиting. Кейин бу оқимга

тез аниқ ва енгил ундошларни қўйинг, унлилар оқимининг бир текислилигини ва чиройлилигини бузмасликка ҳаракат қилинг. Бунда нимани назорат қилиш керак: гап – сўз (тишлар орасида) яқин қолсин, ҳалқумда эркин нафас олиш жадал бўлсин. Ушбу машқни ижро олдидан ҳам қилиш мумкин. Фақат олдин адабий матнда, кейин эса мусиқа билан. Ижро фақат унлиларда бўлса яхши натижа беради.

**14-машқ.** Машқлар учун тез айтишлар жуда яхши натижа беради. Тез айтишларни олдин секин айтиш керак, сўнгра уларни аста-секин тезлаштирилади. Аъло даражага етказгунга қадар давом эттирилади. Талаффузни ритмик бўлишини кузатинг. Тезлик даражасини ва товуш сўзларини аниқ талаффуз қилишни унутмаслик керак.

- 1) Ғани ғилдиракни ғизиллатиб ғилдиратди.
- 2) Оқ чўзгукка кўк қапқоқ, кўк чўзгукка оқ қапқоқ.
- 3) Чигиритка чийиллаб чириллади, ва ҳакозо.

**15-машқ.** Педагог Витт маслаҳат беради: “Тезлиқда гапларни охири ажратиб кўрсатилишига алоҳида диққатни қаратиш керак, бу товуш ва сўзларни аниқ талаффуз қилишни яхшилайди, лекин ушбу қоидани унутмаслик керакки, ундошларни йириклиштирмаслик, оғирлаштирмаслик даркор, балки активлаштириш зарур”.

**16-машқ.** Сўлғин, синик талаффуз қилиш, айниқса ижрода тезлик даражасини чўзилишига олиб келади.

**17-машқ.** Агар сизда қандайdir товушлар ўхшамаса, унда оддий луғатни олинг, уни сизга қийин бўлган ҳарфини олиб, шошилмасдан барча сўзларни бирин-кетин ўқинг, сизга қийин бўлган товушга қулоқ солинг. Кўп марталаб назоратда бўлган товушни талаффуз қилиш шароитни яхши томонга ўзгартиради. Бу ишга магнитафонни кўшиш жуда яхши. Сизга луғат керакли ҳарф билан сўзларни топишингизга ва диққатни жалб қилишингизга ёрдам беради.

**18-машқ.** Акустик ва тембрли овоз хусусиятларини ривожлантириш учун ҳалқум ва тил мускуларини ривожлантириш зарур. Товушсиз А-Э-О ларни талаффуз қилиш, эснаш бўшлиғини кенг очган ҳолда (офизни эмас) 10 марта кайтариш керак.

Барча маслаҳатлар ва машқлардан керакли хулоса чиқариб оламиз.

а) артикуляцион аппарат ичида машқларни бажариш онгли равища текширув, кузатувни талаб этади.

б) кўзгу олдида ишлаш жуда зарурдир.

в) жадал эркинлик ичида ўзига нисбатан жуда талабчан бўлиш керак, яъни ҳеч ҳам сиқилишларга йўл қўймаган лозим. Масалан «қийшиқ оғиз, қошларни чимириб, кўз соққасидан чиққудай» ҳолатларда.

г) артикуляцион аппаратни машқ қилишда нокулай ҳаракатларни кўп марталаб қайтариш керакдир, яъни қулайликни ҳис қилгунча, мускуллар чарчашидан қўрқмаслик керак, лекин янги қисилишлардан қочиш зарур.

д) яхши ижроиларнинг қўшиқларини тинглаш жуда фойдалидир, чунки эшитиш орқали қабул қилиш мускули ҳис-туйғуларни англашни яхшилайди.

## ХУЛОСА

Ўзбекистон Республикаси истиқлолга эришгандан сўнг унитилиб бораётган миллий қадриятларимиз, миллий анъаналаримиз ва урфодатларимиз алоҳида эътибор берила бошланди. Шу билан бир қаторда миллий санъатимизга бўлган эътибор ҳам кучайди.

Миллий мусиқамиз асрлар оша авлодлардан-авлодларга ўтиб сайқаллашиб, ривожланиб келмоқда. Ёш ва баркамол авлодни миллий руҳда тарбиялашда ва умуминсоний қадриятларимизни асраб авайлаб келажак авлодларга ҳам қолдиришда миллий мусиқамиз ва санъатимизнинг ўрни ниҳоятда бекиёс.

Шу мақсадларни кўзлаган ҳолда яратилган ушбу ўқув методик қўлланманинг ҳам асосий вазифаси вокал ижрочилигида овозни тўғри тарбиялаш, тўғри нафас олиш ва ундан фойдаланиш, тўғри товуш ҳосил қилиш, артикульяция аппарати ҳамда товуш ҳосил бўлишида иштирок этадиган барча органларни таништириш ва уларни фаолияти ҳақида маълумотлар беришдан иборатдир.

Албатта, вокал ижрочилиги ўқитувчиси аввало ўзи ниҳоятда пухта ўзлаштирилган вокал овозига эга бўлмоғи, ҳар бир асарни назарий ва бадиий таҳлилини тўғри тушунтира олиши, танланган асарни талабаларга ўзи ижро қилиб бериши, ижро этиш жараённида ҳар бир товушни ҳосил бўлиши, уни жаранглashi, айтилаётган асарни тингловчи нечоғли етиб боришини англатмоғи керак.

Ўқув-методик қўлланмада овозни тўғри ҳосил қилиш, тўғри нафас олиш ҳақида машқлар ҳам берилган. Бу эса бўлажак вокал ижрочилирига катта ёрдам берадики, бунда дикцияни ривожлантириш, унли ва ундош товушларни талаффуз қилиш, турли хил нота чўзимлари бўйича куйлаш, бир нафас оралиғида бир неча тактдаги бўғинларни тўғри куйлаш жараённида нафасни ушлаб тура олиш, оддийдан мураккабга қараб хроматик ижрони тўғри куйлашга унрайди.

Шуни алоҳида таъкидлаш керакки, вокал ижрочилиги ўқитувчиси нафақат педагог психолог ҳам бўлиши талаб этилади. Чунки характери жиҳатидан турли хил бўлган талабаларга асар танлашда, уларга мазмун моҳиятини тушунтиришда, уларни ижросидаги нуқсонларни аниқлаш ва уни тушунтириш жараёнларида психолог жиҳатдан ёндашган ҳолда амалга оширилади.

Ушбу ўқув-методик қўлланма бўлажак вокал ўқитувчилари ва талабаларнинг амалий ва назарий билимларини янада бойитишда ва ижрочилик маҳоратларини ўстиришга, мунтазам равишда ўз устида ишлашлари, асарларни таҳлил қила олишлари, ижро йўлларида изланишлар олиб боришларида катта ёрдам беради деган умиддаман.

Ушбу ўқув-методик қўлланма маданият ва санъат олий ўқув юртларининг бакалавр йўналиши талабалари учун мўлжалланган.

## **Саволлар**

- 1. Овозни ташкил килувчи барча аъзолар кандай аталади?**
- 2. Овоз аппаратини ташкил килувчи аъзоларга куйидагиларнинг кайси бири киради?**
- 3. Товуш ташкил килишда кайси аъзо катнашади?**
- 4. Күшик айтиш жараёни нимадан бошланади?**
- 5. Ижро асосининг пойдевори нима?**
- 6. Нафас олиш неча куринишда булади?**
- 7. Италянчадан «масчера» -маска деган маъноларни билдириб, ашулачилик санъати кенг таркалган мусика жанри ва шакли кандай аталади?**
- 8. Товушнинг пастки таянчи нима дейилади?**
- 9. Вокал адабиётида ижродаги эснаш неча турга булинади?**
- 10. Нафас олганда бир нотадан иккинчи нотага хеч кандай силкинишсиз, тухтамасдан бир текис утиши, нима деб аталади?**
- 11. Ижро товушини тарбиялашда ишни нимадан бошлаш керак?**
- 12. Регистр тушунчаси кандай аталади?**
- 13. Ижрочи яхши ижро килиши учун нималарга эътибор бериши керак?**
- 14. Ижро бу нима?**
- 15. Хаво утказиш бушлигига (бурма усти ва ости ерида) товушлар чидамлилиги акустик узгаришларга учрайди, кучаяди ва бу бушликлар нима деб аталади?**
- 16. Күшик айтганда эснок кандай холатга келади?**
- 17. Инсон аъзосидаги эгилувчан тана нима деб аталади?**
- 18. Ижрочи кандай нафас олиши керак?**
- 19. Ижро санъати бу нима?**
- 20. Нима билан машқ килиш яхши натижа беради?**

## **ТЕСТ САВОЛЛАРИ**

1. Овозни ташкил қилувчи барча аъзолар қандай аталади?
  - А. асаб системаси
  - Б. товуш чиқарувчи аппарат
  - В. диафрагма
  - Г. овоз аппарати
2. Овоз аппаратини ташкил қилувчи аъзоларга қуйидагиларнинг қайси бири киради?
  - А. оғиз ва бурун бўшлиги, диафрагма
  - Б. хиқилдоқ, товуш найчалари, томоқ
  - В. трахея, бронх, ўпка, қўкрак қафаси
  - Г. барча жавоблар тўғри
3. Товуш ташкил қилишда яна қайси аъзо қатнашади?
  - А. қалқонсимон мускуллар
  - Б. асаб системаси
  - В. товуш бурмалари
  - Г. ички мускуллар
4. ... - бу ҳаво ўтиш тезлигини ва овозлар ташкил бўлишида бурмалар тагидаги босимни, улар кучини ўзгаришини тартибга солади.
  - А. диафрагма
  - Б. хиқилдоқ, халқум, бўғиз
  - В. бурун бўшлиги
  - Г. оғиз бўшлиги
5. Кўшиқ айтиш жараёни нимадан бошланади?
  - А. ҳаво чиқаришдан
  - Б. товуш чиқаришдан
  - В. нафас олишдан
  - Г. бўғиз мускуллари қисқаришидан
6. Ижро асосининг пойдевори бу - ...
  - А. нафас
  - Б. диафрагма
  - В. овоз аппарати
  - Г. овоз ташкил этилиши жараёни
7. Нафас олиш неча кўринишда бўлади?
  - А. тўртта
  - Б. учта

В. иккита

Г. Бешта

8. Вокал бу - ... деганидир.

А. италянчадан «масчера» -маска

Б. ашулачилик санъати кенг тарқалган мусиқа жанри ва шакли

В. шеърий ва мусиқий образлар бир-бирига уйғунлашган ҳолда дунёга келиши

Г. барча жавоблар түғри

9. Товушнинг пастки таянчи бу...

А. кўкрак ости резонаторлари

Б. кўкрак резонаторлари

В. кўкрак устки резонаторлари

Г. ижро резонаторлари

10. Вокал адабиётида ижродаги эснаш неча турга бўлинади?

А. бир турга (вокалли эснаш)

Б. уч турга (ижрода эснаш)

В. икки турга (вокалли эснаш, ярим эснаш)

Г. ҳеч қандай турга бўлинмайди

11. Ижро овози нутқ овозидан қандай фарқ қиласди?

А. диапазони ва кучи билан

Б. тембри билан

В. овознинг ранг-баранглиги билан

Г. барча жавоблар түғри

12. Нафас олганда бир нотадан иккинчи нотага ҳеч қандай силкинишсиз, тўхтамасдан бир текис ўтиши, бу - ...

А. кантилена

Б. легато

В. диафрагма

Г. овоз резонатори

13. Ижро товушини тарбиялашда ишни нимадан бошлиш керак?

А. вокал ундошларини шакллантиришдан

Б. вокал товушларини тўғри талаффўз қилишдан

В. вокал унлиларини шакллантиришдан

Г. сўзларни аник, тўғри талаффўз қилишдан

14. Регистр тушунчаси бу...

А. бир қатор кетма-кет ва бир турдаги овозлардир

Б. бир механизмни ички тўзилиши ҳаракати орқали ишлаб чиқилишидир.

В. кўқраклар ва бош резонаторларининг ишлашидир  
Г. тўғри жавоб А ва Б

15. Кўқрак регистри неча турга бўлинади?

- А. уч турга
- Б. икки турга
- В. тўрт турга
- Г. бир турга

16. Ижрочи яхши ижро қилиши учун нималарга эътибор бериши керак?

- А. ўз овозини куч билан сиқиб чиқармаслиги
- Б. ўз-ўзини эшитиши
- В. ўз-ўзини назорат қилиши
- Г. барча жавоблар тўғри

17. Ижро бу...

- А. танаффузсиз овознинг мантиқий ҳаракатидир
- Б. нафас чиқариш (товушли)дир
- В. нафас олиш (товушли)дир
- Г. координация (овозни тўғрилаш)дир

18. Ҳаво ўтказиш бўшлиғида (бурма усти ва ости ерида) товушлар чидамлилиги акустик ўзгаришларга учрайди, кучаяди ва бу бўшлиқлар нима деб аталади?

- А. диафрагма
- Б. резонатор
- В. дикция
- Г. овоз регистрлари

19. Товуш сўzlарини аниқ талафуз қилиш бу - ... дейилади.

- А. дикция
- Б. резонатор
- В. диафрагма
- Г. Регистр

20. Ижрочи ижро қилаётганида...

- А. оғизни чиройли очиши керак
- Б. тилни тўғри қўйиши керак
- В. нафаси сиқилмаган бўлиши керак
- Г. юзи эркин бўлиши керак

21. ... бу овоз аппаратининг бир қисми бўлиб, нутқ товушларини шакллантиради ва унинг таркибига кирувчи артикуляцион аппарат аъзоларидан биридир.

- А. дикция  
Б. артикуляцион аппарат  
В. резонатор  
Г. Регистр
22. Қуидагиларнинг қайси бири артикуляцион аппаратга тегишилидир?  
А. юз, лаб, тил  
Б. тишлар, жағлар  
В. танглай, халқум, бўғиз  
Г. барча жавоблар тўғри
23. Артикуляцион аппарат ишининг шарти бу...  
А. харакатчанлик  
Б. табиийлик  
В. фаоллик  
Г. тўғри жавоб Б ва В
24. Машқлар учун ... жуда яхши натижа беради  
А. тез айтишлар  
Б. ойнага қараб машқ қилиш  
В. шеър ва парча ўқиши  
Г. кўпроқ нафас олиш
25. Кўшиқ айтишда эсноқ...  
А. тораяди  
Б. кенгаяди  
В. чўзилади  
Г. тўхтайди
26. Инсон аъзосидаги эгилувчан тана бу - ... дейилади.  
А. товуш бурмалари  
Б. оғиз мускули  
В. манглай бўшлифи  
Г. Мускуллар
27. «Овозни тарбиялашнинг бошланғич даврида қўшиқчи шуни эсда тутиши керакки, яъни товуш билан эмас, балки ақл билан ўрганиш лозим, уни чарчатиб ҳеч қандай восита билан ҳам яхши ҳолатга келтира олмайсан. Ақлли бош омадли ишларнинг кафолатидир, у шунингдек худди яхши товушдек зарур». Юқорида келтирилган жумла қайси педагог-вокалист олимига тегишили?  
А. М. Гарсия  
Б. П. Луканин  
В. Ф. Ламперти

Г. С. Фучито

28. Ижрочи қандай нафас олиши керак?

- А. кўкрак кафаси ҳаво билан тўлиб очилиши
- Б. елка тинч бўлиши
- В. қадди-бастини тўғри тутиши
- Г. хамма жавоблар тўғри

29. Ижро санъати бу...

- А. нафас чикариш санъати
- Б. нафас олиш санъати
- В. тўғри эснаш санъати
- Г. тўғри ижро қилиш санъати

30. Нафас олганда қовурғалар қандай холатга келади?

- А. қовурғалар ён томонга, қорин олдинга чиқади
- Б. қовурғалар ички томонга, қорин олдинга чиқади
- В. қовурғалар ён томонга, қорин ичкарига киради
- Г. қовурғалар олдинга, қорин хам олдинга чиқади

31. Нима билан машқ қилиш яхши натижа беради?

- А. шам билан
- Б. қуш пати билан (страус)
- В. кўзгу билан
- Г. барча жавоблар тўғри

32. Битта нотадаги барча унлиларни топинг.

- А. а, э, и, о, у
- Б. а, д, м, н, у
- В. а, о, э, и, у
- Г. тўғри жавоб А ва В

33. Эркаклар овози неча турга бўлинади?

- А. олтита турга
- Б. еттита турга
- В. бешта турга
- Г. тўртта турга

34. Аёллар овози неча турга бўлинади?

- А. еттита турга
- Б. бешта турга
- В. олтита турга
- Г. тўртта турга

35. Овозлар классификацияси неча хил бўлади?

- А. аёллар, эркаклар овози
- Б. аёллар, ўсмирлар овози
- В. эркаклар, ўспиринлар овози
- Г. аёллар, ёш болалар овози

36. Нафасни тўғри сарфланиши бу - ...

- А. нафас олганда ҳаддан ташқари кўп олишлик ва уни чиқарганда охиригача сиқиб чиқариш
- Б. нафас олганда ҳаддан ташқари кўп олмаслик ва уни чиқарганда охиригача сиқиб чиқармаслик
- В. нафас олганда ўртacha олиш ва уни охиригача сиқиб чиқариш
- Г. нафас олганда ҳаддан ташқари кўп олишлик ва уни ўртacha сиқиб чиқариш

37. Тана «вокал шаклини» сақлашида нималарга эътибор бериши керак?

- А. нафас чиқариш ва янги нафас олиш ўртасида сукут сақлаш
- Б. нафас чиқариш ва янги нафас олишда сукут сақламаслиги
- В. нафас олиш ва овоз бошланиши ўртасида нафас чиқаришнинг бир зумда тутилиши
- Г. тўғри жавоб А ва В

38. Ўзбек вокал санъати намоёндалари кимлар?

- А. Ҳ. Носирова, С. Қобулова
- Б. Н. Ҳошимов, Б. Зокиров
- В. С. Ярашев, М. Рассақова
- Г. барча жавоблар тўғри

39. Вокал санъати қайси йўналишлардан иборат?

- А. анъанавий
- Б. мумтоз, мақом
- В. академик, эстрада
- Г. тўғри жавоб А ва В

40. «Овозни тўғри қўйишни биладиган ижрочиларда аниқ дикция, тўлиқлик, унлилар бутунлиги, хиқилдоқ чидамлилиги кузатилади. Шу билан бирга яхши овозга эга бўлмаган ижрочиларда соф товуш билан ижро тўлиқ бўлмай, сифат даражаси паст бўлади. Яъни асосан хиқилдоқ кўп ҳаракатланиши кузатилади». Бу жумлалар қуйидаги қайси олимга тегишли?

- А. М. Лебедев
- Б. Ф. Заседателев
- В. А. Менабени
- Г. Э. Карузо

**Тест саволларининг жавоб калитлари:**

1.Г	11.Г	21.Б	31.Г
2.Г	12.А	22.Г	32.А.В
3.Б	13.В	23.А.В	33.А
4.А	14.Г	24.А	34.В
5.В	15.В	25.Б	35.А
6.А	16.Г	26.А	36.Б
7.Б	17.А	27.В	37.А.В.
8.Г	18.Б	28.Г	38.Г
9.Б	19.А	29.А	39.А.В
10.В	20.Г	30.А	40.А

## **МУСТАКИЛ ИШ**

1. Узбекистонда таникли вокал ижрочилари билан якиндан танишиш.
2. Талабаларда вокал ижрочилиги хакидаги билим, куникма ва малакаларини орттириш.
3. Вокалнинг узига хос хусусиятларини эътиборга олиб иш куриш коидаларини эгаллаш.
4. Талабалар билан вокал ижро килишда овоз тарбияси ва уни ривожлантириш коидаларини такрорлаш.
5. Вокал машкларини, талаффузини, регистрларини текислаш масалаларини хал этишни узлаштириш.
6. Вокалда овоз созлаш, овоз хосил килиш, хамда талаффуз маданиятини узлаштириш устида машклар.
7. Вокалнинг максад ва вазифалари билан танишитириш.
8. Талабаларда вокални бошка фанлар билан узаро боғлиқлиги хакидаги билим ва куникмаларини орттириш.
9. Вокал ижрочисининг кандай кобилиятга эга булиши хакидаги тасаввурни талабаларда шакллантириш.
10. Ижрочига тавсия этилган асарни хар томонлама узлаштириш.

## **ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР**

- 1.К.П.Виноградов. Работа над дикции в хоре. М., 1967
- 2.Л.Б.Димитриев. Основы вокальной методики. «Музыка». М., 1968
- 3.А.С.Гусев, Ю.П.Сергеев. Анатомия. «Медицина» нашриёти. Т., 1969
- 4.И.О.Бризгалов. Школа пения для баритона и баса. Ф.Фулом. Т., 1987
- 5.Ш.Рўзиев. Хоршунослик. Ф.Фулом. Т.,1987
- 6.Н.Шарафиева. Хор синфи. «Мусика» нашриёти. Т., 2005
- 7.В.Ахунов. Эстрадное пение. Ташкент. 2008
- 8.Н.Ортиқматов. Жамоа ижрочилиги ва услубиёти. Т., 2008
- 9.Қ.Мирзаев. Болалар хор жамоаси билан ишлаш услубиёти. Т., 2009
- 10.Қ.Мирзаев. Аралаш хор жамоаси билан ишлаш услубиёти. Т., 2009

## **М У Н Д А Р И Ж А**

Кириш .....	52
Овоз аппарати ҳақида қисқача маълумот.....	53
Овоз (товуш) ташкил этилиш жараёни .....	58
Нафас олишнинг ички тузилиши.....	59
Овоз аппарати аъзолари(органи) .....	68
Ниқобдаги ижро тушунчаси .....	70
Вокалда эснаш .....	74
Ижрода хиқилдоқ (ҳалқум).....	75
Овоз регистрлари ҳақида .....	76
Овозларнинг классификацияси.....	80
Овоз билан ишлашнинг кейинги босқичлари .....	81
Резонатор нима? .....	82
Дикция .....	83
Артикуляцион аппарат. Дикция .....	85
Хулоса .....	90
Саволлар .....	91
Тест саволлари.....	92
Мустақил иш.....	99
Фойдаланилган адабиётлар.....	100

## M U N D A R I J A

Kirish .....	3
Ovoz apparati haqida qisqacha ma'lumot .....	4
Ovoz (tovush) tashkil etilish jarayoni .....	8
Nafas olishning ichki tuzilishi .....	9
Ovoz apparati a'zolari(organi).....	18
Niqobdag'i ijro tushunchasi.....	20
Vokalda esnash .....	23
Ijroda xiqildoq (halqum) .....	24
Ovoz registrlari haqida .....	25
Ovozlarning klassifikatsiyasi.....	29
Ovoz bilan ishlashning keyingi bosqichlari .....	30
Rezonator nima?.....	31
Diksiya.....	32
Artikulyatsion apparat. Diksiya .....	33
Xulosa.....	38
Savollar .....	39
Test savollari.....	40
Mustaqil ish.....	46
Foydalanilgan adabiyotlar .....	47

## Содержание

Введение.....	3
Короткие сведения о голосовом аппарате .....	4
Постановка голоса. Звукообразование.....	8
Механизм (внутренняя структура) дыхания.....	9
Органы голосового аппарата.....	18
Понятие «петь в маску» .....	20
Вокальный зевок.....	23
Гортань в пении.....	24
Несколько слов о регистрах голосов.....	25
Классификация голосов.....	29
Следующие этапы в работе с голосом .....	30
Что такое резонаторы.....	31
Дикция .....	32
Артикуляционный аппарат. Дикция.....	33
Выводы .....	38
Вопросы.....	39
Тесты.....	40
Самостоятельная работа .....	46
Список использованной литературы.....	47

## Contents

Introductory .....	3
Short information about voice apparatus .....	4
Voice (sound) process of organizing.....	8
Inter framework of breathing .....	9
Voice apparatus parts (organ) .....	18
Notion of cover performance .....	20
Vocal hic-cup .....	23
Performing hic-cup.....	24
About voice register .....	25
Classification of voices .....	29
Next steps of voice working.....	30
What is resonator? .....	31
Diction .....	32
Articulation apparatus. Diction .....	33
Conclusion.....	38
Question .....	39
Test question.....	40
Control work.....	46
References .....	47

## **РАҲИМОВ ЭРКИН ИСЛОМОВИЧ**

### **ВОКАЛ**

Ушбу ўқув-методик қўлланма вокал ижрочилигида овозни тўғри тарбиялаши, тўғри нафас олиш ва ундан фойдаланиш, тўғри товуши ҳосил қилиши, артикуляция аппарати ҳамда товуши ҳосил бўлишида шитирок этадиган барча органларни таништириши ва уларнинг фаолияти ҳақида маълумотлар беради.

Ўқув-методик қўлланмада овозни тўғри ҳосил қилиши, тўғри нафас олиши ҳақида машқлар ҳам берилган. Бу эса бўлажак вокал ижрочилигига катта ёрдам берадики, бунда диксиони ривожлантириши, унли ва ундоши товушларни талаффуз қилиши, турли хил нота чўзимлари бўйича куйлаши, бир нафас оралигида бир неча тақтдаги бўғинларни тўғри куйлаши жараёнида нафасни ушлаб тура олиш, оддийдан мураккабга қараб хроматик ижрони тўғри куйлашга ундаиди.

Ушбу ўқув-методик қўлланма бўлажак вокал ўқитувчилари ва талабаларнинг амалий ва назарий билимларини янада бойитшида ва ижрочилик маҳоратларини ўстиришига катта ёрдам беради.

“Вокал” ўқув-методик қўлланмаси маданият ва санъат олий ўқув юртлари бакалавр йўналиши талабалари учун мўлжалланган.

#### **Масъул мухаррир:**

**Носиров Р.Х.**

Абдулла Қодирий номидаги Тошкент Давлат Маданият институти

профессори, филология фанлари номзоди

#### **Тақризчилар:**

**Мирзаев Қ.Т.**

-

Абдулла Қодирий номидаги Тошкент Давлат Маданият институти  
“Вокал ижрочилиги, мусиқа тарихи ва назарияси” кафедраси  
мудири, профессор

**Тўраев Ю. Ш.**

-

Ўзбекистон Давлат консерваторияси доценти, Ўзбекистонда хизмат  
кўрсатган артист

## **RAHIMOV ERKIN ISLOMOVICH**

### **VOKAL**

*Ushbu o‘quv-metodik qo‘llanma vokal ijrochiligidagi ovozni to‘g’ri tarbiyalash, to‘g’ri nafas olish va undan foydalanish, to‘g’ri tovush hosil qilish, artikulyatsiya apparati hamda tovush hosil bo‘lishida ishtirok etadigan barcha organlarni tanishtirish va ularning faoliyati haqida ma’lumotlar beradi.*

*O‘quv-metodik qo‘llanmada ovozni to‘g’ri hosil qilish, to‘g’ri nafas olish haqida mashqlar ham berilgan. Bu esa bo‘lajak vokal ijrochilariga katta yordam beradiki, bunda diktsiyani rivojlantirish, unli va undosh tovushlarni talaffuz qilish, turli xil nota cho‘zimlari bo‘yicha kuylash, bir nafas oralig’ida bir necha taktdagi bo‘g’inlarni to‘g’ri kuylash jarayonida nafasni ushlab tura olish, oddiydan murakkabga qarab xromatik ijroni to‘g’ri kuylashga undaydi.*

*Ushbu o‘quv-metodik qo‘llanma bo‘lajak vokal o‘qituvchilari va talabalarning amaliy va nazariy bilimlarini yanada boyitishda va ijrochilik mahoratlarini o‘stirishga katta yordam beradi.*

*“Vokal” o‘quv-metodik qo‘llanmasi madaniyat va san’at olyi o‘quv yurtlari bakalavr yo‘nalishi talabalari uchun mo‘ljallangan.*

#### **Mas`ul muharrir:**

Nosirov R.X.

Abdulla Qodiriy nomidagi Toshkent Davlat Madaniyat instituti  
professori, filologiya fanlari nomzodi

#### **Taqrizchilar:**

**Mirzayev K.T.**

-

Abdulla Qodiriy nomidagi Toshkent Davlat Madaniyat instituti “Vokal ijrochiligi, musiqa tarixi va nazariyasi” kafedrasi mudiri, professor

**To‘rayev Yu.Sh.**

-

O‘zbekiston Davlat konservatoriyasi dotsenti, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan artist

## **РАХИМОВ ЭРКИН ИСЛАМОВИЧ**

### **ВОКАЛ**

*Это учебно-методическое пособие при пении вокала ознакомит о правильном воспитании певческого голоса, дыхании и как им пользоваться, о правильном произношении звуков, об артикуляционном аппарате, а также ознакомит с точной установкой ротоглоточных полостей и со сведениями их деятельности.*

*В этом учебно-методическом пособии даны упражнения о правильном произношении звуков и дыхании. А это будущим вокалистам оказывает большую помощь в развитии дикции, в произношении гласных и согласных звуков, в пении по разным нотам, в промежутке одного дыхания в процессе пения нескольких тактических слог правильно контролировать над дыханием и как правильно распевать хроматическое пение от простого до сложного.*

*Это учебно-методическое пособие также помогает будущим учителям вокалистам и студентам развивать и усовершенствовать свои теоретические и практические навыки и певческие способности.*

*Учебно-методическое пособие «Вокал» предназначен для студентов бакалавров института культуры и искусства.*

#### **Ответственный редактор**

**Насыров Р.Х.**

Профессор Ташкентского Государственного института культуры имени А.Кадыри, кандидат филологических наук

#### **Рецензенты:**

**Мирзаев К. Т.**

-

Профессор, заведующий кафедрой «Вокальное исполнительство, история и теории музыки» Ташкентского Государственного института культуры имени А.Кадыри

**Тураев Ю. Ш.**

-

Доцент УзГосКонсерватории,

Заслуженный артист Узбекистана

## **ERKIN RAHIMOV**

### **VOCAL**

*This methodical textbook deals with such aspects of vocal performance as fostering correctly voice, correctly breath, correctly use the voice as well as introducing all body organs which create articulation patterns. The textbook has some exercises above-mentioned components of voice. These processes can give further vocal players to improve their diction, pronounce vowel and consonants, different kind of note patterns from the simplest one to the most difficult ones.*

*This textbook will help to improve vocal players teachers theoretical and practical skills as well as performing habits.*

*Vocal studying method textbook intends to bachelor degree students of art and culture higher educational institutions.*

#### **Special editor:**

**Nasirov R.X.**

professor Tashkent State Institute of Culture named after Abdulla Kodiriy

#### **Reviewers:**

**Mirzayev K.T.**

—

professor, head of the “Theory and history of music, vocal performing” department Tashkent State Institute of Culture named after Abdulla Kodiriy.

**Turayev Y.Sh.**

—

associate professor of Uzbekistan State Conservatory, Deserved artist of the Republic of Uzbekistan

**ERKIN RAHIMOV**

## **VOKAL**

Madaniyat va san'at oily o'quv yurtlari uchun  
o'quv-metodik qo'llanma

**Mas'ul muxarrir:**  
**Rahmatilla Nosirov**

**Taqrizchilar:**  
**Qodir Mirzaev**  
**Yunus To'raev**

Dizayner: Diyor Oxunjonov

Original maketni Niyozali Ortiqmatov  
tayyorlagan

Bosishga ruxsat etildi 10.11.10 yil. Qogoz formati 60x84 1/8.  
Bosma tabog'i 7,0. Adadi 500 nusxa. Buyurtma № 97.  
O'z R FFAAK Bosmahonasida chop etilgan.  
100170 Toshkent, I. Mo'minov 13 uy.